



DUNYONI O'ZGARTIRGAN KITOB

人生は三歳までにつくられる!

# 幼稚園では 遅すぎる\*



Masaru Ibuka

Uchdan keyin  
kech

1-kitob



Masaru Ibuka

# Uchdan keyin kech

Nurmuhammad Nargiza  
Hamidulla qizi tarjimasi

*Beshinchি nashr*

Nizomiy nomli  
T D P U  
kutubxonasi

Toshkent  
«Akademnashr»  
2022



UO'K 159.9

KBK 88.4

I-14

I-14 Ibuka, Masaru.

Uchdan keyin kech [Matn] / M. Ibuka. – Toshkent:  
Akademnashr, 2022. – 264 b.

ISBN 978-9943-5652-7-2

UO'K 159.9

KBK 88.4

*Har bir bolada bir daho yashirin. Uning kim bo'lib voyaga yetishi esa kattalarning munosabati, tarbiyasi mahsulidir. Qo'lingizdagi kitobda muallif sizni bunga ishontirishnigina o'z oldiga maqsad qilib olmagan. Kitobni o'qib siz bola tarbiyasiga oid oddiy va tushunarli usullar bilan tanishasiz. Faqat bu borada kechikib qolmasligingiz lozim.*

*Kitob o'z farzandining kelajagi uchun qayg'uradigan barcha ota-onalarga mo'ljallangan.*

Yapon tiliga qiyoslab tahrir qiluvchi:  
Dilnora Madumarova

Rassom:  
Mirkamol Zokirov

ISBN 978-9943-5652-7-2

© Masaru Ibuka, 1971

© Nurmuhammad Nargiza  
Hamidulla qizi, 2022

© «Akademnashr»,  
«Uchdan keyin kech», 2022

## Mundarija

|                                       |          |
|---------------------------------------|----------|
| <b>Kirish .....</b>                   | <b>5</b> |
| <br>                                  |          |
| <b>Birinchi qism</b>                  |          |
| Bolaning yashirin imkoniyatlari ..... | 10       |
| <br>                                  |          |
| <b>Ikkinchchi qism</b>                |          |
| Erta tajribaning ta'siri.....         | 54       |
| <br>                                  |          |
| <b>Uchinchi qism</b>                  |          |
| Go'dak uchun nima foydali? .....      | 82       |
| <br>                                  |          |
| <b>To'rtinchchi qism</b>              |          |
| Tarbiya qoidalari.....                | 138      |
| <br>                                  |          |
| <b>Beshinchchi qism</b>               |          |
| Nimadan o'zni chegaralamaslik kerak?  |          |
| Kelajakka nazar.....                  | 224      |
| <br>                                  |          |
| <b>Ibuka va erta yosh ta'limi</b>     |          |
| Chiba universiteti faxriy professori  |          |
| Tago Akira sharhi .....               | 261      |



## Kirish

Qadim zamonlardan buyon noyob qobiliyat, eng avvalo, irsiy, tabiat in’omi deb hisoblanadi. Bizga: “Motsart uch yoshida pianino chalgan” yoki “Jon Styuart Mill lotin tilidagi mumtoz adabiyotlarni ham aynan shu yoshda o‘qigan”, desalar, ko‘pchiligidan oddiygina qilib: “Albatta, axir ular daho-ku”, – deb qo‘ya qolamiz.

Ammo Motsart va Millning go‘daklik chog‘idagi hayoti borasida olib borilgan chuqur tahlillardan ma’lum bo‘lishicha, ularning otalari o‘z farzandlari buyuk shaxs sifatida kamol topishi uchun natijali tarbiya usullaridan foydalanganlar. Mening fikrimcha, Motsart ham, Mill ham daho bo‘lib dunyoغا kelmagan. ularning qobiliyati go‘daklikdanoq yaratilgan qulay shart-sharoit va berilgan samarali ta’limdan to‘liq rivojlandi.

Aksincha, yangi tug'ilgan chaqaloq dastlab tabiatiga xos bo'lмаган мухитда тарбияланса, келажада унинг то'лиқ ривожланishi hamda tabiat in'ом etган исте'dodining shakllanishi imkoniyati yo'qoladi. Eng yaqqol misol "bo'ri qizlar" tarixi bo'lib, ular 1920-yilda Kalkutta (Hindiston)dan janubi-g'arbiy tomondagi g'ordan missioner va uning xotini tomonidan topilgan opa-singil Amala va Kamaladir. Erkak bo'ri va uning jufti birga boqib ulg'aytirgan qizlarga insoniy sifatlarni singdirish uchun qancha urinishmasin, barcha harakatlari behuda bo'lди. O'z-o'zidan ayonki, odam bo'lib tug'ilgan chaqaloq – odam, bo'rining bolasi esa bo'ridir. Biroq bu qizlarda insoniy shart-sharoitlarda ham bo'riga xos qiliqlar namoyon bo'lishda davom etaverdi. Demak, chaqaloq tug'ilganidan boshlab uni o'rab turgan atrof-muhit va ta'lim-tarbiya bolaning kim bo'lib yetishishini aniq belgilab beradi!

Bu misollar haqida fikr yuritib, men yangi tug'ilgan chaqaloqqa ta'lim-tarbiya va atrof-muhitning qanchalik kuchli ta'sir qilishi haqida ko'proq o'yayman.

Bu muammo nafaqat ba'zi bolalarining, balki insoniyatning salomatligi va baxti uchun beqiyos ahamiyatga ega. Shu bois 1969-yilda men "Yaponi-


ya erta rivojlanish uyushmasi” tashkilotini tuzishga kirishdim. Doktor Shinichi Suzukining kichkintoy-larga skripka chalishni o‘rgatishga asoslangan va ayni vaqtda butun dunyo e’tiborini tortgan o‘qituv uslubini o‘rganish, tahlil qilish hamda amaliyotga tatbiq etishni yanada kengaytirish uchun mahalliy va xorijiy olimlar yig‘ilib, tajribaviy sinflarida fikr almasha boshladilar.

Ishimiz oldinga siljigani sari bizga bolalar tarbiyasiga an’anaviy yondashuv naqadar noto‘g‘ri ekanligi ayon bo‘la bordi. Odatda, biz bolalar haqidagi barcha narsani bilamiz deb o‘ylaymiz. Aslida, ularning haqiqiy imkoniyatlari haqida juda kam tasavvurga egamiz. Biz uch yoshdan katta bolalarga nimani o‘rgatish masalasiga ko‘p e’tibor beramiz. Ammo, zamonaviy tadqiqotlarga ko‘ra, bu yoshgacha bosh miyadagi hujayralarning 70 – 80 foizi rivojlanib bo‘ladi. Bu biz o‘z xatti-harakatimizni uch yoshgacha bo‘lgan bolalar miyasini erta rivojlantirishga yo‘naltirishimiz zarurligini anglatmaydimi? Erta ta’lim berish degani chaqaloqlarni raqamlar va har xil ma’lumotlar bilan majburan aqliy rivojlantirishga erishish degani emas, albatta. Asosiyisi, hamma tajriba va ta’lim usullarini “o‘z vaqtida” qo’llay olishdadir. Buni esa chaqaloqqa tun-u kun

g‘amxo‘rlik qiladigan onadan boshqa hech kim ud-dalay olmaydi, aynan ona bola tarbiyasidagi “kerakli vaqt”ni aniq his qiladi.

Biz ta’lim deganda o‘qib-o‘rganishni tushunamiz, boshqacha aytganda, ta’lim o‘qib-o‘rganishdan iborat deb o‘ylaymiz. Lekin maktabgacha ta’lim o‘qib-o‘rganishdan avvalgi bosqichdagi ta’limdir. “O‘z vaqtida” erta ta’limga e’tibor berishning alohi-da jihat bo‘lib, buni tashkil etadigan shaxs onadir, undan o‘zga kishi emas. Albatta, bolaning ta’lim olish mas’uliyatiga javobgar onalar farzandining kelajagi borasida qayg‘urib, ularga ko‘proq e’tibor qaratish to‘g‘risida doim o‘ylaydilar deb hisoblayman. Shu ma’noda mazkur kitob ana shunday onalarga ko‘maklashish maqsadida yozildi.

*Muallif*



Birinchi qism

**Bolaning  
yashirin  
imkoniyatlari**

## **1.Muhim davr**

### **Bog‘cha davri – juda kech**

Ehtimol, har biringiz maktab davringizni yaxshi eslarsiz? Masalan, sinfdagi o‘tkir zehnli o‘quvchi hech qanday mashaqqatsiz sinf yetakchisi bo‘lar, ayni paytda, boshqa bir o‘quvchi qancha harakat qilmasin, bilim olishda ortda qolardi.

Mening o‘quvchilik paytimda o‘qituvchilar bizlarni shunday rag‘batlantirar edilar: “Aqlimisan yoki yo‘qmi, bu naslga bog‘liq emas. Barcha narsa o‘z xatti-harakatingga bog‘liq”. Ammo shaxsiy tajribam a’lochi doimo a’lochi, ikkichi esa doim ikkichi ekanini ko‘rsatardi. Xuddi qobiliyat avvaldan belgilab qo‘yligandek. Bu nomuvofiqlikni qanday hal qilish kerak?

Mening xulosam shundan iborat bo‘ldiki,insonning qobiliyat va fe’l-atvori tug‘ilganida belgi-

lanmay, uning aksariyat qismi hayotining ma'lum davrida shakllanadi. Insonni uning nasli shakllantiradimi yoki u oladigan ta'lim va tarbiyami? Insoniyat qadim zamonlardan buyon shu savol ustida bahs yuritib keladi. Ammo bugungi kunga qadar biron-bir ishonchli nazariya bu bahslarga chek qo'yolgan emas.

Nihoyat, bir tarafdan, miyaning fiziologik tad-qiqoti, ikkinchi tomondan, bolalar psixologiyasini o'rganish natijalariga ko'ra shu narsa ma'lum bo'l-diki, bola aqliy qobiliyatining rivojlanish kaliti – bu uning birinchi uch yilda, ya'ni miya hujayralarining rivojlanish davrida olgan shaxsiy tajribasidir. Barcha insonlar dunyoga bir xil holatda keladi, ya'ni hech bir bola o'tkir zehnli yoki nodon bo'lib tug'ilmaydi.

Tug'ilgandan boshlab oladigan ta'lim-tarbiyası sababli, inson noyob qobiliyatga ega bo'laman desa, noyob qobiliyat egasi, yomon xislatga ega bo'laman desa, shunday bo'lish ehtimoli yo'q emas. Biroq istagan payt, masalan, ulg'aygach, biron noyob qobiliyat sohibi bo'laman degani samara bermaydi. Tug'ilgandan uch yoshgacha bo'lgan oraliqda insonning qobiliyati va fe'l-atvori deyarli shakllanib bo'ladi. Shuning uchun mактабга borganida

qobiliyatli bola bilimni hech qanday qiyinchiliksiz, qobiliyati yetarlicha shakllantirilmagani esa doim uzoq vaqt sarflab, mashaqqat bilan o'zlashtirishiga to'g'ri kelishiadolatsizlikdek ko'rinsa-da, lekin bu hech qachon yo'qotib bo'lmaydigan holat sanaladi.

Barchasi bola kelajagini hal qiluvchi hayotiy bosqich, ya'ni uch yoshgacha bo'lgan davrdagi go'dak miyasining rivojlanish darajasiga bog'liqdir. Shuning uchun ham tug'ilishdan uch yoshgacha bo'lgan davr va shu yoshgacha berilgan ta'lim juda muhimdir. Ayni paytda, farzand tarbiyasini uning bolalar bog'chasiga chiqish davriga qadar qoldirish juda kechdir.

## **Barchasi o‘qitish usuliga bog‘liq**

O‘quvchi hayron bo‘lishi mumkin: “Nega men, mutaxassislik bo‘yicha muhandis va hozirda kompaniya prezidenti, insonning erta rivojlanish masalalari bilan shug‘ullanishga kirishdim?”. Buning sabablari qisman “ijtimoiy”dir. Avvalo, hozirgi kundagi yoshlarning isyoniga befarq emasman va o‘z-o‘zimdan so‘rayman: “Yoshlarning hayotdan qoniqmasligiga zamonaviy ta’lim qanchalik aybdor?” Bundan tashqari, mazkur masalada shaxsiy sabablari ham bor, ya’ni o‘z farzandim aqliy rivojlanishda ortda qolmoqda edi.

Bu kabi nuqsonlar bilan tug‘ilgan bola, unga tug‘ilishidan to‘g‘ri ta’lim berilsa, oddiygina o‘qimishli inson bo‘lib kamol topishi mumkinligi farzandim juda yosh bo‘lgan paytda mening xayolimga ham kelmagan. Doktor Shinichi Suzuki ko‘zim-

ni ochdi. Uning ta'kidlashicha: "Qoloq bolalar yo'q. Barchasi o'qitish usuliga bog'liq". Doktor Suzuki ning go'daklarni skripka chalishga o'rgatish uchun qo'llagan va hayratlanarli natijalarni ko'rsatgan "Noyob iste'dodni tarbiyalash" usuli bilan tanishganimda ota sifatida farzandimga o'z vaqtida hech nima qilmaganimdan ilk bor afsuslandim.

Men endi talabalar g'alayonlari muammosi bilan shug'ullana boshlaganimda ta'limning ahamiyati haqida chuqur o'yladim va nima sababdan bizning tizim shu qadar tajovuzkorlik va qanoatsizlikni vujudga keltirayotganini tushunishga harakat qildim. Avvaliga menga bu tajovuzkorlik ildizlari universitet ta'lim tizimida mavjuddek tuyuldi. Biroq muammoni chuqur o'rgangach angladimki, ayni masala o'rta maktab uchun ham xos ekan. So'ng maktabning o'rta hamda boshlang'ich tizimini o'rgandim va shunday xulosaga keldimki, bolaga bog'chada ham ta'sir ko'rsatish kech bo'lar ekan. Kutilmaganda mazkur fikr doktor Suzuki va uning hamkasblari shug'ullanayotgan ish bilan mos keldi.

Doktor Suzuki o'zining "Suzuki metodi" deb ataladigan, go'daklarga mo'ljallangan g'ayrioddiy ta'lim usulini o'ttiz yildan beri amaliyotda qo'lla-

moqda. Bunga qadar u ta’limning an’anaviy usul-larini qo’llab, boshlang‘ich va yuqori sinflarda dars bergen. Uning aniqlashicha, yuqori sinflarda qobiliyatli va qobiliyatsiz o‘quvchilar o‘rtasidagi farq juda kattadir. Shuning uchun u yoshi kichikroq bolalar bilan shug‘ullanishga harakat qildi. Shunday qilib, asta-sekinlik bilan o‘qitayotgan bolalari yoshini kichraytirib bordi. Men talabalar g‘alayoni haqida o‘ylay boshlaganimda Suzuki bu boradagi uslublarini allaqachon, o‘ttiz yil oldin, amaliyotda qo’llab bo‘lgan edi. Doktor Suzuki skripka chalishni o‘rgatadi, chunki o‘zi skripkachi. Bu usulni ta’limning istalgan sohasida qo’llash mumkinligini tushunganimda “erta rivojlantirish” muammosini jiddiy o‘rganishga qaror qildim.


## **Erta ta'lim buyuk daholarni tarbiyalab yetishtirishni maqsad qilmaydi**

Mendan ko'pincha: "Erta ta'lim buyuk daholarni tarbiyalaydigan ta'limmi?" – deb so'raydilar. Men: "Yo'q", – deb javob beraman. Erta ta'limning yagona maqsadi bolani aqli va sog'lom, o'tkir zehnli va gapga qulq soladigan qilib tarbiyalashdir.

Barcha odamlar, agar jismoniy nuqsonlari bo'lmasa, deyarli bir xil holatda tug'iladilar. Bolalarning aqli yoki nodon, ma'sum yoxud tajovuzkor bo'lishi ularning tarbiyasiga bog'liq. Agar har bir bolaga kerakli narsa zarur vaqtida berilsa, u o'tkir zehnli va kuchli irodaga ega bo'lib ulg'ayadi.

Odamlar va kuchuklarda kechadigan jarayonlarni taqqoslash g'ayritabiiy tuyulishi mumkin. Lekin qanchalik ajoyib, zotdor nasldagi kuchuk bo'lsa

18-90964



ham, egasiz, daydi itlar to‘dasiga qo‘sib qo‘ysak, u tobora vahshiylashadi. So‘ng oxiri chinakam daydi itga aylanadi. Ta’kidlash shart emaski, yangi tug‘il-gan chaqaloqning miyasi itning miyasiga nisbatan sust rivojlangan bo‘lib, tarbiyalanish usuliga qarab (odamlar orasiga emas, itlar orasiga tashlab qo‘yilsa) osongina “daydi it”ga ham aylana oladi.

Mening fikrimcha, barvaqt rivojlantirishning asosiy maqsadi baxtsiz bolalar paydo bo‘lishining oldini olishdir. Bolaga yoqimli musiqa eshittirish yoki skripka chalishni o‘rgatish uning mashhur musiqachi sifatida kamol topishi uchun amalga oshirilmaydi. Unga xorijiy til betakror tilshunos bo‘lib ulg‘ayishi yoki uni “yaxshi” bolalar bog‘chasiغا yoxud boshlang‘ich mактабга тайярлаш учун о‘ргатilmaydi. Asosiysi, boladagi cheksiz imkoniyatlarni rivojlantirish orqali uning hayotiga va dunyosiga ko‘proq quvonch olib kirishdir.

## **Chaqaloqning rivojlanmaganligi – uning ulkan imkoniyatlari kaliti**

Fikrimcha, erta rivoshlanish yangi tug'ilgan chaqaloqning aqliy salohiyati va cheksiz yashirin imkoniyatlari bilan bog'liq.

Albatta, endi tug'ilgan chaqaloq mutlaqo ojiz, ammo aynan shu ojizlik ostida yashirin imkoniyatlari beqiyosdir.

Inson chaqalog'i hayvon bolasidan ancha ojiz bo'lib tug'iladi: u faqat baqirib yig'lash va sut emishni biladi. Hayvonlar, masalan, kuchuk, maymun yoki otning bolasi esa emaklashi, yopishishi va hatto o'rnidan turishi, yurishi mumkin.

Zoologlarning ta'kidlashicha, yangi tug'ilgan chaqaloq endi dunyoga kelgan hayvon bolasidan 10 – 11 oycha orqada qoladi. Buning sabablaridan biri insonning, aniqrog'i, homilador ayolning yu-

rishdagi holatidir. Odam vertikal yurganida bacha-dondagi homila o'zining to'liq rivojlanish holatiga yetmaydi, shuning uchun ham chaqaloq ojiz bo'lib tug'iladi. Insonlar tug'ilganidan keyin o'z tanalari-dan foydalanishni (ya'ni harakatlanish, yurish) o'r-ganishlariga to'g'ri keladi.

Xuddi shu tarzda ular miya imkoniyatlaridan foydalanishni ham o'rganib oladilar. Hayvon bo-lasining miyasi tug'ilguniga qadar shakllanib ul-gurgan bo'lsa, yangi tug'ilgan chaqaloqning miyasi toza qog'oz kabitdir. Ana shu qog'ozga nima yozi-lishi bolaning qanchalik zehnli bo'lishini belgilab beradi.

## **Miya tuzilishi uch yoshgacha shakllanadi**

Aytishlaricha, inson miyasi taxminan 1,4 milliard hujayradan iborat, biroq yangi tug'ilgan chaqaloqlarda ularning aksariyati hali shakllanib ulgurmagan bo'ladi. Yangi tug'ilgan chaqaloqlarning miyasi go'yoki oppoq qog'ozdek.

Miya hujayralari alohida-alohida, tarqoq holda ishlamaydi. Miyaning mikrosuratiga qarasangiz, tug'ilgandan keyin vaqt o'tib ongi rivojlangan sari uning hujayralari orasida maxsus ko'prikcha-shox-chalarning shakllanishini ko'rishingiz mumkin.

Yangi tug'ilgan chaqaloq va voyaga yetgan inson miya hujayralarini taqqoslash shuni ko'rsatmoqdaki, miya rivojlanishi davomida uning hujayralarini bir-biri bilan bog'lovchi ko'prik-shoxlar paydo bo'ladi. Bosh miya hujayralari sezgi a'zolaridan olgan ma'lumotlarini bir-biriga uza-tish uchun go'yoki bir-biriga qo'lini cho'zadi. Bu

jarayon elektron kompyuterlardagi tranzistor va mikrosxemalarning ishini eslatadi. Alovida olingan tranzistorning bir o‘zi ishlay olmaydi, faqatgina yagona tizimga bog‘langandan so‘nggina kompyuter kabi ishlay boshlaydi.

Hujayralararo aloqalar eng faol shakllanadigan davr – bu bolaning tug‘ilishidan uch yoshgacha bo‘lgan davridir. Shu vaqt davomida bunday birikmalarining taxminan 70 – 80 foizi paydo bo‘ladi. Ular rivojlangani sari miyaning imkoniyatlari kengayib boradi. Tug‘ilgandan keyingi birinchi olti oy davomida miyaning salohiyati 50 foizga, uch yoshgacha esa 80 foizga yetadi. Albatta, bu go‘daklikdan keyin bola miyasi butkul rivojlanishdan to‘xtaydi degani emas. To‘rt yoshdan boshlab miyaning boshqa bir qismidagi hujayraviy aloqalar ishga tushadi. Uch yoshgacha asosan miyaning orqa qismi shakllanadi, to‘rt yoshdan esa bu murakkab jarayonga “peshona bo‘limlari” deb ataluvchi qism qo‘shiladi. Uch yoshgacha va undan keyingi hujayraviy aloqalar shakllanishidagi farq shundaki, uch yoshgacha shakllangan hujayra ko‘priklarini kompyuterdagи “texnik ta’minot” desak, uch yoshdan keyingisi esa kompyuterdagи “dastur bilan ta’minlash”ga mos keladi.

Miyaning tashqi signalni qabul qilishi, uning tasvirini yaratishi va uni xotirada saqlab qolish sifati asosiy qobiliyat hisoblanib, bu bosh o'zak aynan biz nazarda tutgan kompyuterdirki, bolaning kelajakdagi intellektual rivojlanishiga fundamental asos bo'ladi. Fikrlash, ehtiyojlar, ijodkorlik, his-tuyg'ular kabi yetuk qobiliyatlar uch yoshdan keyin rivojlanadi, ammo ular bu yoshgacha shakllangan bazadan foydalanadilar.

Shunday qilib, agar dastlabki uch yilda mustahkam baza (fundament) shakllanmagan bo'lsa, undan foydalanishni o'rgatish behuda, ya'ni harakat natija bermaydi. Bu xuddi buzilayozgan kompyuterda ishlab yaxshi natijalarga erishishga urinish kabidir.

## **Zamonaviy tarbiya**

### **“qattiqxo’llik” davri bilan**

### **“hamma narsa mumkin”**

### **davrini o‘zgartirib**

### **xato qilmoqda**

Hozirgi kunda ham ko‘pgina psixologlar va pedagoglar, ayniqsa, “ilg‘or” (progressiv) pedagoglar bolani yoshlidan o‘qitishni noto‘g‘ri deb hisoblaydilar. Ularning fikricha, ma’lumotning ko‘pligi bolaning asab tizimiga salbiy ta’sir qiladi, shu sababdan uni o‘z-o‘ziga qo‘yib berish va o‘zi istagan narsani qilishga imkon yaratish o‘rinlidir. Ba’zilar hatto bu yoshdagи bolalarning xudbin ekaniga va barcha ishlarni faqat o‘z xursandchiligi uchun qilishiga ishonishadi.

Shu sababli butun dunyodagi ota-onalar bunday fikrlar ta’siri ostida ongli ravishda bolani “tinch qo‘yish” tamoyiliga amal qiladilar.

Xuddi shu ota-onalar bola bog‘cha yoki maktabga borganida darhol bu tamoyildan voz kechib, birdan o‘z farzandlariga biron narsani o‘rgatishga va tarbiyalashga urinib, qattiqqo‘l bo‘lib qoladilar. Hech bir sababsiz “muloyim” onalar “shafqatsiz” onalarga aylanadilar.

Yuqoridagi ma’lumotlarga asosan, buning teskarisi bo‘lishi kerak. Bola hayotining, ayniqsa, birinchi yillarida u bilan qattiqqo‘l hamda muloyim bo‘lmoq, uch yoshdan keyin, o‘z “men”ini taniy boshlaganida esa uning irodasini hurmat qilishni o‘rganmoq zarur. Aniqroq qilib aytsak, ota-ona ta’siri bog‘chagacha tugatilmog‘i lozim. Go‘daklikda aralashmaslik va keyinroq bolaga bosim o‘tkazish undagi qobiliyatni so‘ndirishi va qarshilikni vujudga keltirishi mumkin.

## **2. Yosh bola nima qila oladi?**

**Kattalarning “qiyin”  
va “oson” tushunchalari  
bolalarga to‘g‘ri kelmaydi**

Biz – kattalar u yoki bu kitob bola uchun juda qiyin yoki bola mumtoz musiqani baholay olmaydi deya qat’iy ishonamiz. Ammo qanday asosga tayaniib bunday xulosalar qilamiz?

Bola uchun aniq belgilab qo‘yilgan “qiyin” yoki “oson” degan tushunchalar yo‘q. Ingliz yoki yapon tilimi, Bax yoki yosh bolalar musiqasimi, bir xil ohangdagi va bir turdagи kuy yoxud tovushlar uyg‘unligimi – barchasi bir vaqtda o‘rgatila boshlanishi kerak, bola uchun hammasi yangi.

Hissiyotlar asosida qilingan xulosa bilimga bog'liq emas, aksincha, bilim hissiyotlar uchun to'siq bo'lishi mumkin. Ehtimol, ko'pchilik mash-hur san'at asariga qarab o'z-o'ziga: "Juda betakror, shoh asar", – degan, aslida esa siz asarni ko'rganda unga nisbatan hech qanday hisni tuymagansiz. Siz uchun suratning qadr-qimmati rassomning ismi va suratning bahosi bilan bog'liq. Bola esa doimo rostgo'y. Biror-bir narsa yoki mashg'ulot unga qiziq bo'lsagina uning e'tiborini butunlay o'ziga tortadi.

Amerikada yosh bolalarga mo'ljallangan "Kunjut ko'chasi" nomli juda keng ommalashgan teleko'r-satuv bor. Kunjut ko'chasini "kunjut xiyoboni" deb tarjima qilsak ham bo'ladi. Nyu-Yorkdagi Harlem ko'chasi mana shu teleko'rsatuvning asosiy man-basi bo'lib, undagi qahramonlar shu yerda yashay-digan qo'g'irchoqlardir. Bu teleko'rsatuvning qiziq tomoni shundaki, undagi qahramonlar alohida-alohida bo'lsa-da, o'ta aniq fe'l-atvorga ega sana-lib, qo'shnilariga ham birmuncha o'xshab ketadi. Bunday fe'l-atvordagi odamlar serqirra, "Yoshi ikkilar atrofidagi bolalar ularni tushuna olmaydi", – deb o'ylasam, unday emas ekan. Go'daklarning ham ko'ngliga yoqadigan qahramoni bo'lib, bu

qahramon ekranda ko‘rinishi bilan unga mahliyo bo‘lib qolar edi. Ayniqsa, go‘daklar e’tiborini jalb qiladigani – bu kanareyka qushi. Uning fe’l-atvori shundayki, beg‘amligidan doim muvaffaqiyatsizlikka uchraydi, lekin baribir bunga aybsizdek be-parvo bo‘lib, hech ham o‘rganish niyatidan qaytmaydi. Tomoshabin hali so‘zlarni ham talaffuz qila olmaydigan go‘dak bo‘lsalar-da, kattalardan farq qilmasligi, shuningdek, ularda qo‘g‘irchoqlarning murakkab fe’l-atvorini tushunib, “men bunga xayrixohman” degan tushunchaning bo‘lishi juda muhim hisoblanadi. Kattalarning fikri sanalgan “go‘daklar uchun” degan tushuncha, aslida, qanday qilib chaqaloqlarga mos kelmasligini mana shu misol orqali izohlash mumkin.

## **Bolalar “shaklga qarab tanib olish” degan o‘ziga xos xususiyatga ega qobiliyat egasidir**

Ko‘pdan beri ko‘rismagan ikki yashar nabiram uyimga mehmonga kelgan paytdagi bir voqeani eslayman. U oynaga qaradi va menga yangi osilgan neon lampa bilan yoritilgan viveskani ko‘rsatdi-da, g‘urur bilan: “Bu “Xitachi”, bu esa “Toshiba”, – dedi. O‘z zavqimni yashirishga harakat qilib, ikki yoshdagi nabiram xitoycha iyerogliflar sanalmish “Xitachi” va “Toshiba”ni o‘qiydi deb o‘yladim. Uning onasidan qachon xitoy alifbosini o‘rganganini so‘radim. Aniq bo‘ldiki, u xitoycha “Xitachi” va “Toshiba”ni o‘qigan emas, balki savdo belgilarini shakllar sifatida eslab qolib ajrata olgan. Hamma: “Sodda, suyukli bobo”, – deb ustimidan kului, ammo, ishonchim komilki, bu ko‘pchilikda bo‘ladi.

Yaqinda mening erta rivojlanish haqidagi bir qator maqolalarimni haftalik jurnalda o‘qigan fudjisavalik 28 yoshli onadan xat oldim. Uning xatidan bildimki, ayolning ikki yarim yashar o‘g‘li avtomashina rusumlarini ikki yoshligida eslab qolishni boshlagan. Ikki-uch oy ichida taxminan 40 ta ham yapon, ham xorijiy rusumdagи avtomashinalarning nomini, ba’zida g‘ilofda turgan avtomashina rusumini ham osonlik bilan ayta olgan. Biroz oldinroq, “Ekspo-70” teleko‘rsatuvi ta’sirida bo‘lsa kerak, u turli mamlakatlarning bayroqlarini yodlashni boshlagan va 30 ta mamlakatning bayrog‘ini tanigan hamda aytib bergen. Hattoki katta odamlar ham qiyinchilik bilan eslab qoladigan Mongoliya, Panama, Livan bayroqlarini ham tanigan va to‘g‘ri ayta olgan. Bu misol bolalarda kat-talarda yo‘q bir sifat borligini anglatadi.

Yosh bolaga qiyofa (shakl)ga qarab narsalar ni tanish qobiliyati berilgan va bu tahlil qilish bilan bog‘liq emas, buni bola kechroq o‘rganadi. Bu farazni tasdiqlovchi yorqin misol chaqaloq o‘z onasining yuzini taniy olish qobiliyatidir. Ko‘p chaqaloqlar, begona odam ularni o‘z qo‘liga olsa, yig‘lashni boshlaydi va o‘z onasi qo‘lida tinchlana-di, kuladi. Onasining mehrini sezishidan tashqari

chaqaloq uning qo'lida ko'tarish usulini ham bir namuna sifatida esda saqlab qoladi.

Tajriba sifatida janob Isao Ishii "Yaponiya erta rivojlanish uyushmasi"da xitoy yozuvi darslarini o'tib berdi. Uch yoshli bolalar "kaptar" va "jirafa" kabi murakkab xitoy iyerogliflarini osongina yodlab oldilar. Gap shundaki, yuzdagi hatto kichik o'zgarishlarni ham hech qiyinchiliksiz yodda qoldiradigan bola uchun xitoy iyerogliflarini eslab qolish murakkablik tug'dirmaydi. Mavhum so'zlaridan ko'ra, masalan, "to'qqiz" kabi, bola uchun qanchalik qiyin bo'lmasin, "jirafa", "tulki" kabi aniq bir narsani bildiruvchi so'zlarni yodlash osonroq. Shuning uchun ham yosh bola katta odamni qartada yutishi ajablanarli hol emas. Agar katta odam joy, sana va rasmni ongli ravishda eslashi zarur bo'lsa, yosh bolada ajoyib ramziy xotira mavjud.

## **Yosh bolaga arifmetikadan ko‘ra algebrani o‘rganish oson**

Matematikaning fundamental g‘oyalaridan biri qatorlar nazariyasidir. Avval sonlar tushunchasini, keyin geometriya va algebrani o‘rgangan katta odam uchun bu nazariyani tushunish qiyin. Yosh bola uchun esa qatorlar yoki to‘plamlar nazariyasi mantig‘ini tushunish oson.

Matematikani o‘rgatish bo‘yicha shuhrat qozongan ayol Madam Risheni Feliksning ta’kidlashicha, bolaga matematikani istalgan yoshda o‘rgatish mumkin.

“Qator” yoki “to‘plam” – bu umumiy sifatga ega predmetlarning birlashmasidir. Bola ular bilan kubiklar o‘ynashni boshlaganida tanishadi. Bola ularni birma-bir olib, tuzilishiga qarab ajratadi: kvadrat, uchburchak va boshqalar. Shu yoshdan u har bir ku-

bik – “qator”ning elementi va kvadratlar to‘plami – bu bir qator, uchburchaklarniki esa boshqa ekanini yaxshi anglaydi. Predmetlarni ma’lum bir xususiyati bo‘yicha guruhlarga ajratish mumkin degan oddiy fikr qatorlar nazariyasining asosi hisoblanadi. Bola uchun oddiy va mantiqiy to‘plamlar nazariyasini arifmetikaning murakkab va chalkash nazariyasi-dan ko‘ra tushunish osonligi tabiiy holdir.

Shunday qilib, men aminmanki, kattalarning “Arifmetika oson va algebra qiyin” degan an’ana-viy tushunchasi bolalarning imkoniyati xususidagi yana bir yanglish fikrdir. Bola miyasi osonlik bilan to‘plamlar nazariyasi mantig‘ini qabul qiladi va bu algebra asoslarini tushunishda zamin bo‘ladi.

Arifmetik masalaga bir misol: “Hayvonot bog‘ida hammasi bo‘lib 8 ta hayvon bor: toshbaqalar va turnalar. Ularda 20 ta oyoq bor. Hayvonot bog‘ida nechta toshbaqa va turna bor?”

Keling, avvalo, bu masalani algebraviy usul yordamida yechamiz. Turnalar sonini  $x$ , toshbaqalar sonini  $y$  desak,  $x+y=8$ ,  $2x+4y=20$ . Hisoblaymiz,  $x+2y=10$ , ya’ni  $x=8-y=10-2y$ ; demak,  $y=2$ ,  $x=6$ .  $X$  ning o‘rniga aylana,  $y$  ning o‘rniga uchburchakni olsak ham bo‘ladi. Demak, 2 ta toshbaqa va 6 ta turna bor.

Endi bu masalani arifmetika yordamida yechamiz. Agar barcha hayvonlarni toshbaqa deb olsak, unda ularda 32 ta oyoq bo‘lishi kerak. Ammo masalada 20 ta berilgan, demak, 12 ta oyoq ortiqcha. Ortiqchaligi sababi, biz hayvonlarning barchasini 4 oyoqlik toshbaqa deb tasavvur qildik, amalda esa ba’zilari turnalar va ularda 2 ta oyoq bor. Shuning uchun ortiqcha 12 ta oyoq – bu turnalar soni ikkita hayvon oyoqlarining farqiga ko‘paytirilganidir; 12 ni 2 ga bo‘lsak, 6, demak, 6 ta turna, agar 8 – hayvonlarning umumiy sonidan turnalar soni – 6 ni ayirib tashlasak, toshbaqalar soni kelib chiqadi.

Nega bizda noma’lum sonlar o‘rniga x va y ni qo‘yish bilan javobni olish uchun mantiqiy va to‘g‘ri yo‘l turgan bo‘lsa-yu, bu masalani murakkab “toshbaqaviy” arifmetik usulda yechishimiz kerak. Algebraviy yechimni tezda anglash qiyin bo‘lsa-da, bir qarashda oson ko‘ringan mantiqsiz yechimdan ko‘ra algebradagi mantiqiy tushuntirishni anglash osonroq bo‘ladi.

## **Uch oylik chaqaloq ham Baxni baholay oladi**

“Sony” firmasining “Adzuki zavodi”da er-xotin ishchilarning ikki-uch yoshli farzandlari uchun onalari iltimosiga ko‘ra bolalar bog‘chasi tashkil etilgan edi. U yerda bolalar qanday musiqani yoqtirishini aniqlash uchun tadqiqot o‘tkazildi. Ku-zatishlar kutilmagan natijalarni berdi. Ikki-uch yashar kichkintoy uchun eng hayajonli musiqa Betxovenning “Beshinchi sonatasi” bo‘ldi. Ikkinchi o‘rinni televizorda ertadan kechgacha beriladigan mashhur qo‘shiqlar, oxirgi o‘rinni yosh bolalar ashulalari egalladi. Bu natijalar meni juda qiziqtirib qo‘ydi.

Kichkintoylar mumtoz musiqani eng qiziq deb topdilar, biz esa ulardan bu musiqani ma’lum bir uzoqlikda saqlaymiz. Bolalar tug‘ilishidan murakkab simfoniyani baholash uchun zarur musiqaviy

qobiliyatga egami? Doktor Shinichi Suzuki kuzatuvlariga ko'ra, besh oylik chaqaloqlarga Vivaldining konserti yoqar ekan. Bu menga do'stimning qizi va turmush o'rtog'i bilan bo'lgan bir voqeani eslatdi.

Mumtoz musiqa havaskorlari bo'lgan yosh ota-onan o'zlarining yangi tug'ilgan chaqalog'iga Baxning "Ikkinchis syuita" sini har kuni bir necha soatdan tinglatib borishgan. Uch oydan so'ng u musiqa ohangiga mos ravishda harakat qilishni boshlagan. Musiqa tezlashganda uning harakatlari qisqaroq va jadalroq bo'lar ekan. Musiqa tugaganida esa u norozilik bildirar ekan. Ko'pincha bolaning jahli chiqsa yoki yig'lasa, ota-onan shu musiqani qo'yib berishar va u darhol tinchlanarkan. Bir kuni jaz qo'yib berishganida bola yig'lab yuborgan.

Bu voqeani eshitib uch oylik bola ham Bax mu-siqasiga tushunishini bilish bilan birga go'daklarning ajoyib musiqaviy hissiyoti borligiga amin bo'ldim.

Murakkab musiqa ohanglarini qabul qilish qobiliyati – bu mo'jiza. Men aminmanki, ko'pgina yaponlar g'arb mumtoz musiqasini shunchaki yoshlikda faqat yosh bolalar ashulalari va milliy musiqadan boshqa hech narsa tinglashmagani sababli ham qabul qila olishmaydi.

## **Olti oylik chaqaloq hatto suzishi ham mumkin**

Katta yoshdagi odam bo'lsa ham, suzishni bilmay, suvgaga tushsa xuddi cho'kib ketayotgan tosh-dek bo'lib qoladiganlar ko'p. Shuning uchun siz go'dakka suzishni o'rgatish mumkinligini bilib ajablanishingiz mumkin. Hali yurishni boshlama-gan go'dak suvda xuddi yerda emaklagandek turishga harakat qiladi. Muhimi bolaning suza olishi emas, balki yosh bola bo'lganligi uchun ham suza olishidir.

Bir necha yil avval men gazetada belgiyalik De Beneseylning emizikli chaqaloqlar uchun suzish mактабини ochgани haqidagi maqolani o'qigan edim. Uning fikricha, uch oylik chaqaloqni hovuzda orqa tomoni bilan o'zini ushlab turishga, to'qqiz oyligida esa suvda to'g'ri nafas olishga o'rgatish mumkin.

1965-yilning avgust oyida Tokioda bo‘lib o‘tgan ayol atletlarning xalqaro konferensiyasida rais Riza Dimning bir yoshgacha bo‘lgan bolalarning suza olishi mumkinligi haqidagi ma’ruzasi jiddiy shov-shuvlarga sabab bo‘ldi. Dim xonim besh oylik chaqaloqni  $32^{\circ}\text{C}$  haroratdagi hovuzga tushirdi va uch oydan so‘ng u 6 daqiqa davomida suza oladi-gan natijaga erishdi. Chaqaloq suvda 8 daqiqa-yu 46 soniya turib berib o‘ziga xos rekord ham o‘rnat-di.

Press-konferensiyada Dim xonim aytdiki: “Yosh bola yerdan ko‘ra suvda qanday turishni ancha yaxshi biladi. Birinchidan, siz uni suvda ko‘nikishiga va o‘zi suvda turishni boshlaguniga qadar ushlab turasiz. Suvga cho‘kish vaqtida bola nafasini ushlaydi va suv sirtiga suzib chiqquniga qadar ko‘zlarini ham yumadi. Shunday qilib, u qo‘llari va oyoqlarini ishlatib suzishni o‘rganadi”. Dim xonimning alohida ta’kidlashicha, insonning imkoniyatlari va qobiliyatlarini bir yoshga qadar rivojlantirish mumkin.

Bolaning suzish qobiliyati uning cheksiz imkoniyatlarni tasdiqlovchi birgina dalildir. Birinchi qadamlarini qo‘yayotgan go‘dak ayni shu davrda rolikda uchishni o‘rganishi ham mumkin. Agar bola

to'g'ri yo'naltirilib rag'batlantirilsa, yurish, suzish va sirpanishni o'yin sifatida o'rganadi.

Albatta, bu tajribalar bolani suzishga yoki skripka chalishga o'rgatish uchun o'tkazilmaydi. Suzish bolaning qobiliyatlarini rivojlantirish uslublari dan biridir: suzish uyquni yaxshilaydi, ishtahani ochadi, reflekslarni kuchaytiradi va mushaklarni chiniqtiradi. "Temirni qizig'ida bos" deydilar.

Boshqacha qilib aytganda, temirga sovib bo'lganidan keyin shakl berishga urinish juda kechdir. Chunki metall qattiqlashib ulgurgan bo'ladi. Shuning uchun temirni qizig'ida bosing.

## **Bola miyasi cheklanmagan miqdorda ma'lumot qabul qila oladi**

“Tillar bo'yicha daho sanalmish aka va singil ingliz, ispan, italyan, nemis, fransuz tillari: besh til hamda o'z tajovuzkor otalarining tilini ham bilardilar”. Ko'plab yaponiyaliklar gazetada “Tajovuzkor ota” sarlavhasi ostida paydo bo'lgan shov-shuvli xabarni eslashsa kerak. Maqola janob Masao Nagata haqida edi. U o'qituvchilik kasbini tashlab, o'zini uy begi deb e'lon qildi va o'z hayotini farzandlari tarbiyasiga bag'ishladi.

O'sha paytda uning o'g'li ikki yarim yoshda, qizi esa uch oylik edi. Bolalar hali juda yosh bo'lgani sababli “qattiqqo'l” tarbiyachi ota noroziliklarga uchradi. Masalan, katta hajmdagi ma'lumotlar bolalarga og'irlilik qiladi va asabiy fe'l-atvor egalariga aylanib salbiy natijalar keltirib chiqaradilar degan mazmundagi fikrlarni bildirganlar ko'p bo'ldi.

Tanqidlar asossiz ekanligini Nagataning baxtsaodat ila gullab-yashnayotgan oilasiga qarab ham anglash mumkin edi. Bu o'rinda ota o'z ishini tashlab, o'zini butunlay farzandlari tarbiyasiga bag'ishlaganini to'g'ri yoki noto'g'ri deya hukm chiqarish noo'rin bo'lsa kerak.

Muhimi, janob Nagata tatbiq etgan go'daklarining aqliy qobiliyatlarini namoyon qiluvchi o'qitish uslubidir. U shunday deydi: "Men ularga ingliz, ispan, italyan, nemis, fransuz tillarida so'zlashuvni o'qitishni deyarli bir vaqtda boshladim. Radioda fransuz tili darslari ingliz tilida tushuntirib bori-  
lar edi. Shuning uchun men agar ko'pgina tillar bir paytda o'rgatilsa, o'qitish usulini umumlashtirish mumkin degan qarorga keldim.

Xuddi shu vaqtda farzandlarim pianino chalishni o'rganishayotgan edi. Ular chalishni o'rgana-yotgan notalar italyan tilida izohlangan, tarjimasi esa ingliz, nemis va fransuz tillarida edi. Agar ular izohlarni tushunmasalar, chalishni ham bilmas edilar. Men ularga turli tillarni o'rgatishim sabablaridan biri ham ana shunda edi. Menden ko'pincha: "Bolalar besh tilni bir vaqtda o'rganish davomida chalkashganmilar?" – deb so'rardilar. Fikrimcha, yo'q: ular axir tillardan to'g'ri foydalanishgan. Biz

xorijiy tillar bilan faqat radio orqali shug‘ullanar edik. Bu radioeshittirishlarni juda muloyim boshlovchilar olib borar edi. Talaffuz mashqlari uzoq vaqt davomida takrorlanardi. Bolalar o‘zлari gapirganida hamma narsani to‘g‘ri talaffuz qilar edilar (“Erta rivojlanish”, 1970-yil may)”.

Demak, taxmin qilish mumkinki, uch yoshgacha bo‘lgan bola miyasining ma’lumotni qabul qilish qobiliyati katta odamnikiga nisbatan ustunroq. Faqat unga “ko‘proq berish” yoki qiziqish uyg‘otishdan qo‘rmaslik kerak: yosh bola miyasi shimgich (bosma qog‘oz) kabi bilimni o‘ziga “shimib” oladi, agar to‘lib ketganini sezsa o‘chadi va yangi ma’lumotni qabul qilishni to‘xtatadi. Biz xavotir olishimiz kerak bo‘lgan narsa bolaga ma’lumot ko‘p berayotganimiz emas, balki bolani aqlan to‘laqonli rivojlantirish uchun ma’lumotning juda kam taqdim etayotganimizdir. Janob Nagata buni o‘z shaxsiy tajribasida sinovdan o’tkazgani fikrimiz dalilidir.

## **Bola faqat o‘ziga qiziq bo‘lgan ma’lumotnigina eslab qoladi**

Shu o‘ringacha men bola miyasining ma’lumotni qabul qilishdagi yuksak imkoniyatini ta’riflab berdim. Albatta, rivojlanishning bu bosqichida bola miyasi o‘ziga hamma narsani yutib oladigan mashinaga o‘xshaydi, u hali ma’lumotni tanlab olish va tushunish holatida bo‘lmaydi. Ma’lumotlarni qanday bo‘lsa, shundayligicha qabul qilib, xotirasida saqlab boradi.

Ammo tez orada bola o‘zi mustaqil ravishda qarorlarni qabul qilishni boshlaydi, ya’ni vujudga kelgan texnik ta’mindan qanday foydalilaniladi degan vazifani bajaruvchi miya hujayralari ishga tushadi. Bu taxminan uch yoshlarda sodir bo‘ladi. Xuddi shu davrda “Bolani nima bilan qiziqtirish kerak?” degan masala ko‘ndalang qo‘yiladi.

Go'dak o'ziga qiziq bo'lgan ma'lumotlarni tinimsiz yod oladi. Boshqa qobiliyatlar ham rivojiana boshlaydi: o'zi biror narsani yasashni, qilishni xohlab qoladi; bu harakatlar aqliy qobiliyat va xulq-atvor rivojlanishida juda muhimdir.

Siz o'z farzandlaringizga, ular o'qilgan matndagi ma'lumotni tushunishmasa ham, hikoyalar va ertaklar o'qib berasiz. Farzandingiz ko'p marotaba ularni eshitadi va eslab qoladi. Bordi-yu e'tiborsiz o'qisangiz, u darhol xatolarni angelaydi. Go'dak hikoya va ertaklarni aniq yodlab oladi, ammo bu aniqlik tushunishga emas, shakliy xotiraga asoslanadi.

So'ng bolaga qaysidir hikoya qiziq bo'lib qoladi va uni o'zi o'qishni istaydi. Alifboni bilmasa ham, eshitgan hikoyasini kitobdag'i rasmlarga solishtiradi va o'qiy olmaydigan harflarni ham "o'qiy" boshlaydi. Aynan shu vaqtda bola turli harflarning ma'nosini qat'iyat bilan so'raydi. Turli narsalar ni qaysarlik bilan so'rashi bolada unga qiziqish uyg'onganini ko'rsatadi.

Do'starning ota-onasi bolaning bu davridan mohirona foydalangan. Ular farzandiga iyerogliflarni o'rgatib, o'qishga qiziqishini uyg'otgan. Bolaning harflardan ko'ra iyerogliflarni eslab qolishi oson

kechadi. Lekin so‘nggi paytlarda chiqayotgan rasmli kitoblarning barchasi harflardan iborat. Shuning uchun ular farzandiga eski kitoblar sotiladigan do‘konidan eski, o‘qilishi ham yozilgan iyeroglifli bolalar ertak kitobini sotib olib, u bilan birgalikda kitobga qarab o‘qishgan, keyin bolaga qaytarib aytirishgan. Bola kitobni mustaqil o‘zi o‘qib, ertakni hikoya qilib beradigan bo‘lganida birinchi bo‘lib iyerogliflarga qiziqishi uyg‘ongan. Shundan so‘ng ota-onada bolaga harflarni hech qanday qiyinchiliksiz birma-bir o‘rgatganlar. Otasi o‘qiyotgan gazetadan bola o‘zi yodlab olgan iyerogliflarni tanib qolganda uyida shovqin solgan holatlarga ham qaramay, sekin-asta gazetaga ham qiziqishi uyg‘ongan. Buning natijasida mакtabga chiqquniga qadar gaze-tani deyarli o‘qiy oladigan bo‘lgan.

Uch yoshgacha bo‘lgan bolalar uchun o‘zlarini qiziqtirgan narsalarini yodlab olish qiyinchi-lik tug‘dirmaydi. Asosiysi, bolaning qiziqishlarini qondirishda, vaqtingiz va quvvatingizni yetarlicha sarflay olsangiz kifoya.

## **Ko‘nikmalar bolalikda o‘zlashtirilmasa, keyin ularni egallahshning imkoni yo‘q**

Men aksariyat hollarda xizmat yuzasidan ingliz tilida gapiRAMAN. Ammo meni to‘g‘ri talaffuz va intonatsiyadagi xatolarim doim tashvishlantiradi. Meni tinglayotgan odAM, ingliz tilini yaponcha talaffuzda so‘zlasam ham, tushunadi. Ammo ba’zida suhbatdoshning chehrasida taajjub paydo bo‘la-di va u mendan biror so‘zni qayta takrorlashimni so‘raydi. Shunda tushunishlari uchun men o’sha so‘zni harfma-harf qaytaraman.

Bir yosh-u ikki oylik bo‘lgan qo‘shti bola esa inglizcha so‘zlarni juda to‘g‘ri talaffuz qiladi. Ko‘pin-chA yaponlar uchun r va l tovushlarini talaffuz qilish qiyin, ammo bu bola uchun unday emas. Ehtimol, buning sababi men ingliz tilini o‘rta mak-

tabda, bola esa yapon tili bilan birgalikda o'rganishni boshlaganidadir. Ikkinchiligi bilan tanishuvimiz ma'lumotlarni ingliz tilida tinglash, keyin esa bir amerikalik ayol bilan shu tilda so'zlashish orqali yuz berdi va begona tilni o'z ona tili bilan bir vaqtida o'rgandi.

Bu qiyoslash shuni ko'rsatadiki, miyada ona tili ramzi shakllansa, boshqa ramzlarni qabul qilish qiyin kechadi. Ammo men avval tushuntirganimdek, uch yoshgacha bola miyasi nafaqat o'z ona tilini o'rganish tizimini, balki istagan boshqa tilni anglash qobiliyatiga ega. Bu jarayon birgalikda kechishi mumkin. Shuning uchun bu yoshda bolalar qiyinchiliksiz istalgan tilda o'z ona tilida so'zlashgandek gaplasha oladi. Bu davrni o'tkazib yuborsangiz, bolaga yoshlikda osonlik bilan o'rgatish mumkin bo'lgan narsa keyin ancha mushkul bo'ladi.

Shunday qilib, chet tilidan tashqari bola bu davrda kech bo'lmasidan avval o'rganishi kerak bo'lgan yana ko'pgina ko'nikmalar bor. Masalan, musiqiy ohanglarni anglash, jismoniy qobiliyatlari (harakatlar muvofiqligi va muvozanat saqlash) aynan shu yoshda shakllanadi. Rasm chizishga moyillik hissini ham mana shu davrda shakllantirish kerak deb aytiladi.

Har yili yozgi ta'til boshlanganidayoq turli davlatlardan chet ellik oilalar o'z farzandlarini doktor Suzukining skripka chalish darsiga olib keladilar. Albatta, boshlanishida hamma ham yapon tilida muloqotga kirishib ketavermaydi. Birinchi bo'lib eng kichik yoshdagi bolalar yapon tilida gapira boshlaydilar. Keyin boshlang'ich va o'rta ta'lim mакtabiga boradigan bolalar va eng oxiri ularning ota-onalari tilni o'zlashtiradilar. Bir oy o'tib bolalar yapon tilida juda ravon gapira boshlashadi, ota-onalari esa qayerga borsa ham, bolalariga tarjimon sifatida suyanib, o'zlari esa "konnichiva"dan boshqasini ayta olmay yurtlariga qaytib ketadilar.

## **Eshitish qobiliyati buzilgan bolada ham eshitishni rivojlantirish mumkin**

Shu paytgacha men sog'lom bolaning yashirin imkoniyatlarini va ularni rivojlantirishda erta ta'limning ahamiyatini muhokama qildim. Biroq, afsuski, dunyoda jismoniy nuqsonga ega bolalar kam emas. Jumladan, poliomiyelit bilan kasallangan, aqliy zaif, kar va soqov bo'lgan bemorlar. Erta rivojlanish ularni chetlab o'tmasligi kerak. Aksinchcha, bemor bolalarning og'ir sharoiti bois ularning nuqsonlarini barvaqt aniqlash va erta rivojlanish texnikasi yordamida bu nuqsonlarni imkon qadar bartaraf etish zarur.

Yaqinda gazetada o'qigan bir hikoyamni aytib bermoqchiman: kar bo'lib tug'ilgan bir bola o'z ota-onasining ulkan mashaqqatlari tufayli suhbatda bemalol ishtirok eta oldi. Atsuto juda sog'lom

tug‘ildi, hozir u olti yoshda. Bir yoshida ota-onasi undagi ortda qolish holatini sezishadi. “Bolanning eshitish qobiliyati yaxshimi, yo‘qmi?” degan gumonga borishsa-da, “Balki, u ham kech gapi-radigan bolalar toifasidandir?” – deya ortiqcha qayg‘urmaydilar. Ammo Atsuto bir yarim yoshda ham gapirmagach, uni shifokor ko‘rigiga olib borishadi.

Ota-onan eshitish qobiliyatida nuqsonlari borgo‘daklarni davolash va o‘qitish bo‘yicha mutaxassis doktor Matsuzavadan yordam so‘rab murojaat qilishadi. U ishni bolaga o‘z ismini eshitishni o‘rgatishdan boshladi. So‘ng bola boshqa so‘zlar ni o‘rgana boshladi. Asta-sekin shifokor so‘zlarni ma’nolari bilan bog’lashni o‘rgatishga kirishdi va shu orqali eshitishdan qolgan izlarni rivojlantirdi. Shifokor Matsuzava fikricha, bolani haqiqatan ham eshitishga “o‘rgatish” mumkin.


Uning yozishicha: “Faqatgina ona o‘z bolasida biror nuqson borligini tezda aniqlashi mumkin. Yangi tug‘ilgan chaqaloq bir haftadan so‘ng qattiq tovush yoki shovqinga javob beradi. Bir necha oydan so‘ng chaqaloq o‘z onasining tovushini, to‘rt oydan so‘ng esa o‘z ismini taniydi. Agar bola bir yoshga yaqinlashgunga qadar qattiq shovqin yoki

o‘z ismiga javob qaytarmasa, uning eshitishida bি-  
ror nuqson bor deb taxmin qilish mumkin. Taxmi-  
nan uch yoshga kelib bola kattalarning kundalik  
hayotda ishlatadigan ko‘pgina so‘zlarini bilib oladi.  
Shuning uchun dastlabki yillar eshitishda nuqsoni  
bor bolalarga turli so‘zlarni o‘rgatish uchun eng  
qulay fursatdir.

Avvalambor, bola eshitmaydi deb uni tovushlar-  
dan saqlash (izolyatsiyalash) kerak emas. Umuman  
eshitmaydigan bola hech narsani “eshita olmaydi”  
degan fikr noto‘g‘ri. Agar bola doimiy ravishda to-  
vushlarni tinglasa, unda eshitish qobiliyati tikla-  
nadi”. Demak, bola jiddiy eshitish nuqsonlari bilan  
tug‘ilgan bo‘lsa-da, ota-onaning sa'y-harakatlari  
va ta’limi bilan bolaning eshitish qobiliyatini rivoj-  
lantirish mumkin.



$$\frac{xy}{x} = \frac{x+y}{x}$$



Ikkinchi qism

**Erta  
tajribaning  
ta'siri**

## **Muhimi, ta’lim va tashqi muhit, genlar emas**

Avvalgi bobda go’dakning uxbab yotgan qobiliyatлari haqida gapirgan edim. Navniholdan daraxt o’sadimi yoki g’unchaday go’zal gul – bu sizning unga qanday shart-sharoit yaratishingiz va qaramog‘ingizdagи go’dakka qanday e’tibor ko’rsatishingizga bog’liq. Mening fikrimcha, bola rivojlanishida ta’lim va muhit irsiy xususiyatlarga nisbatan ko’proq ahamiyat kasb etadi.

Yaponiyada tug‘ilganidan boshlab har xil oilada voyaga etgan egizaklar bilan bir qator tadqiqotlar o’tkazildi. Natijalar shuni ko’rsatdiki, egizaklar onadan bir xil genni olgan bo’lsa ham, turli sharoitda va har xil odamlar tomonidan tarbiya qilsa, bir-birlaridan xulq-atvor va qobiliyat jihatidan farqlanadi.

Eng muhim masala ta'lim va muhit bolaning yashirin qobiliyatlarini jadallik bilan rivojlantira olishida. Javob tariqasida olimlar tomonidan turli sharoit va usullar orqali o'tkazilgan har xil tadqiqot natijalari olindi. Bundan tashqari, maktab ta'limidan qoniqmagan ota-onalar farzandlarini o'zлari o'qitishlari borasida ko'pgina dalillar mavjud. Shuningdek, kuchuk va maymunlar bilan o'tkazilgan tadqiqot natijalari ham bor. Endi men o'tkazilgan bu tadqiqotlarning ba'zilarini muhokama qilmoqchiman.

## **Olim otaning farzandi hamisha olim bo‘lavermaydi**

Men ko‘pgina onalarning: “O‘g‘limda otasi-ga o‘xshab musiqa ohanglarini ajratish qobiliyati umuman yo‘q” yoki “Turmush o‘rtog‘im yozuvchi, shuning uchun farzandimiz yaxshi insho yozadi”, – deganlarini eshitaman. Albatta, bir maqolda aytiganganidek, “Olma daraxtining tagiga olma tushadi” yoki, Yaponiyada aytishganidek, “Piyozdan atirgul o‘sib chiqmaydi”.

Biroq olim odamning bolasi olim, sozanda-ning bolasi sozanda bo‘lganiga ham misollar ko‘p. Ammo bunday holatlar ham bolalardagi yuksak qobiliyatlar genlar orqali o‘tganini anglatmaydi. Ehtimol, ular tug‘ilishidan boshlab otalari kasbini davom ettirishi zarurligi uqtirilib tarbiya qilingan-dir. Ota-onalar tomonidan yaratilgan tashqi muhit bolaning muhitiga aylanadi. Bu muhit bolada

qiziqish uyg‘otib, ota kasbiga doir bo‘lgan qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Agar qobiliyatlar rivojlanishida irsiy xususiyat hal qiluvchi omil bo‘lganida, bolalar nasldan-nasliga o‘z otalari kasbini meros qilib olgan bo‘lar edilar. Ammo hayot ancha qiziqarliroq, olimning o‘g‘li skripkachi, shifokorning o‘g‘li yozuvchi bo‘lgan holatlar kam emas.

Doktor Suzukining sevimli shogirdlaridan bo‘lgan Berlin radio-orkestr konsertmeysteri janob Toyotakoji va Amerika Oklahoma simfoniyasi konsertmeyssteri janob Kobayashi yoshligida yaratilgan musiqaviy muhit sababli hozirgi kunda mashhur skripkachiga aylanganlar.

Atrofingizda yashayotgan odamlarga nazar solsangiz, iste’dodli ota-onalarning farzandi doim ham ulardek qobiliyatli bo‘lmasligini ko‘rishningiz mumkin. Jamiyatda bunday bolalar “noqobil farzand” deyiladi. Bunga sabab bolaning yomon bo‘lganligi emas, bolaligidagi muhit uni shunday noqobil farzand qilib qo‘yganidir. Aksincha, ishyoqmas va aroqxo‘r otadan tug‘ilgan bola ajoyib muhandis yoki rassom bo‘lishi mumkin. “Qora kalxatdan lochin tug‘ildi” deyilganidek, inson qobiliyati tug‘ma, orttirilgan bo‘lmaydi, uni voyaga

yetkazgan muhit yaratadi. Aslida, qora kalxatdan lochin tug'ilgan emas, qora kalxatga lochin bo'lib yetishadigan muhit yaratilgan.

Aynan tashqi muhit ta'siri va hayot tajribasi natijasida tug'ilganida bir xil bo'lgan bolalar turli qobiliyat va fe'l-atvor bilan ulg'ayadilar.

Boshqacha qilib aytganda, ota-onaning kasbi va qobiliyatları farzandning qobiliyatları va fe'l-atvori shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatmaydi. Faqat, aytish mumkinki, shifokorning o'g'li shifokor bo'lishiga sabab bola dorilar hidi, oq kiyimdag'i odamlar va bemorlar bor muhitda tarbiya topishidadir.

## **Inson bolasi bo'lsa ham, hayvonlar orasida tarbiyalansa...**

Itning bolasi it, bo'rining bolasi bo'ri bo'lganidek, odam bolasi ham odam bo'lishi aniq va ravshan. Lekin muhit ta'siri sababli bu aniqlikka mos kelmaydigan bir hayotiy misol keltiraylik. Bu yosh opa-singil bo'rilar – Amala va Kamala voqeasidir. Bu haqda muqaddimada ham biroz to'xtalib o'tganman. 1920-yil oktyabr oyida Hindistonning Kalkutta shahri janubi-g'arbidan taxminan bir yuz o'n kilometr uzoqlikdagi o'rmonda, bo'ri g'orida inson qiyofasidagi ikkita hayvon borligi to'g'risida mish-mishlar tarqaldi. Missioner sifatida kelgan er-xotin ruhoniylar buni eshitib, g'orni tadqiq qildilar va uning ichidan ikkita hayvonni topdilar. Ular, shubhasiz, inson bolalari edi. Yoshlari taxminan sakkiz va bir yarim yoshda edi. Hayvon emas,

inson bo'lgan opa-singillarga Kamala va Amala deb ism qo'yilib, Midnapur o'z qaramog'iga olib, insoniy ta'lim bera boshlaydi. Er-xotin cheksiz muhabbat va sabr bilan opa-singillarga insoniy fazilatlarni singdirishga har qancha urinishmasin, go'dakligida bo'rilar tarbiyasini olgan opa-singillar avvalboshda bo'rirlarga xos xatti-harakatlardan voz kecha olmadilar. Uy ichida to'rt oyoqlab yurib, odam qo'lini cho'za, sakrab kelar edilar. Kun o'rtasida qorong'i xonaga kirib, bo'ri kabi ovoz chiqarib uvillar, devorga yuzlanib bukilib yotar, kech tushishi bilan g'amgin uvlay boshlar edilar. Ovqatlanganda ham aynigan go'sht, tirik jo'jalarni yer edilar.

Shunda ham er-xotin sabr-toqat bilan kutishdi. Ikki oy o'tgach Amalaning "buu" deb tili chiqqa boshladi. Ammo bir yil o'tib u vafot etdi. Opasi Kamala esa uch yil o'tib, nihoyat, odamlar kabi qad-dini tutib, ikki oyoqda yura boshladi. Lekin teskari harakat qilayotganida to'rt oyoqlab yurish odatini tashlay olmadi. Insonlar orasiga qaytganidan so'ng to'qqiz yil ichida o'rgangan qirq beshta so'zdan boshqasini gapira olmadi. O'n yetti yoshidan vafotiga qadar aqli uch yarim yosh darajasida qotib qoldi.

Shunga o'xhash yana bir voqea bor. Bu – Afrikaning Mozambik Respublikasi changalzoridagi hodisadir. Bir kuni yoshgina ayolning yangi tug'ilgan chaqalog'i yo'qolib qoladi. Shundan bir necha oy o'tib gamadrillar<sup>1</sup> orasida gamadril ko'kragiga yopishib olgan odam bolasi topildi. Gamadrildan bolani qaytarib olishga har qancha urinmasinlar, uni tortib ololmadilar va oxiri taslim bo'ldilar. Shundan so'ng o'n to'qqiz yil bola odamlar orasiga qaytmay, gamadrillar bilan o'n to'qqiz yil ya-shadi va boshqa gamadrillar bilan to'da boshlig'i mavqeyi uchun kurashib, gamadrillar xo'jayiniga aylandi. Keyin u o'ziga daraxt tepasida uxlaydigan joy qurdi.

Panjarali kichik uychada mukammal qayta ta'lim olishni boshlagan gamadril bola, nihoyat, narsalar ni qo'lda yeb, ikki oyoqlab yuradigan bo'ldi.

---

<sup>1</sup> Gamadril – yirik maymunlarning bir turi.

## **“Hali erta” deyishimiz bolaning o‘sishiga xalaqit beradi**

Biz farzandlarimiz o‘sishidagi mayda-chuyda o‘zgarishlarni to‘liq anglay olmaymiz, chunki ularni har kuni ko‘ramiz. Ular esa biz o‘ylaganimizdan tezroq rivojlanadilar. Professor, rivojlanish psixologiyasi bo‘yicha dunyoga mashhur shveytsariyalik mutaxassis Jan Piaje uch farzandining rivojlanishi ni kuzatib, o‘sish bosqichlari nazariyasini yaratdi. Uning kitoblarini qancha ko‘p mutolaa qilsam, rivojlanishning har bir bosqichida to‘g‘ri ta’lim va muhitning ahamiyatini chuqrroq his etaman.

Piaje kuzatuvlariga ko‘ra, yangi tug‘ilgan chaqaloq og‘ziga tushgan narsani so‘radi, ammo tug‘ilganidan 20 kun o‘tib faqat sutni ichadi va uni qat’iyat bilan talab qiladi.

Uch oydan so‘ng go‘dakda biror narsaga, masalan, yotoq tepasida osilib turgan o‘yinchoqqa yetishish va ushslash istagi rivojlanadi, chaqaloq buni katta ishtiyoq bilan qiladi. Bir yarim yoshda esa qo‘li yetmagan narsani tayoq bilan olish mumkinligini fahmlaydi. Ikki yoshdan so‘ng so‘zlarning mavhum ma’nolarini o‘zicha anglagan holatda bog‘lashga intiladi. Masalan, “erkak” so‘zini faqat o‘z otasi bilan yoki “yomg‘ir” so‘zini ko‘chadagi suv sepadigan mashina bilan bog‘laydi.

Bundan tashqari, bolalar to‘rt yoshlar atrofida bo‘lganida katta stakanga yarim qilib quyilgan sharbatdan ko‘ra, bir xil hajmda bo‘lsa ham, kichkina stakanga to‘la quyilganini ko‘proq deb ishonadilar. Yoki “Krekr” pechenyesi maydalansa, soni ko‘payadi deb o‘ylaydilar. Asosiysi, bola shu kabi mayda jihatlarga e’tibor bera boshlaydi.

Bola ham jismonan, ham aqlan juda tez rivojlanadi. Shuning uchun har bir bosqichda uning rivojlanishini to‘g‘ri rag‘batlantirish kerak.

Bunga erishish uchun ota-onal bolaga nima va qachon kerakligini, nimaga qiziqayotganini diqqat bilan kuzatishi lozim. Chunki bolaga eng yaqin insonlar ota-onadir. Xorijiy tilni o‘rganish uchun vaqtini to‘g‘ri tanlash muhim sanaladi.

Chunki har bir erta rivojlanish bosqichining o‘z vaqtি-soati bor.

Masalan, bola yurishni boshlaganidan so‘ng uni rolikli konkida uchishga o‘rgatish o‘ta mushkul, ammo endi yurishni boshlaganida konkida uchishga o‘rgatish oson kechadi va bir necha oy o‘tgach undan hatto ajoyib figurachi chiqishi mumkin.

Amerikalik psixolog Makgrou egizaklar yordamida tajriba o‘tkazdi. Ularning biri 11 oylik, ikkinchisi 22 oylik bo‘lganida konkida uchishni o‘rgatdi. Natijalar turlicha bo‘ldi: ertaroq o‘rgatilgan bola ancha yaxshiroq natijaga erishdi.

Shu kungacha ham biz: “Bolalarga u yoki bu ko‘nikmalarни o‘rgatish erta”, – deb ularning hayotini qiyinlashtirib, “eng yaxshi davri”ni o‘tkazib yubormoqdamiz.

## **“Bir qoshiq qatron bir xum asalga tatiydi” – bu naql bolalarga ham tegishli**

Men nimani nazarda tutganimni tushuntirish uchun sizlarga korxonaning yosh ishchisidan eshitgan bir voqeani aytib beraman. Bir yosh yigitni ishslash uchun xorijga jo‘natishdi, uning ayoli yangi tug‘ilgan qizchasi bilan o‘z ota-onasi uyida yashash uchun Toxokuga ketdi. Buvi va buva o‘z nevarasini juda yaxshi ko‘rishar, u bilan ko‘p o‘ynashar va suhbatlashishar edi. Bir yildan so‘ng yigit qaytib keldi va yosh oila yana Tokioda yashay boshladи. U payt gapishtini bilishi uchun qizchanning yoshi juda kichik edi. Ammo gapishtini boshlaganida ota-onasi bu holatdan hayratga tushdilar: ularning qizi barcha so‘zlarni Toxoku shevasida talaaffuz qilardi. Bu juda g‘alati holat edi, chunki oila

a'zolarining barchasi umumqabul qilingan yapon tilida, faqatgina qizcha shevada gaplashar edi.

Hattoki bir necha yil o'tib qizcha maktabga borganida ham Toxoku shevasidan qutula olmagan edi.

Bola gapistishni boshlashidan avval bu sheva uning miya yo'llari bo'ylab tarqalgan edi. Miyada izlar hosil bo'lganidan so'ng yangilarini hosil qilish uchun eski izlarni o'chirish juda mushkul.

Erta yoshda "bir qoshiq qatron bir xum asalga tatiydi" degan naqlning ma'nosi shundaki, bu davrda bolaga qilingan ta'sir butun umr o'chmas iz qoldiradi. Aniqki, bu ta'sir foydali bo'lishi borasida ota-onas qayg'urmog'i zarur.

## **Qiziqarli buyumlar bo‘lмаган bo‘sh xona bola uchun zararli**

Butunlay tashqi tovushdan ihota (izolyatsiya) qilingan oppoq shift va devorlari bo‘lgan bo‘mbo‘sh xonani tasavvur qiling. Ba’zi onalar o‘ylaydiki, bu yangi tug‘ilgan chaqaloq uchun mukammal shart-sharoitdir. Haqiqatda esa hech qanday jihozlarsiz bu xona unga nafaqat befoyda, balki zararli hamdir.

Amerikalik professor Brunerning tadqiqotlari natijalariga ko‘ra, yosh bola joylashgan muhitning, ya’ni tashqi ta’sirning darajasi uning ongi rivojlanishida sezilarli ahamiyat kasb etadi. U o‘z tadqiqotlarini quyidagi dalillar bilan isbotladi. Avval yangi tug‘ilgan chaqaloqlarni ikki guruhga ajratdi, birinchi guruhnini biror jihoz bo‘lмаган xonaga, ikkinchi guruhnini rang-barang gulqog‘oz-

li, rangli shift, xilma-xil ko'rpalari bor, oynadan shifokor va hamshiralalar ishlayotgani ko'rinish turadigan xonaga joylashtirdi. Bu yerda hatto mu-siqa ham ijro etilardi.

Ikki guruh ham bir necha oy mobaynida turli sharoitda tarbiya qilindi, so'ngra aqliy rivojlanishni aniqlash testlari o'tkazildi. Har bir bolaga yaltiroq narsa ko'rsatildi va unga yetishish uchun ketgan vaqt orqali uning rivojlanish darajasi aniqlandi. Natijalar aniq farqlarni ko'rsatdi: bo'sh va qupuquq xonada bo'lgan bolalarning aqliy qobiliyati xona jihozlari ko'p xonadagi bolalarga nisbatan uch oy orqada qolayotgan edi.

Ushbu bosqichdagi uch oylik qoloqlik juda ahamiyatlidir. Chunki bolaning tug'ilishidan uch yoshgacha bo'lgan aqliy rivojlanishi to'rt yoshdan o'n yetti yoshgacha bo'lgan davriga mos keladi. Olimlar: "Bu qoloqlikni to'g'ri tarbiya berilsa juda tez yengish mumkin", – deydilar, biroq bu bolaga nisbatan bosim va katta harakatni talab etadi.

Shu kabi tadqiqotlar faqatgina professor Bruner tomonidan emas, balki boshqa ko'pgina psixologlar tomonidan ham o'tkazilgan. Natijalar tashqi ta'sirning mavjud yoki yo'qligi qobiliyatlar rivojlanishiga jiddiy ta'sir etishini ko'rsatdi.

Aqliy rivojlanishga ta'sir etuvchi ko'pgina xususiyat turlari (stimullar) ham batafsil o'rganildi va sinovdan o'tkazildi. Bular: tebranadigan belanchak, chizma uchun cho'tkalar, yorqin burmalar, yonadigan koptokchalar, rangli qog'ozlar va boshqalar.

Garvard universiteti psixologi, erta rivojlanish sohasida tadqiqotlar o'tkazuvchi mutaxassis, professor Uaytning tasdiqlashicha, chaqaloq - tug'ilishidan uning o'sishi uchun turli shart-sharoitlar yaratilishi aqliy qobiliyat rivojlanishiga sezilarli ta'sir etadi.

## **Bolaga kutilmagan narsalar ta'sir qiladi**

XIX asrning buyuk matematiklaridan biri Karl Fridrix Gauss sakkiz yoshidayoq arifmetik qatorlar yig'indisi formulasini topgan.

Gaussning otasi olim bo'limgan. U oddiy g'isht teruvchi usta bo'lgan, devorlar, darvozalar, o'choqlarni tuzatgan va o'g'lini ko'pincha ishga olib borgan. Gauss otasiga g'ishtlarni berib turgan va ularni sanagan. Ehtimol, Gaussning matematik qobiliyati kichikligida, shunday ko'nikmalar ta'sirida shakllangandir.

Men buni hayron qolarli holat deb o'ylamayman. Bunday deyishimga sabab bundan oldin Honda texnik tadqiqot instituti asoschisi Yuhonda Souichirodan eshitgan voqeamdir. Undan: "Siz nima uchun mototsikllarni yaxshi ko'rib qolgan-siz?" – deb so'raganimda birmuncha vaqt o'yla-

nib, shunday javob qildi: “Qadimda elektr quvvatli motorlar bo’lmagan. Shuning uchun guruchga ishlov berishda yog‘ motoridan foydalanishgan. Men hali kichik bo’lgan paytimda uyimiz yaqinida guruch tegirmoni bo’lib, u yerdan chiqayotgan motor ovozi qiziq tuyulardi va bobomga ergashib ataylab uni ko’rgani borar edim. Meni olib bormagan paytlarida kayfiyatim yomonlashib, qo’shnimiznikida ovoz chiqarib, yig’lar edim. Shu sababli bobom noiloj meni har kuni olib borardi. O’sha paytlarda motorning shovqinli ovozi men uchun alla qo’shig’idek tuyulib, yog‘ chiqaradigan noxush hidli bu motor nihoyatda sevimli qadrdonimga aylandi. Shu sabab menda mototsikllarga muhabbat uyg’ongan bo’lsa kerak”.

Go’daklik – inson hayotidagi eng ta’sirchan davrdir. Ota-onas uchun ahamiyatsiz va ma’nosiz tuyulgan narsani bola hissiyot va kuch bilan qabul qilishi ehtimoli borki, bu tajriba uning kelajakdagagi faoliyati asosi bo’lishi mumkin.

## **Bola kitobdagi rasmlarga qarab katta odam o‘qiydigan hikoyadan butunlay boshqa hikoyani o‘qishi mumkin**

Bolalar va kattalar orasida idrok qilish va sezish-dagi farq ular birga rasmli hikoyalar va ertaklarni o‘qishni boshlaganlarida seziladi. Montessori xonim – bolalar erta ta’limining buyuk kashshofi bo‘lgan buyuk italiyalik ayol. U o‘z kitobida yosh bolaning xatti-harakatini misol sifatida keltiradi. Ona o‘zining bir yarim yoshli bolasiga har xil hayvonlar va ov sahnasining rangli rasmlarini berdi. Bola Montessori xonimning rasmlarini ko‘rsatib, o‘zining yosh bola tilida “mashina, mashina” deb takrorladi. U esa mashinaga o‘xshagan biror narsani topa olmagach, savol ohangida: “Bu yerda mashina yo‘qmi?” – dedi. Go‘dak esa faxr bilan:

“Mana u”, – deya barmog‘i bilan rasmni ko‘rsatdi. Shunda u rasmga diqqat bilan qaradi. Rasmda kuchuk, ovchi, ot va orqada yo‘lga o‘xshagan chiziq va unda bir nuqtani topdi. Bola o‘sha nuqtani ko‘rsatdi va: “Mashina”, – dedi. Haqiqatan ham, u mitti mashina edi.

Madam Montessori yana bir misol keltiradi. Ona bir yarim yoshlik o‘g‘liga rasmli “Sambo” kitobini berib, ertakni aytib berdi.

“Sambo ismli qora tanli bola tug‘ilgan kuniga berilgan sovg‘alarni olib yo‘l yoqalab ketayotgan edi. Yo‘lda u yovvoyi hayvonlarga duch kelib qoldi va ularga barcha sovg‘alarini oldirib qo‘ydi. U yig‘lab yubordi va uyiga ketdi. Ammo uyda otasi va onasi uni tinchlantirishdi. U xursand bo‘lib, katta bayram pirogi turgan stol yoniga kelib o‘tirdi, xuddi shu oxirgi rasmdagi kabi”, – deb ertakni tugatdi onasi va kitobni yopdi. Kichkintoy o‘g‘li: “Yo‘q, u yig‘layapti”, – deb e’tiroz bildirdi va orqa muqovani ko‘rsatdi. Sambo u yerda yig‘lagan holatda tasvirlangan edi.

Shunga o‘xshash holatni men yozuvchi Sono Ayakoning qisqa hikoyasida o‘qigan edim. U otasining ishi Shimoliy Yevropaga ko‘chirilib, u yerda oilaviy yashay boshlagan juda yosh bir bolaning hi-

koyasi edi. Bolaning do'sti ham yo'q, u yolg'iz qolib, har kuni kitob o'qir edi. Bu tog' rasmi bo'lgan kitob edi. Unda bola tez orada noma'lum sababga ko'ra telba bo'lib qoladi. Keyin bu rasmli kitobning oxirgi varag'i yo'qolib qolib, ertak g'ayrioddiy shaklda tugab qolganini tushundim.

Yosh bolaning idrok qilishi o'z-o'zidan paydo bo'ladi va u ko'pincha kattalarga o'zboshimchalik bo'lib ko'rindi. Shuning uchun biz bolalar bilan muloqot qilayotganda taxminiy fikrlardan voz kechib, xolis fikr yuritishimiz va o'z tasavvurimizni ishga solib dunyoga bolalar kabi qarashimiz kerak.

## **Bolani notanish odam qaramog‘ida qoldirish xatarli**

Bir yaxshi, rostgo‘y ota-onaning besh va to‘rt yoshdagi ikki o‘g‘li bor edi. Bog‘chada kichigini hamma to‘g‘riliqi va xushchaqchaqligi uchun yaxshi ko‘rar, katta o‘g‘lini esa yoqtirishmas, chunki u xo‘mraygan va yomon odatlardan mustasno emas edi. Ota-ona bundan tashvishlanishar va sababini tushunishmasdi.

Oxir-oqibat tushkunlikka tushib, shifokorga murojaat qilishdi. Uzoq suhbatlardan so‘ng aniq-landiki, katta o‘g‘il bir yosh bo‘lganida olti oy mobaynida uni yosh enaga boqqan. Chunki onasi ikkinchi farzandini tuqqanidan so‘ng o‘zini juda yomon his qilgan.

Shifokorning taxmin qilishicha, bolaning hozirgi holati go‘daklikdagi taassurotlari bilan bog‘liq

bo'lib, ehtimol, avvalroq boshdan kechirgan hodisalari sabablidir. U enaga va o'z o'g'lining bolaligi haqida gapirib berishi mumkin bo'lgan boshqa odamlar bilan uchrashdi. Aniqlandiki, enaga (yosh qiz) bola bilan sayr qilish o'rniغا yigit bilan eski, qorong'i otxonada uchrashgan va bola ham o'sha uchrashuvlarga guvoh bo'lgan. Bu holat har kuni taxminan ikki soat davom etgan. Albatta, bir yashar bola enaga bilan yigit nima qilayotgani ni tushunmagan, ammo u bir o'zi qolib, qorong'i burchakdan kelayotgan shivir-shivirlarni eshitgan, bu tovush uning qalbini ishonchsizlik va qo'rquv hissi bilan to'ldirgan. Qizning xavotirli xulq-atvori va aybdorlik hissi ham uning ongida iz qoldirgan.

Shifokor xulosasiga ko'ra, bolaning aynan ushbu go'daklikdagi taassurotlari uni g'amgin va jizzaki qilgan. Tabiiyki, hayotiy shart-sharoitlar otanonani o'z farzandini boshqa odamlar qaramog'ida qoldirishga majbur etadi. Ammo, umid qilamanki, bu hodisa farzandingizni kimningdir qaramog'iga ishonib qoldirishda ehtiyojkorlik bilan yonda shishingiz zarur ekanligiga ishontirdi.

## **Go‘daklikdagi taassurotlar bolaning kelajakdagi fikrlash va harakatlanish tarzini belgilaydi**

Agar sizdan go‘daklikdagi biror hodisani aytib berish so‘ralsa, deyarli hech narsani eslay olmasligingizni tushunasiz, faqatgina istisno sifatida biror-bir g‘ayrioddiy hodisani eslashingiz mumkin, xolos. Ikki-uch yoshingizdagи biror hodisani xotiraga keltirsangiz ham, uni o‘z shaxsiy tajribangizdan emas, balki onangiz va boshqa kattalarning hikoyalari orqali eslab qolgansiz.

Biroq inson bolaligidan boshidan kechirgan barcha narsani eslay olmasligi uni butunlay unutishi ni anglatmaydi. Uch yoshgacha olingan biror-bir taassurot yoki tajriba shakllangan shaxs asosining bir qismi hisoblanadi.

Aytishlaricha, gipnozda istalgan shaxs, agar u bir yosh ekanligiga ishontirilsa, bir yoshidagi harakatlarini qiladi va bir yoshida aytgan so'zlarini qaytaradi. Buning ma'nosi shuki, yoshlikdagi har bir taassurot ongda doimo saqlanib qoladi.

Ta'kidlashlaricha, inson og'ir holatga olib kelin-sa, u to'satdan yoshlikdagi holatlarni eslay boshlaydi.

Mashhur siyosiy arbob Kukuey Manaka: "Urush vaqtida gospitalda o'lim bilan olishib yotganimda yoshlikdagi xotiralar to'satdan ko'z oldimga keldi, – deya hikoya qiladi. – Onam meni ibodatxona-ga olib borganini, darvoza yonida turgan rohibni, uning yuzini, kiyimini, so'zlashishini barcha taf-silotlari bilan esladim". So'ng u bu "xayol" haqida onasiga aytib bergen. Buni qarangki, haqiqatan ham, ikki yoshligida shunday voqeа sodir bo'lgan ekan.

Nikko tadqiqot markazi prezidenti janob Moriatsu Minato Xitoyda tug'ilgan va u yerda yoshligini o'tkazgan. Oilasi Yaponiyaga ko'chgach, u xitoy tilida boshqa gaplashmagan va: "Tilni unutganman", – deb o'ylagan. Ko'p yillardan so'ng u Xitoyga xizmat safari bilan boradi. Moriatsu Minato biror narsa aytishga harakat qilganida kutil-

maganda xitoy so‘zlari xayoliga tinimsiz kela boshlaydi. Nutqi mutlaqo odatiy bo‘lib, shu qadar erkin so‘zlashadiki, bu holat o‘zini va xitoylik hamkasblarini hayron qoldiradi. Bu yoshlikdagi tajriba miyada muhrlanib qolishini yana bir bor tasdiqlaydi.

Boshidan mustahkam asos (fundament) qo‘yilmasdan mustahkam imorat qurishga harakat qilish behuda ketadi: bu bino tashqaridan chiroyli ko‘rinsa-da, baribir, kuchli shamol yoki zilzila ta’sirida nuraydi, qulaydi.

Erta rivojlanish ham shunday asosdir. Uni boshidan baquvvat qilish kerak. Chunki bino tayyor bo‘lganidan so‘ng unga asos (fundament) qurishning imkonni yo‘q.



Uchinchi qism

**Go‘dak uchun  
nima foydali?**

## **Bola tarbiyalashning andazasi yo‘q**

Shu paytga qadar men tashqi muhitning bolaning keljak hayotidagi ahamiyati haqida so‘z yuritdim. Ko‘pgina oilalarda, shu jumladan, yapon xonadonlarida ham aynan ona bolalar tarbiyasi uchun mas’uliyatni o‘z bo‘yniga oladi. Ammo men aytmoqchi bo‘lgan masala yosh bolalar tarbiyasi bilan shug‘ullanuvchi har bir insonga taalluqli. Avvalambor, ona, albatta, bolaning qaysi rivojlanish bosqichida ekanligini inobatga olgan holda butun e’tiborini va tashabbuskorligini bola tarbiyasiga qaratishi kerak. Men ochiq-oydin taklif qilayotgan maslahatlarni har bir ona tavsiya deb bilib, bolaning fe'l-atvoriga va kamolga yetish bosqichiga mos ravishda tanlab, o‘z qarorini chiqarishi hamda takliflarni o‘z ixtiyoriga ko‘ra qabul etish-etmasliklari mumkin.

Har safar bolani yaxshi musiqa va rasmlar bilan tanishtirishni tavsiya etganimda talabchan onalar “yaxshi” musiqa va “haqiqiy” rasm deganda nima-ni nazarda tutishimni so‘raydilar. Betxovenmi yoki Motsart? Van Gogmi yoki Pikasso? Albatta, ba’zida biz mutaxassislar bilan maslahatlashgandan so‘ng aniq tavsiyalar beramiz.

Biroq ota-onalar bizning tavsiyalarni bolaning xususiyatlaridan kelib chiqib moslashtirishlari, o‘zgarmas qoida sifatida qabul qilmasliklari lozim. Yaponlar qoida sifatida tayyor andazalarni qidiradilar: ular o‘zlarini aniq bir sharoitda qanday tutish kerakligini aytmaguncha ishonch hosil qilmaydilar. Ammo tarbiyada, ayniqsa, go‘daklikdagi tarbiyada tayyor formulalar bo‘lishi mumkin emas. Agar ona o‘z bolasi uchun biror narsa yaxshi deb o‘ylasa, ushbu narsani go‘dakka kechiktirmasdan berishi kerak.

Tayyor formulalarni kutish yapon tarbiyasining jiddiy kamchiligidir. Masalan, agar bola to‘rt yoshda bo‘lsa, u bog‘chaga boradi, agar olti yosh bo‘lsa, maktabga qatnaydi. Faqat bolalar yoshiga tayanib, umumqabul qilingan an’ana asosidagi bu tizim bolaning shaxsiy rivojlanish bosqichini chetlab o‘tishi mumkin. Yaponiyada ta’lim har bir yosh uchun

belgilangan dasturga asoslangan. Bog'chada rasmilar chizish va sanash, boshlang'ich mакtab birinchi sinfida harf, ikkinchi sinfida iyeroglis o'rgatiladi degan fikrlash tarzi ham belgilangan dasturlardan biri kabi shakllangan. Erta rivojlanishda ham xuddi shunday aniq ko'rsatmalar berilmasa, uni hech kim sinab ko'rishni istamaydi. Mening fikrimcha, bunday tayyor qoida va me'yorlarga doim shubha bilan qaramoq zarur.

## **Bolani ko‘proq qo‘lga olinglar**

Go‘dak yig‘lasa, ona uni qo‘liga olishi bilan yig‘idan to‘xtaydi va kuladi. Kimga bu holat notanish, har bir ota-onasini yuzlab marotaba kuzatgan.

Ammo donishmandlar har safar bola bezovtlangandagina ularni tinchlantirish uchun qo‘liga oladigan onalarni ogohlantiradilar, yig‘i orqali bola o‘z istaklariga erishish odatini orttirib olishi mumkin.

“Siz uni qo‘lingizga olmaguningizcha tinchlanmaydi”, – deb ota-onani qo‘rqiqtadilar. Aslida ham shundaymi? Agar bunga o‘z farzandini ko‘rko‘rona erkatalish sifatida qaralsa, men buni qabul qilaman. Ammo aynan shunday tushunilishiga qarshiman. Ishonchim komilki, bolani qo‘lga imkon qadar ko‘proq olish kerak.

O‘z ehtiyojlarini ifodalashning boshqacha yo‘lini bilmaydigan chaqaloq uchun yig‘i o‘ziga e’tiborni qaratuvchi yagona vositadir. Bolaning yig‘isi – bioror narsa so‘rayotganidan dalolat. Uning iltimosini javobsiz qoldirish – bu uni boshidanoq muloqotdan mahrum etishdir.

Sog‘lom fikrlash shuni ko‘rsatyaptiki, bola bilan onaning muloqoti, ayniqsa, tana vositasidagi (taktil) muloqot uning aqliy qobiliyati rivojlanishi uchun juda muhim.

Bir yapon gazetasi maymunlar bilan o‘tkazilgan qiziq tajriba haqida xabar berdi. Viskonsin shtati universitetining birinchi darajadagi tadqiqot markazi rahbari doktor Garri Xarlou yangi tug‘ilgan maymun bolasining onasini sun‘iy ona bilan almashtirdi va qaysi birini tanlashini kuzatdi.

Birinchi qo‘g‘irchoq simdan bo‘lib, silindr shaklida yasalgan, boshqasi matodan qilingan edi. Har bir “ona”da sutli ichimlik idishi bor edi. Ayni paytda, ikkala “ona” ham bir tomondan ikkinchi tomonga tebrana olardi. Natijalarga ko‘ra, maymun bolasisi issiq va yumshoq bo‘lgan matoli “ona”ni tanladi va uning harakatlariga javob berdi. Doktor Xarlou o‘z tadqiqotiga: “Yangi tug‘ilgan chaqaloq ham issiq, yumshoq va harakat qiluvchi narsani izlaydi.

Xuddi sut uning jismoniy sog'ligi uchun muhim sanalganidek, onaning o'z farzandini qo'lida mehr bilan ko'tarishi ham uning hissiy holati uchun juda ahamiyatlidir", – deya xulosa yasadi.

Men bolalarni tez-tez qo'lga olishni qo'llab-quv-vatlayman. Chunki har bir bolaning ota-onasi bilan muloqoti yetarli darajada bo'lishini istayman va buni sezgir shaxs shakllanishida muhim omil deb hisoblayman.

## **Bolani o‘zingiz bilan bir o‘ringa yotqizishdan qo‘rqmang**

Bolani qo‘lda ko‘tarib yurish odati singari go‘dak bilan birga uqlashga Yaponiyada avvalgi avlodlar-dan meros bo‘lib qolgan nomaqbul odat sifatida qaralgan. Albatta, bola faqat ota-onadan biri yonida bo‘lsagina uqlashi ular uchun qiyin, ammo hech qachon bunday sharoitda ota-ona o‘zini yo‘qotib qo‘yganini eshitmaganman. Aksincha, agar siz bolaning ruhiy va aqliy rivojlanishi haqida o‘ylasangiz, go‘dak bilan birga uqlash odatidan ham yangicha ma’no topishingiz mumkin.

Masalan, onaning ishlari juda ko‘payib, farzandi bilan so‘zlashishga vaqt vaqt yetmasa, hech bo‘lmasa, bola uqlagunicha uning yonida birga yotishi mumkin. Bu qisqa vaqt mobaynida go‘dak tinch va juda sezgir bo‘ladi. Shuning uchun bola yonida shun-

chaki birga yotish yoki undan oldin uxbab qolish o'rniga unga alla aytsangiz yoxud kitob o'qib bersangiz, bolaning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatasiz.

Shuningdek, ona o'rnida kechgacha uyda bo'l-magan ota ham bo'lishi mumkin, bu farzandingiz bilan muloqot qilishning eng qulay imkoniyati hamdir. Sobiq Tokio meri Yukaya Seiji ham bolarlik chog'i kechasi uxlaydigan paytida buvisi kitob o'qib bergenini ko'p eslaydi. Ota sifatida o'zi ham xayolan ertak to'qib, o'qib bergenida uning bolalari ham mudrab gapirar ekan. Shunda u kitob o'qishni to'xtatib, uxlamasdan ularni tinglab yotgan paytlar ham tez-tez bo'lgan. Keyinchalik u buni juda yaxshi paytlar deb eslaydi.

Sobiq sovet davrida uyqu vaqtida o'rgatish usuli haqida tadqiqotlar o'tkazilganligi to'g'risida ko'p ma'lumotlar bor. Shubhasiz, yarimuyqu holatida inson magnitofonga yozilgan ma'lumotni eshitsa, uni yodlab oladi va ongida qoladi, uyg'onganidan so'ng uni osonlik bilan eslaydi. Mazkur tadqiqotlarga ko'ra, bolaga yarimuyqu holatida ta'lim berib ham kutilmagan natijalarga erishish mumkin ekan.

## **Musiqa eshitish iqtidori bo‘lman onaning tarbiyasini ko‘rgan bola ham musiqa eshitish qobiliyatisiz ulg‘ayadi**

“Mening farzandim musiqiy ohanglarni ajrata olmaydi, nima qilishni bilmayman. Bu uning otasi sabablidir, oilasidagi hech kim musiqa eshitish qobiliyatiga ega emas. Bu naslga bog‘liq”. Men onalardan shu kabi shikoyatlarni ko‘p eshitaman. Ha, haqiqatan ham musiqiy qobiliyati sust bolalar bor. Ammo musiqiy ohangni ajrata olmaslik ham garchi ota-onadan farzandga o‘tishi mumkin bo‘lsada, irsiy ekanini anglatmaydi.

Tasavvur qilaylik, onada musiqiy eshitish qibiliyati yo‘q va bola har kuni allani butunlay noto‘g‘ri ohangda tinglaydi. Bola bu ohangni namuna sifatida eslab qolib, u ham shu tarzda noto‘g‘ri kuylaydi. Buni eshitgan ona bolada musiqiy qo-

biliyat yo'qligidan nolib, bu ilohiy ne'mat ekaniga ishonadi. Agar Motsart va Betxovenni ham shunday onalar tarbiya qilganida edi, ularda ham musiqiy qobiliyat bo'lmasligi aniq edi.

Mening nazariyamga ko'ra, musiqiy qobiliyat-siz bolalar xuddi shu kamchilikka ega onalardan tug'ilgan bo'lsalar-da, maxsus tinglash qobiliyati sohibidirlar, chunki ular noto'g'ri ohangni eslab qolib, uni qaytarish mahoratiga ega ekanliklarini ko'rsatadilar.

Endi esa musiqiy qobiliyatsizlik nasldan o'tmasligini isbotlash maqsadida sizga bir voqeani aytib beraman. Doktor Shinichi Suzuki olti yoshli bolani o'qitishga oldi va musiqiy qobiliyatini qayta tikladi. Bu bolaning onasida musiqiy eshitish qobiliyati yo'q edi. Doktor Suzukining tezisida shunday xulosa yozilgandi: "Bolada musiqiy qobiliyat yo'q, chunki u uning onasida yo'q". U bolaga onasi doimo noto'g'ri aytib bergen kuyning to'g'ri ohangda aytilganini tinglatdi. Asta-sekin noto'g'ri eslab qolingga kuy o'rni ni to'g'ri aytilgan kuy ohangi egalladi. Keyinchalik bu bola musiqiy ta'limni davom ettirdi, Brams va Betxoven ijodiga bag'ishlangan skripka konsertlarida ularning kuylarini xatosiz chaldi, hatto Kanadada bir nechta yakkaxon konsertlar berdi.

Shunday qilib, musiqiy idrok, fe'l-atvor va boshqa qobiliyatlarning rivojlanishi, aslida, ota-onalarning odatlari ta'sirida shakllanadi. Hatto ota-onalarning xatti-harakatidagi biz uchun ahamiyatsiz tuyulgan biror narsa ham bolaga chuqur ta'sir ko'rsatishi mumkin.

## **Bola yig‘isini hech qachon e’tiborsiz qoldirmang**

AQShda chop etilgan “Go‘dakni tarbiyalashda inqilob” kitobida quyidagi tadqiqot keltirilgan.

Vashingtonda tayyorlangan maxsus o‘qituvchilar o‘ttizga yaqin 15 oylik chaqaloqlarni tarbiyalash va o‘qitish uchun asosan qora tanlilar yashaydigan kambag‘al hududlarga, muassasalar hamda xona-donlarga yuborildilar. O‘qituvchi yakshanbadan tashqari har kuni bolalar bilan bir soat vaqt davomida o‘ynar va suhbatlashardi. Psixolog doktor Erl Sheferning tushuntirishicha, bu tadbir bolalar aqliy qobiliyatini rivojlantirish, ayniqsa, nutqiyligi qobiliyatini o‘stirish maqsadida o‘tkazilgan. Bu kabi tadqiqotlar 14 oylik bolalar bilan ham olib borildi.

Ushbu go‘daklardan ikki yosh-u uch oylik bo‘lganida olingan testlar natijalari ularning “aqliy

rivojlanish darajasi”, ayniqsa, nutqiy rivojlanish holati tadqiqotda ishtirok etmagan tengdoshlari bilan solishtirganda ancha yuqori bo’lganini ko’rsatdi.

Demak, ertadan kechgacha ishda band bo’lib, farzand tarbiyasiga umuman e’tibor qaratmaydigan bunday oilalardagi bolalarning aqliy qobiliyatini ham rivojlantirish mumkin. Endi tasavvur qiling, ota-onalar o’z farzandlari tarbiyasiga ko’proq ahamiyat beradigan va ular bilan doimo o’ynaydigan oilalarda qanday natijalarga erishish mumkin?

Taxminan ikki-uch oylik chaqaloq kulishni boshlaydi, bijirlaydi va atrofida sodir bo’layotgan hamma narsani eslab qoladi. Biz ba’zida bolaning miyasida onasining eng oddiy so’zlari va harakatlari qay darajada iz qoldirishini anglay olmaymiz. Shuning uchun bolalari bilan ko’p shug’ullanuvchi onalar o’z farzandlarining aqliy rivojlanishiga jiddiy ta’sir ko’rsatadilar.

Masalan, yosh oila o‘g‘il farzandli bo’lganida bir xonali uyda yashar edi. Xonodon shunchalik tor ediki, ona doimo o’z o‘g‘lining yonida bo’lib, u bilan ko’p suhbatlashar edi. Keyin oila uch xonali uyga ko’chib o’tdi. Shu orada ikkinchi farzand

tug‘ildi. Qizchaga onasining eng ko‘p vaqtin o‘tadi-gan oshxonadan uzoqdagi eng tinch xona ajratildi. Katta o‘g‘il alohida so‘zlarni yetti-sakkiz oyligida gapira boshlagan bo‘lsa, uning singlisi o‘n oyligida ham faqatgina bijirlay olardi. Buning ustiga, doi-mo kulib turadigan akasiga nisbatan singlisi tinch va indamas bo‘lib o‘sdi.

## **Go‘dak bilan bolalarcha chuchuk tilda gapplashmang**

Restoranda ovqatlanib o‘tirganimda bexosdan yonimdagи stoldan “Fursatdan foydalanib onang bilan ajrashamiz” degan ovozni eshitdim. Mayin ohangda gapirilgani sabab ajablanib ortimga qarasam, uni yosh ota-onasi bilan kelgan ikki yashar bola aytayotgan ekan. Uning oldida qaynatma sho‘rva solingan idish turar edi. Men hayratlanib ularning oldiga bordim. “O‘g‘lim qaynatma sho‘rva korxonasing efirda uzatiladigan reklamasini yodlab olgan. Shuning uchun qaynatma sho‘rvani olib kelishlari bilan darhol reklamadagi gap esiga tushdi”, – deb bolaning onasi menga bu holatni izohlab berdi.

Biz kattalar televizordagi reklamani ko‘rsak-da, birozdan keyin unutib yuboramiz. Lekin bolalar, bunday uzun jumladan iborat reklama bo‘lsa ham,

ovoz hamda talaffuz (intonatsiyasi)ga qadar juda aniq eslab qoladilar.

Ehtimol, barcha mamlakatlarda odamlar ko'pincha go'daklar bilan ularning "tili"da gaplashar. Shu bilan birga, radio va teleko'rsatuvlar odatiy "kattalar" tilida olib boriladi va ikki yoshdagi bola oddiy ko'rsatuv tilini bemalol tushunadi.

Albatta, bola endi gapira boshlaganida so'zga o'xshagan narsalarni bijirlaydi. Ammo bu holatning sababi uning aqliy qobiliyati yetishmasligidan emas, balki nutq organlari yetarlicha rivojlanmagani tufaylidir. Oddiy qilib aytganda, uning nutq apparati to'liq rivojlanmagan bo'lsa-da, gapirish istagi tufayli talaffuz qilishga ulgurmaydi. Shu sababli kattalar: "Bolalar boshqa tilni tushunmaydi", – deb ular bilan "bolalar tili"da mu-loqot qilishsa, to'g'ri talaffuz ko'nikmalari hech qachon shakllanmaydi. Shuningdek, til o'zlash-tirish jarayonida bola o'z nutqiga emas, kattalar qanday gapirishiga tayanadi.

Agar istasangiz, bolalar bilan umuman bolalar-cha so'zlashmang. Oxir-oqibat bir necha oydan so'ng u ulg'ayadi va umumqabul qilingan tilni tushunishi zarur bo'ladi. Bolalar bog'chasiga borganida uning kichkina emasligi va to'g'ri gapirishi

kerakligi aytilsa, bu bola uchun qo'shimcha noqulaylik tug'diradi.

Bir fransuz ayol o'z qizini turmushga berayotganida bo'lajak kuyoviga: "Qizimning sarpasi yo'q, ammo u fransuz tilida qoyilmaqom gapiradi", – dedi. Bunday g'urur tahsinga loyiq va men har bir bolada o'z ona tilini shunday mukammal egallash imkoniyati bo'lishini istardim.

## **Kattalarning loqaydlarcha harakatlari bolada qo‘rquv hissini kuchaytiradi**

Biz, odatda, go‘daklikni hayotdagи eng baxtli davr va unda atrof-muhit qo‘rquinchlari hamda tashvishlariga o‘rin yo‘q deb o‘ylaymiz. Biroq haqiqatda go‘daklik vaqtimizda biz doim ham baxtli bo‘lavermaganmiz. Oltmis yoshli keksa odamning ayni yoshiga mos qo‘rquvi bo‘lganidek, bir-ikki yoshli bolaning ham o‘ziga yarasha xavotiri bo‘ladi va ko‘pincha buning sabablari biz o‘ylamagan narsalardan kelib chiqadi. “Erta rivojlanish” jurnalining 1961-yil 4-sonida Kioto universiteti observatoriyasi rahbari janob Shotaro Miyamoto bilan sodir bo‘lgan voqeа haqida maqola chop etilgan edi. “Mening otam buddaviylar qo‘sиг‘и “No”ni juda yaxshi ko‘rgan bo‘lsa kerak. Uning do‘stlari biznikiga tez-tez kelishar va birga shu qo‘sиг‘ni kuylashardi. Meni esa qo‘shti xonada uxlatishar-

di. Eslayman, bunday g‘amgin va og‘ir tovushlarni eshitishdan juda qo‘rqib qattiq yig‘lar edim. Ammo onam mehmonlarga choy, shirinliklar olib kirib, ular haqida ko‘proq qayg‘urar va meni tezroq uxlatalishga harakat qilar edi. Hattoki hozir ham bunday uzundan-uzoq buddaviyicha kuylarni eshitsam, ular qalbimda xotirjamlikni emas, balki qo‘rquvni uyg‘otadi”.

Janob Miyamotoning ota-onasi bu kuylar bola qalbida yillar o‘tib ham shunchalik o‘chmas iz qoldirishini hech qachon o‘ylamagan bo‘lsa kerak. Ammo nafaqat bu vahimali qo‘sinq, balki boshqa voqealar ham uning xotirasida saqlanib qoldi. Janob Miyamoto buvisi uxlashidan avval unga o‘qib bergen ertaklarni, “Karmen”, “Oy sonatasi” operalaridagi musiqani zavq bilan eshitganini eslaydi. Nima uchun aynan “No” qo‘shig‘i janob Miyamotoni shunchalik qo‘rquitdi? Bu bizga mulohaza uchun manbadir. Ehtimol, kuyning g‘amgin ohanglari barobarida uni yolg‘iz va qorong‘i xonda qoldirishgani ham qo‘rquvga sabab bo‘lgandir. Men bunday holatlarda qanday yo‘l tutish bo‘yicha tavsiya bermoqchi emasman. Faqat shuni ta’kidlamoqchimanki, kattalar uchun arzimasdek tuyulgan narsa bola qalbida chuqur iz qoldirishi mumkin.

## **Yangi tug‘ilgan chaqaloq ota-on orasidagi janjalni his qila oladi**

Bola yuzidan uning ota-onasi urishgani, janjal-lashgani va o‘rtalarida kelishmovchilik bo‘lganini osongina aniqlash mumkin, bunday holatda uning yuz ifodasi tushkun va xavotirli bo‘ladi. Siz e’tiroz bildirib: “Bu arzimas narsa va yangi tug‘ilgan cha-qaloq ota-ona o‘rtasida bo‘layotgan o‘zaro munosabatlarning nozik tomonlarini anglay olmaydi”, – deb o‘ylarsiz. Bola shunday sezgir aqlga egaki, u har bir tashqi o‘zgarishdan ta’sirlanadi.

O‘zingiz o‘ylab ko‘ring, har kuni ota-onasining xunuk janjalini kuzatuvchi bolaga nima bo‘ladi? Albatta, u kelishmovchiliklar sababini tushunmaydi, ammo jahl va haqoratlar uning hissiyotlarida, ehtimol, butun vujudida aks etadi. Ajablanarli joyi

yo'qki, kelishmovchiliklar qurshovida o'sgan bolasning yuzi g'amgin va ma'yus bo'ladi.

Ko'zlar yoki burun farzandingizga nasldan o'tadi, uning yuz ifodasi esa oiladagi munosabatlar ko'zgusidir. Begonasirash va sovuqchilik sharoitida ulg'aygan bola qalbida bog'cha yoki mакtabga borguniga qadar baxtsizlik va zaiflik nihollari una boshlaydi.

O'smirlar tomonidan sodir etilgan ko'pgina tartibbuzarliklar ular go'daklik davrlarini baxtsiz oilalarda o'tkazganligini ko'rsatadi.

Shifokor Shinichi Suzuki aytgan ediki: "Uyga kelganiningizda farzandlaringizni oldingizga olib, yuzlariga sinchiklab qarang. Shunda siz o'z oilaviy munosabatlaringiz tarixini o'qib olasiz". Men bu so'zlarni hech qachon unutmayman.

Bolaning erta rivojlanishi uchun biror narsa qilish shart emas. Boshlanishi uchun, avvalo, er-xotin orasida o'zaro mehrli munosabat bo'lishi va uyda yoqimli ruhiy muhit yaratish zarur.

## **Ota-onaning asabiyligi yuqumlidir**

Ko‘pincha ota-onalar: “Mening o‘g‘lim otasi kabi g‘amgin” yoki “Mening qizim onasi kabi pala-partish”, – deb noliydlilar. Bu o‘rinda ular farzandlarining ijobiliy tomonlari o‘zlaridan, kamchiliklari esa turmush o‘rtoqlaridan o‘tganligini aytishadi.

Ammo kitobimning shu qismigacha o‘qigan ota-onalar anglab yetganlariga umid qilamanki, ularning farzandlaridagi yaxshilik va yomonlik alomatlari tug‘ilishdan berilgan tarbiya natijasidir.

Erta rivojlantirish deganda bolani ma’lumotlar bilan to‘ldirib tashlash yoki unga o‘qish va yozishni o‘rgatish tushuniladi. Biroq undan muhimroq tomoni bolada fikr yuritish, baholash va idrok qilish yoki unda uqish qobiliyatini rivojlantirishdir. Buning uchun maxsus dasturlar yo‘q, faqatgina ota-onaning o‘zini qanday tutishi, amalga oshi-

rayotgan ishlari va his etayotgan tuyg‘ulari, go‘dak bilan qilayotgan muomalasi bolaning shaxsiyatini shakllantirishi mumkin.

Ya’ni kamgap va ma’yus odam tomonidan tarbiyalangan go‘dak doimo g‘amgin, mahzun bo‘ladi, xuddi shunday beparvo, beg‘am odam tomonidan tarbiya qilingan bola ham beg‘am, beparvo holatda ulg‘ayadi. Ammo musiqiy qobiliyat onada bo‘lmasa, bolasiga musiqa tinglashi uchun imkon yaratishi mumkin. Ayrim narsalar, masalan, xulq-atvor, xarakter, hissiyotlar va sezgi odamning aslini anglatmaydi. Inson o‘zidagi kamchiliklarni bilsa-da, ularni to‘g‘rilashi qiyin. Shuning uchun ota-onan o‘z xatti-harakatlarida ehtiyyotkor bo‘lmog‘i lozim.

Agar ona shamollab qolsa, o‘z bolasiga yuqtirmaslikka urinib dokali niqobni yuziga tutishi mumkin. Ammo farzandlariga o‘z kamchiliklarini bermaslikka harakat qiladigan onalar juda oz. Men o‘zgartira olmaydigan xato va kamchiliklarimizni iloji boricha bolalarga ham ko‘rsatmaslikni xohlar edim. Onalardagi “asabiy lashish” nomli virus shamollashdan ko‘ra ancha yuqumli va kuchlidir.

## **Ota o‘z farzandi bilan ko‘proq muloqotda bo‘lmog‘i zarur**

Ko‘pincha farzandlar katta bo‘lganlarida o‘z otalari bilan birga o‘tkazgan vaqtlarini bayramona xursandchilik bilan eslaydilar, chunki aksariyat oilalarda bunday holat u qadar ko‘p yuz bermaydi. Mening katta o‘g‘lim hanuzgacha birga qilgan ishlarimizni yaxshi eslaydi: masalan, dengizda qayiqda sayr qilganimizni va qaytishda shirin qizil loviyali taom tanovul qilganimizni. Bu voqeа 30 yil avval bo‘lgan va men buni unutib yuborgan edim.

An’anaga ko‘ra, oilalarda otalarga so‘zsiz bo‘ysuniladi. Ota tartib nazoratchisi, ammo bolalarغا har kuni g‘amxo‘rlik qilish ishlarida kam qatnashadi. Agar farzand o‘z otasini kam ko‘rsa va shu ham faqatgina gap eshitish uchungina bo‘lsa, u holda bola o‘z otasini bir begona, ya’ni favqu-

lodda vaziyatda chaqirilgan shifokordek deb qabul qiladi. O'ziga ishonchi yo'q va himoyasiz bola ko'pincha otasiga iliq tuyg'ularni his qilmaydi. "Qattiqqo'l ota" tomonidan tarbiya topgan bola ulg'ayganda daho yoxud mashhur inson bo'lsa-da, itoatkor va irodasi sust bo'ladi. Boshqa tomondan, agar ota ichkilik ichsa, ayoli bilan qo'pol munosabatda bo'lsa va farzand tarbiyasi bilan umuman shug'ullanmasa, bunday oilada ulg'aygan bola axloqsiz, hatto jinoyatchi bo'lishi ham mumkin. Bunday holatlar kam emas.

## **Bolalar tarbiyasi va ularni o‘qitish mas’uliyati asosan onalar zimmasida**

Ammo bundan otalar bolalar tarbiyasini butunlay o‘z ayollariga topshirib qo‘yishi kerak degan ma’no kelib chiqmaydi. Ayoliga haqiqiy do‘sit va yordamchi bo‘la olish bu uydagi tarbiyada erning birlamchi burchi emasmi? Uydagi totuvlikka faqatgina onaning xatti-harakatlari bilan erishib bo‘lmaydi.

Yaqinda men avtobusda bir oilani kuzatdim: ota, ona va ularning qizi. Uch yoshlardagi kichkina qizcha o‘z otasi bilan qiziq suhbat qurayotgandi. Ikkovi suhbat bilan mashg‘ul, ona esa yonlarida turib, qandaydir jurnal o‘qiyotgan va o‘zini xuddi hech nima eshitmayotgandek tutardi. His qilishimcha, ota shunchaki gaplashmasdan, qizi

bilan suhbatda uni jiddiy tushunishga urinar, ona esa aralashmas edi. Ularning suhbatiga qulq sol-sam, “Dada, saqich o’nta bo’lsa nima bo’lishini bilasizmi?”, “Shundaymi, saqich o’nta bo’lsa Guam oroli bo’ladi. Ikkalamiz borib ko’rsakmikan-a?” degan bolalarga xos gap borar edi.

Shunda xulosa qildimki, bu qizcha ajoyib ayol bo’lib tarbiya topadi. Katta odamga oddiy, ahamiyatsizdek tuyulgan suhbat bola uchun sezilarli darrajada zavq bag’ishlaydi.

Bola tarbiyasi va rivojlantirish masalalari faqatgina ona zimmasiga yuklangan va otaning roli faqatgina onaning iltimosiga ko’ra bu vazifalarga qo’shilish bilan cheklanadigan oilada haqiqiy yaxshi odamni tarbiya qilib bo’lmaydi. Vaqt yetishmasligi yoki ishdan keyingi charchoq otalarga o’z farzandlari bilan ko’proq gaplashishga to’sqinlik qilmasligi kerak.

**Ko‘p bolali oilada  
farzandlar bir-birlari  
bilan yaxshiroq  
munosabatda bo‘ladilar**

Zamonaviy Yaponiyada mavjud urf-odatga ko‘ra, yangi kelin-kuyovlar o‘z ota-onalari va qarindoshlaridan mustaqil holda yashaydilar va, odatda, oilalarda uch nafardan ortiq farzand bo‘lmaydi.

Men oilada yolg‘iz farzand bo‘lganman va bu o‘scha davr uchun kam uchraydigan holat edi. Men aka-uka va opa-singillari bor do‘stilarimga havas qilar, bir-birlari bilan suhbatlashib ovqatlanadigan, birga o‘ynaydigan va janjallahadigan do‘s-timning uyiga intilar edim. Ko‘pincha oiladagi birinchi farzand kam rivojlanib, vazmin, tarbiyali, ammo hayotiy zavqqa to‘lmay o‘sadi. Aksincha, mening do‘sstim, uch aka-ukaning o‘rtanchasi, juda

jasur va qat'iyatli, aka-ukalari xafa qilishsa-da, hech yig'lamas edi. Bunday hodisalarga faqat men-gina guvoh bo'lgan emasman, ular hayotda juda ko'p uchraydi.

Ammo nega bitta ota-onadan tug'ilgan, bir oila-da tarbiya topgan bolalar turli fe'l-atvor va qobili-yatlarga ega bo'lib ulg'ayadilar? Odatda, ota-onalar o'zlarining ikkinchi yoki uchinchi farzandlarini birinchisi kabi erkalatmaydilar. Shuning uchun ular ko'proq mustaqil bo'lib voyaga yetadilar. Le-kin, hozirgi erta ta'lim nazariyasida, sabab faqat bunda emas deb qaraladi.

Ota-onalar uyida birinchi farzandi uchun qiziq mashg'ulotlar va qulay sharoit yaratishadi, ammo ikkinchi bola egalik qiladigan ustunlik birinchisida bo'lmaydi. Ya'ni ikkinchi farzandda tug'ilishi-dan boshlab sherik bo'ladigan aka yoki opa bor va u o'zidan katta aka yoki opa bilan doim bellashi-shiga to'g'ri keladi. Shu tufayli ertaroq kuchli va quvnoq bo'lib ulg'ayadi. Uchinchi va to'rtinchi far-zand uchun bu imkoniyat yanada ko'proq bo'ladi. Chunki hayotning o'zi ularni chidamliroq va kuchli irodaga ega bo'lib o'sishga majbur etadi.

E'tibor bersangiz, bola, masalan, skripka chalishni o'z aka-ukasi yoki opa-singlisi bilan o'rgansa,

mashg'ulotlar samaraliroq bo'ladi. Ko'p farzandlari bor kambag'al oilalarda ulg'aygan iqtidorli insonlar ulkan muvaffaqiyatlarga aynan ko'p bolali oilada ulg'ayishi tufayli erishadilar. Chunki bunday sharoitda ajoyib qobiliyatlar va fe'l-atvorni rivojlantirish osonroq kechadi.

## **Oilada buvi va buvaning borligi bola rivojlanishi uchun yaxshi omildir**

Ko'pincha yosh oila o'z ota-onasidan alohi-da yashaganda buvi va buvalar bolalar tarbiyasi, umuman, yosh oila hayotidan chetlatiladilar va biror-bir aralashuv to'siq kabi qabul qilinadi. Af-suski, zamonaviy jamiyatda bu oddiy holat. Ba'zida "Qariyalar bolani shunday erkalatib yuboradilarki, natijada bolada xudbinlik shakllanib, ota-onalar farzandini qanday jilovlashni bilmay qoladilar", – deyishadi.

Ayniqsa, o'zlarini zamonaviy va ilg'or hisoblov-chi onalar shunday fikr yuritadilar. Men bir xona-li kichkina xonadonda yashovchi oilani bilaman. Ularning ota-onalar uyidan chiqib ketishlariga sabab o'z farzandlarini buvi va buva yonida to'g'ri tarbiya qila olmaymiz degan fikrda bo'lganliklari edi.

To'laqonli oilani shakllantirish uchun shunday qilish shartmi? Bolalar tarbiyasiga kelsak, bu katta savol ostidadir. Albatta, Yaponiyada hozirda ham shunday oilalar borki, qaynonalar kelinlari-ga haddan ziyod ko'p maslahat beradilar va birinchi farzandni dahodek ko'rib, boshqa oila a'zolarni ahamiyatsiz hisoblaydilar. Bunday feodalizm sarqitlari hali ham bor. Ammo, haqiqatda, bir necha avlod yashaydigan oilaning o'z afzalliklari mavjud. Qariyalardan madaniyatni, donolikni meros qilib olish mumkin va bu avlodlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni mustahkamlaydi. Farzandni ortiqcha erkalatishlariga qaramay, ular bolaga mehr-muhabbat, xotiralar beradilar, ertaklar aytib, rivojlan-tirishning boshqa usullari orqali uning hayotini boyitadilar. Bola xudbinlikni singdirmasligi uchun ota-onha unga doim hurmat bilan munosabatda bo'lishi kerak. Shuningdek, keksalarning har bir gapi va harakatidan bolalar ota-onada bo'limgagan yangi qiziqarli jihatlarni o'rganadi.

Mashhur yapon olimi Seydji Kayaning aytishi-cha, uning go'dakligida eng kuchli ta'sir ko'rsatgan insonlari buvisi bilan buvasidir. Qishloq oqsoqoli sanalmish buvasi shu qadar qattiqqo'l bo'lganki, u yo'talishi zahotiyoyq bola yig'lashdan to'xtagan.

Buva qattiqqo'l, ammo adolatli edi. Doktor Kaya irodasi mustahkam bo'lib, jismonan chiniqib ulg'aydi. Uning buvisi esa juda vazmin edi. Uning butun hayoti qo'l bilan harakatlantiriladigan g'il-dirakli tikuv mashinasida ishlash bilan o'tdi. Eh-timol, buvisidan sabr-toqatni o'rgangandir: agar bog'ni chopish lozim bo'lsa, birorta o't qolma-guncha ko'ngli joyiga tushmas edi. Psixolog Akiro Tagoning fikricha, aynan diqqatini jamlay olish qobiliyati va maqsadga erishishdagi qat'iyat doktor Kayaning shunday fe'l-atvorga ega bo'lishi hamda dunyoga mashhur inson sifatida kamol topishiga sababchi bo'lgan.

## **Farzandlarning o‘zaro suhbatlashishini rag‘batlantirish kerak**

Yuqorida aytib o‘tganimdek, onaning kun bo‘yi o‘z bolasi yonida bo‘lishi yoki uni qo‘lda ko‘tarishi bolaning xulq-atvori rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Bu nafaqat bolaning aqliy rivojlanishi, balki hissiyotlari kamol topishiga ham ta’sir ko‘rsatadi.

Agar jismoniy yaqinlik nafaqat o‘z onasi, balki go‘dakning otasi, aka-uka va opa-singillari yoki boshqa bolalar bilan bo‘lsa, go‘dak yanada ko‘proq foyda ko‘radi. Bu uning aqli o‘sishiga ko‘maklashadi, unda raqobat hissini, ijtimoiy munosabatlarini va birinchilikka intilish istagini rivojlantiradi.

Viskonsindagi universitetdan (AQSh) doktor Xari Xarlou maymun bolalari o‘rtasidagi ijtimoiy munosabatlar va ularning aqliy hamda ijtimoiy rivojlanishga ta’siri bo‘yicha tadqiqot o‘tkazdi.

Birinchi tajribada doktor Xarlou maymun bolalarini ichida faqatgina sut idishchasi bo'lgan, barcha tomoni yog'och taxtalar bilan yopilgan qafasga joylashtirdi. Tadqiqotning maqsadi bir muddat yolg'izlikda qolgan maymuncha o'zini qanday tutishini ko'rish edi. U uch oydan so'ng maymunlar guruhiga qo'yib yuborilganida avval o'zini qat'iyatsiz tutdi, ammo bir haftadan so'ng tetiklashdi va boshqalar bilan o'ynay boshladi. Ikkinci tajribada maymuncha yolg'izlikda olti oy ushlab turildi. Guruhga qo'yib yuborilganida u burchakka berkinib olar, hammadan qochar, boshqa maymunchalar bilan umuman o'ynamas edi. Uchinchi tajribada esa maymuncha yolg'izlikda bir yil saqlandi va bundan keyin xuddi shunday sharoitda saqlangan boshqa maymunlar bilan ham o'ynashga qodir bo'lmay qoldi. Nihoyat, qafasga yolg'izlikda yashagan bir nechta maymunlar va yolg'izlikni ko'rmagan birgina maymunni joylashtirganlarida yolg'iz qolmagan maymunda ayni sharoitdan asabiylik sodir bo'ldi. Bu maymunlarning aqliy rivojlanish koeffitsiyenti sog'lom muhitda ulg'aygan maymunlarnikidan ancha past edi.

Bu tadqiqotlar haqida o'qib men ularda beixtiyor inson bolalari bilan o'xshashlikni ko'rdim va

“Suhbatlashishdan mahrum qilingan go‘dak aqliy qobiliyati zaif va xulq-atvori og‘ir bo‘lib ulg‘ayadi” degan xulosaga keldim. Hozirda insonlar o‘zaro kam suhbatlashmoqdalar. Bu hol esa bolalar tarbiyasida o‘z ta’sirini ko‘rsatmoqda. Shuni inobatga olib onalar o‘z farzandlari uchun ko‘proq yig‘ilib, birgalikda suhbat qursalar, yaxshi samaraga erishiladi.

## **Janjallar bolalarda muomala ko‘nikmalarini rivojlantiradi**

“Inson jamiyat mahsuli va undan ayro yashay olmaydi”, deyishadi. Boshqa tomondan, insonda na-faqat guruhda yashash hissi, balki “men”ini anglash tuyg‘usi uni boshqaradi. Demak, u doimo ijtimoiy va shaxsiy hayot o‘rtasida uyg‘unlik bo‘lishiga intilishi, shuni izlamog‘i lozim. Agar ana shunday muvozanat o‘rnatilmasa, u jamiyatga moslasha olmaydi.

Bu uyg‘unlikka erishish erta rivojlanishga bevosita bog‘liq. Fikrimcha, bunga faqatgina erta shakllangan fikrlash ko‘nikmasi, ya’ni o‘ziga nisbatan hurmat huquqi va jamiyatga bo‘lgan mas’uliyat hissi asosida erishish mumkin. Bunday fikrlashni bolalar muloqoti asosida hosil qilish mumkin.

Ikki yosh atrofidagi bola uchun yolg‘iz o‘ynashning qizig‘i qolmaydi. U boshqalar bilan o‘ynay

boshlaydi va birinchi marotaba guruhda qanday munosabatda bo'lishni o'rganadi. Tabiiyki, uning talabi qondirilmasa, yig'laydigan holatlari ham bor. Yoki o'z talabini qondirish uchun do'sti bilan janjallahib, sheragini yig'latishi ham mumkin. Bola do'stlari bilan ahil bo'lib o'ynayotganda va urishib-talashayotganida jamoada yashashni o'rganadi. Bolalar o'rtasidagi janjallar ham muhim, chunki ular shaxsiy tashabbusni rivojlantiradi.

Bolalar o'rtasidagi janjallarni uch turga ajratish mumkin: bolaning o'z raqibidan ustun kelishi, boshqasiga yon berishi va qilmishiga yarasha javob berishi. Janjal turlari yoshiga qarab turlicha bo'ladi. Masalan, ikki yoshda bola janjalning sust ishtirokchisi bo'lsa, uch yoshida o'zi janjal keltirib chiqaradi. Bu bolada shaxsiy "men" tushunchasining shakllanayotgani va namoyon bo'layotgandan dalolat beradi.

Bolalar o'rtasidagi kelishmovchilikning sabablarini turlicha: o'yinchoq, chang'i, arg'imchoq uchun kurash yoki bir-birini haqorat qilish, xullas, sababsiz janjal bo'lmaydi. Sabablarini tushuntirmsadan, bolaga janjallahish yomon deb uni urishish va o'rgatish unda hamkorlik hissiyotini rivojlantirishga yordam bermaydi. Aytish mumkinki, bo-

lalar janjaliga aralashish ularning jamiyatda ya-shash qobiliyati rivojlanishiga xalaqit berishdir. Bolalarning o‘z mantig‘i bor va ular bir-birlari bilan o‘zlaricha so‘zlashadilar. Bu yerda katta odamning mantig‘i o‘rinsizdir. Agar bolalar janjaliga kattalar fikricha qarab, ularga urishish mumkin emas va boshqalar bilan janjallashuvchi bola yomon bola deb tushuntirsangiz, farzandingiz o‘z qobig‘ida qoladi va g‘azablanadi. Janjallar jamoa orasiga kir-ganda boshlang‘ich sinovdir.

## **Notanish odamlar oldida go‘dakning tortinchoqligi qiyofalarni taniy olish qobiliyatini rivojlanishining dalilidir**

Men o‘z kitobimda “qiyofa” so‘zini maxsus ishlatishimga izoh berib o‘tmoxchiman.

“Qiyofa” so‘zi ko‘proq “shakl”, “namuna tuzilishi”, “model” ma’nolarida ishlatiladi. Men esa bu so‘zni kengroq, ammo maxsus ma’noda, ya’ni bola miyasi ma’lumotni tanib qabul qilishdagi fikrlash jarayonini ifodalagan so‘z sifatida tushunishni taklif etaman. Ulg‘aygan inson ma’lumotni asosan mantiqiy fikrlash orqali qabul qilsa, yosh bola ichki hissiyoti (intuitsiya), ya’ni bir zumda qiyofa hosil qilish qobiliyatidan foydalanadi: ulg‘aygan inson fikrlashini bola anglay olmaydi va buni keyinchalik tushunib yetadi.

Erta bilish faoliyatining eng yorqin dalili go'dakning odamlar yuzini farqlay olish qobiliyati paydo bo'lishidir. Bolalar kasalxonasida men ko'rgan bir chaqaloq alohida yodimda qolgan. Aytishlaricha, u bir yoshdan biroz o'tgach 50 nafar odamni ajrata olgan, ularni nafaqat tanigan, balki har biriga nom ham bergen ekan.

50 nafar odam – bu raqam unchalik hayratga solmasa ham, ulg'aygan odamning bir yil davomida 50 ta turli chehralarni eslab qolishi qiyin ekanini o'ylab ko'ring. O'z tanishlaringizning yuz tuzilishini aniqroq ifodalab yozishga harakat qilib ko'ring. Ularni mantiqiy yo'l bilan bir-biridan ajrata olasizmi?

Bolalarning tanish qobiliyatlari taxminan olti oyga to'lganda namoyon bo'ladi, ya'ni ularda tortinchoqlik paydo bo'ladi. U kichik boshi, murg'ak nazari bilan tanish chehralarni ajrata oladi, masalan, onasi yoki otasining yuzini begonalardan farqlaydi va buni yaqqol namoyon etadi.

## **Ikki-uch yoshda bolada shaxsiy g‘urur hissiyoti shakllanadi**

“So‘qir vazirlar qurshovida bo‘lgan ahmoq qিrol”, – deb kimdir yangi tug‘ilgan chaqaloq va uning har bir istagiga bo‘ysunadigan ota-onasini ta’riflab yozgan edi.

Qirol qanchalik ahmoq bo‘lmasin, u hali juda yosh, asosiysi, deyarli kun bo‘yi uxlaydi. Bu davrda ota-onu u bilan unchalik qiyalmaydi. Ammo u ikki-uch yoshlarida xudbin bo‘lib qoladi va nazoratdan deyarli chiqadi. Shunda ota-onu farzandini jilovlay boshlaydi. Ular, bola biror narsani “noto‘g‘ri” qilsa, koyiydilar va jazolaydilar, birdan sodiq muxlisdan qattiqqo‘l enagaga aylanadilar, ammo bolaning ushbu rivojlanish bosqichida bunday harakatlar kutilgan natija bermaydi.

Negaki, bola hayotining birinchi yilida ota-onalar anglamagan holatda o'zlarini "so'qir vazirlar"dek tutib uning tarbiyasini buzganlar. Taxminan ikki-uch yoshlarida bolada shaxsiy g'urur hissi shakllanadi va u o'z "men"ini himoya qilishga tayyor bo'ladi. U o'z ota-onasini eshitmaydi, uni qanchalik ko'p koyishsa va jazolashsa, shunchalik ko'p itoatsiz va injiq bo'lib boradi. Ota-onasi esa yanada achchiqlanadi. Bunday tang ahvolning oldini olishda birgina yo'l bor: bolani bir yoshga to'lishidan avval, ya'ni unda "men" tuyg'usi paydo bo'lguniga qadar tartib va tarbiyaga chaqirish va o'rgatish.

Oddiy misol keltiramiz. Bola tug'ilishi bilan vaqt ni to'g'ri taqsimlashni odat qilib, qat'iy ravishda jadvalga muvofiq ovqatlantirilishi kerak. Shunda u ortiqcha ovqat yemaydi va to'shakda peshob qilish odatidan tezda xalos bo'ladi, siz esa kelajakda bunga qarshi kurashish uchun ortiqcha kuch sarflamaysiz. Bundan tashqari, oz-ozdan ovqatlanishga odatlangan bola kelajakda ortiqcha vazn muammosiga uchramaydi, boshlang'ich sinf o'quvchisi bo'lganida esa qabziyatdan qiyalmaydi. Agar bunga e'tibor bermay, "erkin" tarbiya tamoyillariga amal qilinsa, bola uchun bu falokat-

ga aylanadi. Bola hali yoshiga to'lмаган даврларда qattiqqo'llikni qattiqqo'llik deb his qilmaydi, qamchini qamchi sifatida bilmaydi.

Ikki-uch yoshdan o'tgan bola esa qamchingin og'rig'ini yaxshi biladi. Shuning uchun avval bolani faqat erkalatib, keyin qattiqqo'llik qilinsa, unda norozilik kayfiyati kuchayadi. Ota-onas kutayotgan natijaning aksi yuzaga keladi.

## **Bolada g‘azab va hasad – bu ojizlik ifodasidir**

Yosh bola o‘z hissiyotlarini so‘zlar orqali ifodalay olmaydi, shundan ota-onalar bola kayfiyatini uning yuzidan o‘qishni bilishlari zarur. Barcha onalar farzandlarini o‘zlari o‘ylaganchalik doim yaxshi tushunishlariga ishonchim komil emas. Ko‘pincha uy ishlari bilan ovora bo‘lib, bolaning hissiyotlarini kerakli darajada jiddiy qabul qilmaydilar va uning noroziligi hamda injiqligi sababini aniqlashga urinmaydilar.

Tokio universiteti professori, bolalar psixologiyasi bo‘yicha mutaxassis Toshio Yamashita bolaning asabiylashish sabablarini quyidagicha sanab keltiradi:

- 1) kasallik sababli sog‘lig‘i yomonlashganda;
- 2) ochlik yoki horg‘inlik tufayli o‘zini yaxshi his qilmaganda;

- 3) noxush voqea yoki qo‘rqinchdan qattiq ta’sirlanganda;
- 4) jismoniy mashqlar yetishmasligidan kuch (energiya) sarflanmay to‘planib qolganda;
- 5) o‘z aytganida turib olganda;
- 6) asabiylashgan ota-onaga taqlid qilganda.

Bu ro‘yxatdan ko‘rinib turibdiki, bolaning asabiyashish omillarini uning atrofidan va tarbiyasidan izlamoq kerak. G‘azab sababini aniqlash o‘rniga uni urishsangiz yoki e’tibor bermasangiz, bu bolani yanada xudbin va qaysar qiladi.

Ota-onalarga o‘z farzandining ruhiy holatini juda yaxshi tushungandek tuyulsa-da, bola “Meni tushunishmaydi” degan fikrda bo‘ladi va bu uni asabiyashtiradi. Ota-onsa bolaning asosli talabini injiqlikdan ajratish uchun kuchli irodaga ega bo‘lmog‘i kerak. Agar ularda bunday oqilona iroda yetishmasa, bolaning fe'l-atvori buziladi.

Bolada hasad tuyg‘usi taxminan bir yarim yosha paydo bo‘ladi. Bu uka yoki singilning tug‘iliishi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Ayniqsa, bola oilada birinchi farzand bo‘lsa. Chunki u yolg‘iz va ota-onsa faqat unga tegishli edi. Ayrim bolalar o‘z ota-onasini, hattoki bir-biri bilan suhbatlashsa

ham, qizg'anishi mumkin. Asosiysi, bunday xulqqa odatiy injiqlik deb qarash kerak emas.

Shunday qilib, bola g'azablanishi, qizg'anishi-ning sabablari, albatta, bor, ularning aksariyati xfachilikdan kelib chiqadi va ojizlik belgisi hisoblanadi. Agar ota-onalar bolaning bu tuyg'ulariga e'tibor qaratmasalar, faqatgina uni koyish yoki maqtash bilan cheklansalar, bu bolani qoniqtirmasligi mumkin. Ota-onaning maqsadi bolaning asabiy-lashish sababini bartaraf etish bo'lishi, ammo uni bostirish bo'lmasligi kerak.

## **O‘z farzandingizni boshqalar oldida masxara qilmang**

Bir tanishimning suhbat davomida burnini ush-lash odati bor. Agar munozara qizisa yoki asablari taranglashib, holat unga qarshi bo‘lsa, bu yanada sezilarli tus oladi. Bu haqda bilsa-da, o‘zini ush-bu holatda noqulay his qilsa-da, uni biror narsa bezovta qilsa yoki qiziqtirsa, o‘zini boshqara ol-maydi, qo‘li o‘z-o‘zidan burniga tegadi.

Uning fikricha, bu odat go‘daklikda boshlangan. U o‘yin bilan mashg‘ul bo‘lib, ikki-uch yoshdagi ko‘pgina bolalar kabi burnini kovlay boshlaganida ota-onasi: “Bunday qilma, aks holda, burun teshik-laring kattalashib ketadi”, – deya tengdoshlari oldida tortinmay koyishar edi. Shu zahoti u burnini ushlar va uning teshiklarini kichraytirishga harakat qilardi. Asta-sekinlik bilan bu odatga aylandi.

Shundan u oynaga ko'p qarar va burun teshiklarini, haqiqatan ham, boshqalarnikiga o'xshatmas, ularni bosib, ozgina bo'lsa ham kichraytirishga harakat qilardi. Bu odat umrbod saqlanib qoldi. Maktabga borganida bolalar buni tezda payqadilar va ustidan kula boshladilar. Bu kayfiyat unga shunchalik kuchli ta'sir qildiki, avvaliga bola o'zini past tutib, juda uyatchan bo'lib ulg'aydi.

Aslida, uning burun teshiklari umuman katta emas va yuzida alohida ajralib turmasdi. Bunday bo'lmanган holatda ham, men o'z farzandining kamchiligini oshkor qiluvchi ota-onaning shafqatsizligini tushuna olmayman.

Bunday holatlar kam emas. Ko'pgina ota-onalar farzandlari kamchiligini begonalar oldida muhokama qiladilar va: "Bolalar hech narsa tushunmaydi", – deb o'ylaydilar. Ammo kamchilik qanchalik kichik bo'lmasin, uni ko'pchilik oldida oshkor etish bolaga qanday zarar yetkazishini hech qachon taxmin qilib bo'lmaydi.

Masalan, yoshlida qo'ng'iroq sochlari sababli tez-tez odamlar oldida izza qilingan bola katta bo'lganida bosh kiyimini negadir tez-tez yo'qotib qo'yardi. "Bosh kiyimni kiymasa bo'lmaydi", degan tushuncha va o'y juda yoshlidan yuragida chuqr

iz qoldirgan. Unda “Bosh kiyimimni kiymasam, qo‘ng‘iroq sochim atrofdagilarga tegib ketadi”, degan kutilmagan his uyg‘ongan.

## **Bolani urishgandan ko‘ra maqtagan afzalroq**

Ikki uslub – rag‘batlantirish va jazolashning ikkinchisi samaraliroq tuyulsa-da, aslida, bunday emas. Jazolash bolada teskari munosabatni – ochiq-oydin bo‘ysunmaslikni keltirib chiqarishi mumkin. Gap shundaki, maqtov va jazolashdan ehtiyyotkorona foydalanish lozim.

Tasavvur qiling, ona bir idishda sharbatni stolga olib boryapti. O‘z onasiga hamma ishda taqlid qilishni istaydigan ikki yoshlar atrofidagi bola xuddi shu ishni takrorlashga harakat qiladi. Ona esa “Mumkin emas!” – deb, bolasi sharbatni to‘kib yuborishidan qo‘rqib, ishni bajarishiga yo‘l qo‘ymaydi. Bu noto‘g‘ri. Bola kattaroq bo‘lganida onasi unga qarashmayotganidan noliydi. Go‘dak o‘zining yoshi uchun qiyin bo‘lgan biror ishni qi-

lishga uringanida uni maqtagan ma'qul. “O‘zimning katta bo‘lib qolgan o‘g‘lim!” – deb, sharbatni ozgina quyib, idishni olib borish imkoniyatini berish lozim. Bunday munosabat juda muhim.

Doktor Suzuki menga qishloq musiqa maktabida uchratgan o‘quvchisi haqida gapirib bergandi. Bolani umuman qobiliyatsiz hisoblardilar. U skripkada juda yomon chalardi. Hech kim unga yordam bera olmagandi. “Men uchun chalib berasanmi?” – deb so‘raydi doktor Suzuki. U juda ham yomon ijro bo‘lsa-da, o‘shanda doktor bolani maqtaydi: “Ajoyib, ajoyib!” Qo‘srimcha qilib: “Men esa bunday chalaman. Nima deb o‘ylaysan, sen ham shunday ijro eta olasanmi?” – deydi. “Ha, o‘xshata olaman”, – deb javob beradi bola va skripkani olib, butun qudratini sarflab yana chaladi. Qiziq tomoni shundaki, u yaxshiroq ijro eta boshlaydi. Aniqlanishicha, oxirgi paytda bolani faqat koyiganlar, u esa qo’llab-quvvatlash va maqtovga intiq bo‘lgan. Doktor Suzukining fikricha, bolalar bilan munosabatda ularni urishgandan ko‘ra maqtagan yaxshiroq.

Albatta, urishish yoki majburlash zarur bo‘ladi-gan vaziyatlar ham bor, ammo qiyin vaziyatda bolaga tanlash imkoniyatini berish yoki uni ishontirishga harakat qilish afzalroq. Bola siz hali o‘qib

bo'lмаган газетани ўртаяотган бо'lsa, газетани undan olib qo'yish yoki qo'liga urishdan ko'ra bolaga eski gazetani berib qo'yish ma'qulroq. Agar bunday qilmasdan, faqatgina gazetani tortib olib qo'ysangiz, boladagi ishchanlik uchun muhim qiziqishni so'ndirasiz va unga qiziq bo'lgan narsani tortib olib, uni bekorchilikda qoldirasiz. Agar bolaga boshqa muqobil (alternativ) variantni taklif eta olmasangiz, hech bo'lmasa, nima uchun shu ishni qilish mumkin emasligini tushuntirish kerak. Sizning tushuntirishlariningizni anglay olmasligi mumkin, ammo tovushingizdagi ishontirish bolaga ijobiy ta'sir o'tkazadi.





To‘rtinchi qism

# **Tarbiya qoidalari**

## **1. Qiziqtirish va tartibga intilish**

### **Qiziqish – eng yaxshi undash**

Ikki va uch yoshli bolalarni ko‘pincha ularning ixtiyoriga qarshi har kuni doktor Suzukining skripka darslariga qo‘llaridan ushlab olib kelishadi. Ular qiziqish bilan atrofga qaraydilar, sakraydilar, yo‘lakda o‘ynaydilar, ammo skripka chalishga umuman qiziqmaydilar. Agar ota-onalar ularni musiqa o‘rganishga majbur qilsalar, butun harakatlari bola yig‘lashi va asabiylashishi bilan tugaydi. Bolalar skripkadan nafratlana boshlaydilar. Ularning bunday keskin munosabati bolaning uch yoshlari-da uyg‘onadigan o‘zlikni anglash va shaxsiy “men”i bilan bog‘liq bo‘lib, bunday hissiyotlar hech qanday zo‘ravonlikka toqat qilmaydi.

Shuning uchun boshida doktor Suzuki bolalarga istagan ishlarini qilish imkoniyatini yaratadi, bi-roq skripkaga yaqin yo'latmaydi. Tez orada kichik o'quvchi tinchlanadi va zavq bilan boshqa bolalar o'ynashini tomosha qiladi. Ikki-uch oy davomida bola uning do'sti o'ynayotgan butun pyesani es-lab qoladi va unda ham harakat qilib ko'rish istagi paydo bo'ladi. O'qituvchi esa bolaning ishtiyoqi avjiga chiqishini kutadi, shundan keyingina unga birinchi darsni o'tadi. Hamma bolalarda tayyorlanish davri turlicha bo'ladi. Eng uzog'i olti oydir.

Doktor Suzuki usulining asosiy qoidasi qiziqish uyg'otishdir, bu esa eng yaxshi undashdir. Uning fikricha, majburlash – o'qitishning eng yomon yo'li. Agar bolada skripkaga qiziqish uyg'onsa, u qisqa vaqt ichida katta natijalarga, ba'zida o'qituvchining kutganidan ham ortiq yutuqlarga erishadi. "Yaxshi ko'rsagina ishining ustasi bo'ladi". O'rganilayotgan fanga bolada qiziqish uyg'otish – bu eng yaxshi pedagogik usuldir. Shuning uchun ota-onalarning asosiy vazifasi bolaga o'rgatishni istagan narsaga uni qiziqtirishdir. Masalan, bolaga hisoblashni o'rgatishning o'rniغا uni raqamlarga qiziqtirish yaxshiroq. Unga yozishni o'rgatishdan ko'ra yozuv jarayoniga qiziqtiring. Boshqacha qilib

aytganda, ota-onaning vazifasi bolani o'qishga tayyorlashdir.

Bunday qiziqishni uyg'otish uchun zarur shart-sharoitlarni ham yaratmoq kerak. Masalan, bolada chizishga istakni hosil qilmoq uchun uning atrofida yetarlicha qalam va qog'ozlar bo'lishi kerak. Bolaga zarur sharoitlar yaratmay biror narsaga nisbatan xohish paydo qilish kuchukka ovqat bermasdan uni o'tirishga o'rgatishdek gap. Ota-onalardagi musiqa yoki rassomlikka beparvolik sababi ularga yosh paytida majburlash usuli qo'llanilganligi yoki qiziqtirish uyg'otish uchun zarur sharoitning yaratilmaganidadir.

## **Bolaga bir maromda bo‘lgan hamma narsa yoqadi**

Amerikada ingliz tili darsi bo‘yicha mashhur plastinka bor. Tulki haqidagi she’r matni bir maromda chalingan shunday musiqa bilan birga keldiki, men kabi yoshi katta odam ham raqsga tushib ketadi. So‘zlar o‘z-o‘zidan bir maromdagи musiqa sabab hech qanday tayyorgarliksiz yoki maxsus ta’limsiz oson eslab qolinadi. Afsuski, Yaponiyada tilni musiqa yordamida o‘qitish texnikasi ishlab chiqilmagan. AQShda bolalikdan tilni o‘rganish uchun bolani majburlash o‘rniga qiziqtirishga harakat qilish orqali katta yutuqlarga erishiladi.

Ko‘pchiligidiz “o‘qish” so‘ziga salbiy munosabat bildiramiz. Salbiy munosabatimiz sababi shundaki, bizning ongimizda o‘qish o‘z irodasiga qarshi bo‘ysundirish ma’nosida tushuniladi. Ammo o‘qish

rohat olish bilan eslanishi lozim, shundagina biz katta yutuqlarga erisha olamiz. Masalan, bir rohibning uch yoshli o‘g‘li hech bir mashaqqatsiz barcha sutralarni o‘rganib oldi, chunki otasi har kuni ertalab ularni kuylar edi. Ammo agar uni yodlashga majburlashganda, bu bola uchun juda qiyin masalaga aylanar edi.

## **Bolalar qiziq narsani to‘g‘ri va qiziq bo‘lmagan narsani noto‘g‘ri deb hisoblaydilar**

Siz bolani devordagi yirtilgan gulqog‘ozlar uchun urishasizmi? Qanday qilib unga buning yomon ekanini tushuntirasiz? Siz uchun “yaxshi” va “yomon” tushunchalari o‘z shaxsiy tajribangiz va umumqabul qilingan axloqiy me’yorlar bilan bog‘liq. Ammo yosh bolada bunday tajriba yo‘q, u gulqog‘ozni yirtish yaxshi yoki yomon ekanligini anglashi uchun biror narsaga tayana olmaydi. Agar uni qattiq koyisangiz, ehtimol, bu ishni noxush oqibatlardan saqlanish uchun qayta qilmasligi mumkin. Shu bilan birga, bu voqeя boladagi unib chiqayotgan ijodkorlik istagini so‘ndirishi mumkin.

Bolalar psixologи Seyshiro Aoki bolada “yaxshi” va “yomon” tushunchalari shakllanishini maxsus

tadqiq etdi hamda bola uchun “yaxshi” qiziq va ajoyib ma’nolarini anglatishi haqida xulosa qildi. Masalan, gazetalarda ko’pincha bola o‘g’irlash voqealari haqida yozishadi. Bola bexatar uyga qaytgach, undan nega begona odam bilan ketgani ni so‘rashganida ko’pincha: “Qiziq amaki ekanligi uchun ketdim. U yomon odam emas”, – deb javob beradi. Bola o‘g’rilari bola psixologiyasini yaxshi biladiganga o‘xshaydi. Ular o‘yinchoq va qiziqrarli gaplar bilan bolada qiziqish uyg‘otishadi. Yosh bola esa quvontiradigan, qiziq gaplar aytadigan amaki bo’lsa, uni yaxshi odam deb hech shubhalanmay o‘g’riga ergashib ketadi.

Bunday “yaxshi” va “yoqimli” tushunchalar erta go‘daklik davri uchun to‘g‘ri keladi. Bola asta-sekin tajriba orttiradi, endi u “yaxshi”ni maqtov eshitiladigan narsa deb tushunadi. Agar bola biror topshiriqni bajarsa va maqtov eshitsa, u buni to‘g‘ri, ya’ni yaxshi deb biladi. Buning aksi, uni koyishsa yoki jazolashsa, demak, u yomon ish qilganini anglaydi. “Yomon” tushunchasi noxush tuyg‘ularni eslatadi.

Masalan, siz doim bolaning skripkada yomon chalgani yoki kitobni yomon o‘qiganini malomat qilasiz. Bola esa mashaqqatlar keltiruvchi butun

o'rganish jarayonini yomon deb tushuna boshlaydi. Ko'pchiligidan yoshlikdan musiqa yoki ingliz tili darslaridan nafratlanamiz, chunki biz ularni noxush tuyg'ular bilan yodga olamiz.

Shuning uchun bolaga o'z tushunchangizdagи "yaxshi" va "yomon" nima ekanligini majburlab emas, u yaxshi ish qilganida yoqimli hissiyotlar, yomon ish qilganida esa noxush hissiyotlar orqa-li tushuntirish ancha samarali bo'ladi. Farzandingizning qobiliyatlari rivoji maqtov va jazolash usullaridan qanchalik muvaffaqiyatli foydalana olishingizga bog'liq.

## **Bolaning qiziqishini mustahkamlash kerak**

Bola tarbiyasida qiziqtirish eng yaxshi omildir. Ammo shu o'rinda bir muammo bor: bolaning biror narsaga qiziqishi juda tez yo'qoladi, chun-ki uning qiziquvchanligi cheksizdir. Agar uni o'z holiga tashlab qo'ysangiz, uning e'tibori bir narsadan ikkinchisiga sakrab o'taveradi. Albatta, bu uning yoshiga xos va uning e'tiborini bирgina narsada majburlab ushlash unga teskari, ya'ni salbiytasir ko'rsatadi. Bolaning qiziquvchanligi dunyon anglash hamda uning aqliy va ma'naviy rivojlanishi uchun muhim shart hisoblanadi. Men bolaga to'liq erkinlik berishni ham tavsiya etmas edim. Bola uchun bitta predmet bilan ovora bo'lib qolish (bu holatning haddan ortiq shakli autizm deyiladi) va biror narsada o'z e'tiborini bir muddat jamlay olmaslik birdek xavflidir. Natijada u yengiltabiat bo'lib ulg'ayishi mumkin.

“Matuyamashi” do‘koni maslahatchisi bo‘lib ishlayotgan otadan olgan xatimda bolaning qiziqishlari yaxshi kurtak yozib, jarayonda davom etayotganligi haqida hayotiy misol bitilgan edi. Katta o‘g‘li bir yosh-u ikki oylik bo‘lganida qandaydir sabab bilan unda “no” harfiga qiziqish uyg‘otgan. Buni sezgan ota-onas ovqatlanadigan stoldagi sushi xaltachasidan tortib televizor kabi buyumlargacha “no” harfini ilib qo‘yanlar. Har safar buyumlardagi harfni ko‘rsatib “no” deb aytganlar. Keyin bir yosh-u to‘rt oylik bo‘lganida alifbodagi ABCni yodlab olgach, amaliy usulda katta harflar – XYZWTFHNM kabilarni o‘rgatishga kirishganlar. Bola esa ularni darhol yod olgan. Bir yosh-u olti oylik bo‘lganida avtomashina, elektr asboblari ishlab chiqaruvchi kabilarning rusumlariga qiziqishi uyg‘ongan, oldin ishlab chiqaruvchi nomini olib, markani ko‘rsatishgan, keyin, aksincha, markani ko‘rsatib, ishlab chiqaruvchi nomini so‘rashgan. Bir qarashda ota-onaning bu usuli ahmoqona ko‘rinsa-da, ayni harakatlari orqali bolaning qiziqishini kuchaytirib, uni rivojlantirishga sharoit yarata olganlar.

Tevarak-atrofdagi ko‘pgina qiziq narsalar orasidan bola doimo o‘ziga qiziqarli narsalarni topa

oladi va u olamida unga hech kim kerak bo'lmaydi. Ammo, odatda, u hali ham kattalarning yordamiga muhtojlik sezadi. Katta odam bolada paydo bo'lgan qiziqishni qanchalik tez anglashi va e'tibor berishi bu qiziqish keyinchalik jiddiy shaklda rivojlanishi yoki so'nishiga olib keladi. Shuning uchun ayni vaqtin boy bermaslik muhimdir. Biz bolaning qanday qiziqishlari qobiliyat darajasida rivojlnana olishini bilmaymiz, lekin unda bu qiziqishlarni rivojlantirish uchun imkoniyat bo'lmog'i kerak.

## **Takrorlash – bola qiziqishini rag‘batlantirishning eng samarali usuli**

Agar katta odam ayni bir hikoyani bir necha marta tinglashga majburlansa, unga bu juda zeri-karli tuyuladi. Men o‘zim sabrsiz odamman va bir narsani ikki marotaba tinglashga toqat qila olmayman. Ammo yoshligimda ota-onamdan ertaklar-ni ko‘p marta takrorlab o‘qishlarini so‘rardim va tinglashdan hech charchamas edim. Takrorlash bola miyasida shakllanadigan aloqalar uchun juda muhim. Uning tavsiya qilinishiga sabab shunda-ki, u bolani zeriktirmaydi, chunki go‘daklikda u zerikishni bilmaydi. Bu davr bola miyasida to‘g‘ri shakllar hosil bo‘lishini, kelajakda uning aqliy va ma’naviy hayotini belgilaydigan eng yaxshi fursatdir. Uch oylik bolaga murakkab musiqa asari bir

necha marotaba takroran qo'yib berilsa, eslab qolishi mumkin. Bolaning ma'lumotni qabul qilish qobiliyati g'oyatda ulkandir.

Bu davrdagi takrorlash yana bir muhim vazifaga ega. Ertak va qo'shiqlarni ko'p takrorlash orqali bola uni yod olib, biror-bir hikoya yoki qo'shiqni yanada kuchliroq yoqtira boshlaydi va u haqda o'zining cheksiz savollarini berishda davom etadi. U yoqtirgan ertagini yodlab oladi va uning asosida dunyo haqidagi qiziqishini ma'lum vaqtga qadar qondiradi. Qiziquvchanlik inson taraqqiyoti uchun juda muhim orzu-istiklarni uyg'otadi. Biror narsa qilish istagi oppoq qog'oz holatida paydo bo'lmaydi. Qiziqish xohish-istiklarni uyg'otadi, keyin istakning o'zi insonni yuksaltiradi. Ertaklarni takroran eshitib tarbiyalangan go'dak bir-ikki yoshidan ulg'ayguniga qadar rasmlarga qiziqishini namoyon qiladi, keyin esa harflarni taniydi va oxiri o'qishni o'rganishni istaydi.

Men o'z farzandini ko'p ishlagani tufayli bir yil-u ikki oyga internatga topshirgan ota-onani bilar edim. Bola uyiga qaytib kelganida rivojlanish darajasi ancha orqada edi. Ammo to'rt yoki besh yoshlarida unda birdan musiqaga, ayniqsa, skripka va pianino mashg'ulotlariga qiziqish uyg'ondi.

Ota-onasi taajjubda qolib, birdan uyg'ongan qiziqish qanday paydo bo'lganini tushunmadilar. Internatda bola yetarli darajada intellektual rag'batlantirish olmaganligi, ammo uxlashdan avval bolalarga Motsart va Shubertning kuylari plastinkada qo'yib berilishidan xabardor edilar. Bir tomondan, yetarli darajada intellektual rag'batlantirish bo'lмаганлиги, бoshqa tarafdan, bir xil musiqa kuylari takrorlanishi uning aqliy qobiliyatini sekinlashtirdi, ammo musiqaga sezuvchanlikni oshirdi. Bu hikoya ibratli bo'lib, go'daklikda bola rivojlanishi uchun turli ta'sirlar haqida jiddiy fikrlarni uyg'otadi.

## **Bolaning tasavvuri va xayollari unda ijodiy qobiliyatni rivojlantiradi**

Ko'pgina ota-onalar o'z farzandlarini ijodkor shaxs etib tarbiyalashni istaydilar. Ammo, qo'rqa-manki, zamonaviy tarbiya tizimida ijodiy qobiliyatlarni go'daklikdan rivojlantirish yetarli darajada samarali emas.

Ijodkorlik nima? Aniq ta'rif berish mushkul. Ammo eng oddiy ma'noda u charaqlab ko'zga tashlanayotgan qiziqish, tasavvur hamda ichki hissiyot (intuitsiya)ning mustaqil namoyon bo'lib, u yuqori darajaga ko'tarilganda kashfiyotlar, ixtiolar shaklida ko'rinishidir. Uning eng yuqori darajasida ijodkorlik, aql, bilim va tasavvur birlashtiriladi. Shuba yo'qli, ijoddagi muvaffaqiyatlar ildizi shaxsiy va hissiy idrok etish hamda go'daklikdagi tajribalarga borib taqaladi. Boshqacha qilib aytganda, bolalik tasavvurlari katta odamga real hayotdan uzoq tuyulsa-da, haqiqatda, ijodiyot kurtaklari hisoblanadi.

Masalan, siz bolaga biror o‘yinchoq sovg‘a qildingiz, aytaylik, hayvoncha. U o‘zini shu hayvon bilan tenglashtirib, hayvonot bog‘iga borib ko‘rgan tajribasiga asoslanib, o‘zining ko‘nikmasi yoki eshitgan ertagi asosida u haqda bir hikoya to‘qishi mumkin. Yoki, masalan, biror-bir rasm uning tasavvurini shu qadar ta’sirlantirishi mumkinki, katta odamlar bunga qodir bo‘lmaydilar. Aytishlaricha, Leonardo da Vinchi yoshligida shiftda uchayotgan alvastilar va u yerdagi yoriqlar, dog‘lar orasida qimirlayotgan har xil maxluqlarni ko‘rgan.

Katta odam choynak chizadi, bola esa bu rasmda og‘zi ochiq baliqni ko‘radi. Kattalar bolani urishib: “Ahmoqona gaplarni gapirma, bu choynak”, – deydi. Ayni javob xato bo‘ladi va bu endi ochilishga tayyor g‘unchani yakson qilish bilan barobardir. Quyidagi besh yoshli bolaning yozganlari bo‘lib, haqiqatan, qiziqarli ijod mahsulidir. Bunda ona ning qanday yo‘l tutib tarbiyalagani juda muhim. “Zeniya olgan savat ichida tilla tangalar bor ekan. Uni uyga olib kelibdi. Shunda tilla tangalar bargga aylanibdi. Yana qoya tagida savat bor. Bu savatni ozgina ochib qarasa, ichidan ko‘p mevalar chiqibdi. Zeniya ularni yebdi. Keyin maysazor paydo bo‘libdi, gullar ochilibdi. Shunday qilib, tamom”.

## **Bolada ichki hissiyotlarni (oltinchi hissiyot) rivojlantiring**

Biz bilamizki, insonda beshta sezgi a'zosi bor: ko'rish, eshitish, hidlash, ta'm bilish va teri sezgisi. Ammo unda oltinchi hissiyot – ichki sezgirlik (intuitsiya) ham bor. Oltinchi hissiyot tufayli, masalan, ko'pgina ayollar erining xiyonati haqida aniq biladilar. Agar jiddiy gapirsak, ichki sezgirlik – bu biror-bir e'tiborga loyiq muvaffaqiyatning muhim shartidir. Oltinchi hissiyoti bor insonlarni men “sezgisi kuchli odam” deb aytaman.

Barcha buyuk ixtirochilar, ulkan bilim va tajribalariga qaramay, ichki sezgilariga ham tayan-ganlar. Ichki sezgirlik beshta sezgi o'rnini bosa-di. Shuning uchun u eng qadimgi va asosiy (fundamental) hissiyot hisoblanadi. Ichki sezgirlikni yana mantiq va sog'lom fikr chegarasidan chiquv-chi “hayvoniy tuyg'u” deb ham atashadi.

Avval aytib o'tganimdek, bola uch yoshgacha hayvonga yaqinroq bo'ladi, ya'ni u mantiqan fikrlay olmaydi va o'z his-tuyg'ulariga tayanadi. Buni yodda tutish va uning hissiy rivojlanishini rag'batlan-tirish juda muhimdir. Qandaydir ko'nikmalarni o'rgatish orqali ularning hissiyotlarini so'ndirmaslik kerak, unga mantiq va dalillar asosida ta'sir ko'rsatmaslikka harakat qilish zarur.

Bunga alohida misol kerak deb hisoblayman. Doktor Suzuki yozgan kitobida hissiyotni rivojlan-tirishning muhim jihatlari hisoboti olingan holati ko'rsatilgan. Bu doktor Suzuki Shugun ismli ko'zi ojiz bolaga skripka o'rgatgan paytidagi holatdir.

Boshida skripkaning shaklini ham bilmaydigan, qorong'i dunyoda yashaydigan bolaga juda mohirona texnik usullar kerak bo'lgan. Skripkaning mu-siqiy ijrosi u kabilar uchun imkonsiz deb o'ylagan bo'lsa-da, javobgarlikni o'z bo'yniga olib, o'qitishda barcha usullarni qo'llab, sabr bilan unga ustozlik qildi. Suzuki dastlab skripka tutqichini o'ng-chap, tepa-pastiga harakatlantirib mashq qildirdi. Keyin chap qo'l kaftini skripka tutqichiga qo'yib, skripka tutqichini ko'rsatgan. Boshlanishida bola noto'g'ri joyini ko'rsatdi. Ikki hafta o'tib ikki-uch marta to'g'ri ushladi. Nihoyat, kaftida uzoq vaqt, kichik

bosh barmog'ida bir marta bo'lsa ham juda aniq ushlaydigan bo'ldi. Bir yillik harakatlar natijasida Sadakazu har kuni jamoat zalistagi konsertda mult-laqo oson bo'limgan kuyni ajoyib tarzda ijro etdi. Bu, shubhasiz, uning skripka holatini qalb ko'zi bilan ko'rvuchchi oltinchi hissiyotning mashq qildiril-gani g'alabasidir.

Ichki sezgirlik beshta hissiyot yig'indisi bo'lgani sababli uni rivojlantirish ularning barchasini kuchaytirishga xizmat qiladi.

## Bola tarbiyasida jinsiy farq yo‘q

Ota-onalar farzandlari tug‘ilishi bilan “Bu bola mehribon, fahm-farosatli va kuchli inson bo‘lishini xohlayman” qabilida yaxshi niyat va orzu qiladilar. Bu ota-onalari qalbi deb atalib, xudbinlik, shuhratparastlik kabilardan mutlaqo yiroqdir. Lekin farzandi kim bo‘lishi haqida orzulaganlarida uning jinsini hisobga oladilar: “U siyosatchi bo‘ladimi yoki olimmi?”, “Umid qilamanki, u go‘zal va aqlli qiz bo‘ladi!”

Nima sababdan biz yangi tug‘ilgan o‘g‘il va qizga turlicha munosabat bildiramiz? Aslida, uch yoshgacha bo‘lgan bolalarning tashqi ko‘rinishida unchalik katta farq yo‘q. Ba’zida biz ularni hatto tashqi ko‘rinishlaridan ajrata olmaymiz. Ba’zi tillarda go‘dak so‘zi chaqaloqning qiz yoki o‘g‘il bola ekani ni aniq ko‘rsatmaydi. Ilm-fan ham “Jinsiy farqlanishlar uch yoshdan keyin namoyon bo‘ladi”, degan fikrda. Mashhur bolalar psixologgi Van Ornshteyn

bir qator tadqiqotlar o'tkazgandan so'ng "Faqatgina uch yoshdan keyin bola o'z xatti-harakatlarida jinsiy mansublikni namoyon qiladi va to'rt-besh yoshlariga kelibgina o'yinlarda yaqqol ko'rsatadi", degan xulosaga keladi. Shunday qilib, uch yoshga-cha bolalar o'rtasidagi jinsiy farq faqat bolaning jinsiy a'zolari shaklida ko'rindi.

Shunga qaramay, ota-onalar o'z farzandlarini ularning jinsini inobatga olib tarbiya qiladilar. Massalan, yangi tug'ilgan o'g'il bolani ko'k rangda, qiz bolani esa pushti rangda kiyintiradilar. Bolaning didi hali rivojlanmagan vaqtida o'g'il bola pushti kiyim kiyishi va qiz bola ko'rshapalak, mashina o'yinchog'ini o'ynashida qanday yomonlik bor? O'g'il bolada qo'g'irchoqqa qiziqish uyg'onsa, uni olib qo'yish kerakmi? Nima sababdan unga doim o'g'il bola ekanligini eslatib turish lozim? Nima uchun qiz bola kurash bilan qiziqishi mumkin emas? Nemis shoiri Rilkega qiz bola kiyimini kiydirib, qiz boladek tarbiya qilishgan, ammo u bundan qiz bola bo'lib qolmadi. Qiz bola o'g'ilsifat va o'g'il bola qizsifat bo'lib qolishi haqida qayg'urgandan ko'ra ota-ona bolaga bu boradagi qarashlari ni uqtirishi uning ruhiyatiga qanday zarar ko'rsa-tayotgani haqida mulohaza qilmoqliklari zarur.

## **Yosh bolaga jinsiy mavzularda haqiqatni aytinglar**

Oxirgi paytlarda “jinsiy tarbiya” ommaviy axborot vositalarida keng muhokama qilinmoqda. Asosiy savol: jinsiy tarbiyani qachon boshlash kerak – boshlang‘ich sinflardami yoki o‘rta sinfda? Men bu savolni noo‘rin deb bilaman. Nima sababdan inson tanasidagi jinsiy a’zolarni ma’lum davrgacha boladan yashirib, keyin maktab yoshiga yetganda o‘rgatilishi kerak? Ikki-uch yoshdagi boladan buni yashirib, yolg‘on gapirib o‘rgatib kelinsa, keyin birdan jinsiy ta’lim haqida gapira boshlasak, o‘rgatadigan katta yoshdagi odamga ham, o‘rganayotgan bolaga ham noqulaylik tug‘iladi.

Go‘dak o‘zining qiz bola yoki o‘g‘il bola ekanligini his etmasa-da, ikki yoki uch yoshida bu borada savollar berishni boshlaydi. Masalan, cho‘milayot-

ganida otasi va onasining tana a'zolari boshqacha tuzilganini ko'radi. Albatta, savollar beradi. Oilada yana bir farzand tug'ilsa, u qanday qilib uka yoki singil dunyoga kelganini so'raydi.

Bola bunday savollarga aniq javob olishi kerak. Bolaga hazillashish yoki yolg'on gapisish kerak emas. Ota-onaning noqulay ahvolga tushishi bu mavzuni taqiqlangan narsa kabi qiziqarli bo'lib tuyulishiga olib keladi. Ikki-uch yoshdagi bolaning ichki tuyg'ulari unga yolg'on gapisayotganliklarini sezsa oladi. Bola buni bildirmasligi mumkin, ammo ota-onaning g'alati xatti-harakati uning qiziqishi kuchayishiga sabab bo'ladi.

“Bolaning jinsiy hayot haqidagi haqiqatni bilsiga hali erta”, – deyishadolatsizlikdir. Jinsiy mavzularni chiroyli so'z orqali to'g'ri tushuntirish kerakki, bolada bu mavzuga tabiiy bir jarayondek munosabat shakllansin. Bu mavzuni taqiqlangan deb tushunuvchi kattalar esa yoshlikda noto'g'ri tarbiya olgan.

## **Kun tartibi bolada vaqt tushunchasini shakllantiradi**

Zamonaviy bola uchun televizorsiz hayotni tasavvur qilish qiyin. Shuning uchun ota-onalar o‘z farzandlari bilan aloqani yo‘qotmaslik uchun ular ko‘rayotgan teledasturlarni tomosha qilmoqdalar.

Televizor go‘dak hayotida soat vazifasini bajar-moqda, chunki unda hali vaqt tushunchasi mavjud emas. Har bir dastur biror-bir hodisaga bog‘langan: ota ishga ketadi, ota ishdan keladi, uplash vaqt va boshqalar.

Televizion dasturlar muntazamligi bolada vaqt tushunchasini shakllantiradi. Odatda, go‘dak faqat bugun bilan yashaydi, uning uchun “o‘tmish” va “kelajak” tushunchalari mavjud emas. Taxminan ikki yarim yoshida, aniqrog‘i, gapirishni boshlaganida bola “avval”, “keyin”, “kecha” va “ertaga”

nima ekanligini tushuna boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, bola nutqni tushuna boshlaganida va gapisishni o'rganganida unda vaqt tushunchasi paydo bo'ladi.

Ammo tajriba shuni ko'rsatadiki, go'dak hozir, kelajak va o'tmish tushunchalarini televizion dasturlar yordamida anglay boshlagan. Televizion dasturlarning muntazamligi nonushta, tushlik, otaning ishdan kelishi kabi oilaviy hayotdagi hodisalardan aniqroqdir. Televizor bola kunini tartibga solishda yaxshi xizmat qilishi mumkin. Muntazam tartibga rioya qilish nafaqat bolaga yaxshi odatlar ni o'rgatishda, balki unga vaqt tushunchasini shakllantirishda ham zarur. Ba'zi onalar bolalari ga ular sanashni o'rganishidan avval soat bo'yicha vaqt ni o'rgatadilar. Go'dak soat millari (strelkalari) ma'nosini tushunmaydi va unga: "Soat sakkiz, uxlash vaqtি bo'ldi", – deb tushuntirish foydasiz. Bola soat sakkiz bo'lgani uchun emas, balki qorong'i tushgani va uyqusi kelayotgani uchun uxlashga yotadi. Muntazam kun tartibi bolada vaqtning taxminiy tushunchasini ishlab chiqadi. Bu tartib bola uchun soat vazifasini o'taydi.

## **Yangiliklar dasturi bolaga to‘g‘ri so‘zlashda ko‘mak beradi**

Bir onaning aytishicha, uning ikki yoshli o‘g‘li har kuni radio va televizordagi yangiliklar dasturini tinglash orqali to‘g‘ri so‘zlashni o‘rganmoqda ekan.

Hali so‘zlarni bilmaydigan bola uchun murakkab so‘zlari ko‘p bo‘lgan yangiliklar dasturini eshitirishdan nima ma’no dersiz? Biroq masala, albat-ta, yangiliklarning ma’nosini tushunishida emas, balki to‘g‘ri talaffuz, urg‘u va ohang (intonatsiya) bilan til shaklini yaratishda.

Savodsiz nutq va noto‘g‘ri talaffuz bola ulg‘ayib borayotgan muhit natijasidir. Muhit bizning ongimizda o‘z irodamizga qarshi o‘chmas iz qoldiradi va buni hech narsa bilan o‘chirib bo‘lmaydi. Agar katta odam nutqida biror-bir o‘zgarish bo‘lsa,

bu uning farzandiga, farzandidan esa nabirasiga o'tadi. Shunday qilib, tildagi barcha xatoliklar avloddan-avlodga o'tib boradi.

Agar to'g'ri nutq bola ongiga mustahkam o'r-nashsa, keyinchalik u ommaviy axborot vositalari-da ko'p ishlatilayotgan jargonlar ta'siridan qochib qutula oladi yoki ulardan foydalangan taqdirda ham bola tiliga salbiy ta'sir o'tkazmaydi.

## **2. Go‘daklikda fe'l-atvorni tarbiyalash**

**Musiqiy uyg‘unlik  
go‘daklikda samarali  
o‘zlashtiriladi**

Filmarda ko‘pincha oila yoki bir guruhdagi do‘stlar bo‘sh vaqtlarini bирgalikda kuylash bilan o‘tkazishlarini ko‘rsatishadi. Musiqaviy ta’lim olmagan oddiy qishloq aholisi jo‘r bo‘lib, zavqlangan holda kuylaydilar, ularning tovushi xushohang va uyg‘un bo‘ladi. Albatta, bu film bo‘lgani uchun desak-da, yaponiyaliklarda keragicha musiqiy ta’lim olinib, musiqaning o‘qilish usulini yodlab olishsa ham, bunday kuylanmaydi.

Go‘dak musiqaviy savodxonlikni alohida notalar yordamida emas, balki hamohanglik asosida

o'rganadi. Bu esa tovushlar o'rtasidagi farqni ularni solishtirish orqali tushunishga yordam beradi. Tovushlar birikmasi (kombinatsiyasi) unga tovushlarning o'zaro munosabati va har bir tovushning alohida sifatlarini his etishiga yordam beradi.

Kuy va ohanglarni mukammal ravishda farqlash qobiliyatini ulg'aygan insonda rivojlantirib bo'lmaydi, ammo go'dakka to'g'ri musiqaviy ta'lim berilsa, bunga erishish mumkin.

## **Musiqa ta'limi diqqat-e'tiborni jamlash qobiliyatini rivojlantiradi**

1970-yili Osakadagi ko'rgazmada BMT sharafiga bag'ishlangan yosh skripkachilar konserti bo'lib o'tdi. Konsert soat 11<sup>oo</sup> da boshlandi, ammo ertalab soat 8<sup>oo</sup> da ko'pgina bolalar, shu jumladan, uch va to'rt yoshli bolalar,sovuuqqa qaramasdan, o'z kuylarini takrorlar va skripkalarini sozlab maydonda turardilar. Men bu bolalarning sobitqadamligidan taajjubda qoldim.

Albatta, yosh bola bolaligicha qolishi, tiyrak hamda qiziquvchan bo'lishi kerak. Ammo tiyraklik va quntsizlik bir narsa emas. Oxirgisi katta odamda g'oyatda istalmagan sifat hisoblanadi. Bir narsaga diqqatini uzoq muddat jamlay olmaydigan shaxs har bir masalada bekorga ko'p vaqt va kuch sarflaydi.

O‘zida yuqori darajada diqqatni jamlash qobiliyatini rivojlantirgan shaxsning yuksak afzalliklari bor. Musiqa maktablari o‘quvchilari intizomli va yaxshi tarbiya ko‘rgan hisoblanadi. Balki, siz: “Bu bolalarning ota-onalari qattiqko‘l. Shundan bolalar yoshlikdanoq zerikarli va jiddiylar”, – deb o‘ylarsiz. Bunday emas! Ular o‘zlarini yaxshi tutishlariga sabab darslarda ota-onalari bo‘lgani uchun emas, balki hech bir qiyinchiliksiz yuqori darajada diqqatni jamlay olish qobiliyatiga ega ekanligidadir. O‘qish-o‘rganish ular uchun oson va bir xil vaqtida boshqa bolalarga nisbatan ko‘proq vazifalar bajarishga ulguradilar. Shunday qilib, ularda ko‘proq bo‘sht vaqt qoladi.

Doktor Suzukining skripka darslariga qatnagan barcha bolalarning ota-onalari ta’kidlashicha, ularning farzandlari imtihonga tayyorlanayotganlarida hech qiynalishmagan, ko‘p vaqt hovli-da bolalar bilan o‘ynashlariga qaramay, hech bir zo‘riqishsiz yaxshi o‘qishgan. Bu savol mutlaqo aqlii bolani kashf qiladi: xushchaqchaq, zukko va umumqabul qilingan stereotipdagi rangi ketgan, oriq, ko‘zoynakli bolaga sira o‘xshamaydi. Konfutsiyning “Musiqa bilan hamohanglikda” ta’limotida aytilishicha, musiqa qalbni yumshatadi va

fe'l-atvorni yaxshilaydi. Musiqaviy mashg'ulotlar muntazam mashqlarni talab etadi, bu, o'z navbatida, diqqatni jamlash qobiliyatini tarbiyalaydi. Shunday qilib, musiqa ham fe'l-atvorning to'g'ri shakllanishiga hissa qo'shadi.

## **Skripka chalish yetakchilik fe'l-atvorini rivojlantiradi**

Erta ta'limning antiqa dalillaridan biri sanalgan skripka ta'limi, oldingi bandda aytib o'tganimdek, diqqatni jamlovchi kuchni rivojlantirish bilan birga yana bir ajoyib, foydali jihatni namoyon etadi. Bu ko‘p odamlarni yig‘a oladigan kuch, ya’ni yetakchilik qiladigan insonni tarbiyalashidir.

“Boshqa insonlarni boshqarish qobiliyati faqatgina katta odamlarga xos va bu sifat kattaroq yoshda tarbiyalanadi”, degan tushuncha mavjud. Aslida, yetakchilik xususiyatlari ko‘pchilik o‘ylaganidan ertaroq rivojlna boshlaydi. Har bir bolalar guruhida kimdir, albatta, yetakchi rolini o‘ynay boshlaydi.

Doktor Yamashita o‘zining “Bola psixologiyasi” nomli kitobida ta’kidlashicha, yetakchilik qobili-

yatiga ega bola, uning atrofida boshqa ko‘pgina bolalar bo‘lsa ham, doimo o‘z fikrlari va qilayotgan ishlarini aniq maqsadga yo‘naltirgan bo‘ladi. O‘yin yoki boshqa mashg‘ulotlarida u doim biror yangi narsa ixtiro qilishga intiladi va o‘z fikrlarini tatbiq etish uchun birinchi bo‘lib harakat qiladi.

Bu sifatlar skripka (yoki boshqa cholg‘u asobi) mashg‘ulotlarida ham shakllanadi. Hech qanday ajablanarli tomoni yo‘qki, doktor Suzukining o‘quvchilari rangi siniqqan daholar emas, balki yetakchilik qobiliyatiga moyil quvnoq va shijoatli bolalardir. Bu bolalar o‘z vaqtি-soati bilan har bir jamiyatga zarur yo‘lboshchilar bo‘lib ulg‘ayadilar.

Bunga yaqqol misol doktor Suzukining sevimli o‘quvchisi bo‘lgan Toyota Koji janoblaridir. Toyota janoblari dunyodagi eng mashhur orkestrlardan biri bo‘lgan Berlin radioeshittirish orkestrining konsertmeysteri bo‘lgan. Konsertmeyster barcha orkestr a’zolarining vakili bo‘lib, a’lo darajadagi yetakchilikni talab qiladigan lavozimdir.

Janob Toyotadan tashqari doktor Suzukining skripka chalish darsidan dunyoning eng mashhur orkestrlari yetakchilari yetishib chiqqan. Ularning barchasi o‘ttiz yoshlardagi o‘sprinlar bo‘lib, tili ham, odatlari ham, ruhiyati ham bir-biridan

farq qiluvchi Germaniya, Amerika kabi davlatlarning musiqachilariga qo'shilganlar. Shunday qilib, doktor Suzukining ko'plab talabalari dunyoning eng mashhur orkestrlari safida peshqadamlik qilganlar.

## **Go‘daklikdagi musiqiy ta’lim bolaning hatto tashqi ko‘rinishida ham aks etadi**

Odamning tashqi ko‘rinishi naslga butunlay bog‘liq hisoblanadi. Ammo odamning tashqi ko‘rinishi uning hayoti qanday kechayotganiga qarab o‘zgarishini biror marta bo‘lsa ham payqaganmisiz? Albatta, ko‘zlar va burun shaklini butunlay o‘zgartirish uchun plastik jarrohlik yordami kerak. Biroq, umuman olganda, tashqi ko‘rinish va o‘zini tutish hayotiy sharoitlar natijasida keskin o‘zgaradi. Ayniqsa, bu o‘zgarishlarni bolalarda yaqqol kuzatish mumkin. Masalan, musiqa tinglayotgan yoki musiqa darslari olayotgan bolaning tashqi ko‘rinishi, shubhasiz, shu mashg‘ulotlar tufayli o‘zgaradi. Biz “Erta rivojlanish uyushmasi”da bir guruh yangi kelgan va bir-biridan sira farq qilmaydigan go‘dak-

lar orqali tadqiqot o'tkazdik. So'ng guruhdan ayrim bolalarni tanlab olib, ularga Motsartning "Kichik tungi serenadasi"ni eshittirdik. To'rt oydan so'ng bu bolalar boshqalaridan farq qilar: ular tetikroq va ko'zları yorqinroq edi.

Mashhur yapon musiqa tanqidchisi Maruo o'z xatida menga shunday yozgan edi: "Tovushlar odamga juda katta ta'sir ko'rsatadi. Ziyrak va g'amxo'r onalar Ikkinci jahon urushidan beri bolalar qanday o'zgarganini, ehtimol, sezgandirlar. Bu o'zgarish uchta sabab tufaylidir:

- 1) onalarning madaniyat darajasi o'sganligi;
- 2) ovqatlanish yaxshilanganligi;
- 3) bolalarga tovushlarning ta'siri kuchayganligi".

Maruo musiqa inson yuz ifodasini o'zgartirishiga ishonadi. U bunday qiziq holatga bir necha marotaba duch kelgan. Shuning uchun musiqa insonni go'zal qiladi degan qat'iy ishonch bilan "odamning musiqaga sho'ng'ishi" usulidan foydalanadi. Uning fikricha, bir oylik chaqaloqqa faqat nutqni tinglash yetarli emas, balki u radio, televizor, magnitofon yozuvlari orqali musiqani ham eshitmog'i lozim.

Maruo hakam sifatida ishtirok etgan musiqiy dasturlarda tomoshabinlarning yuz ko'rinishini

kuzatar ekan, ularning musiqiy tomoshalardagi qo'shiq turiga qarab o'zgarib borishini sezadi. "Musiqa yig'ilganlar yuzini o'zgartirdimi?", "O'xshash chehrali tomoshabinlar bir xil musiqani yoqtirishadimi?" qabilidagi savollarga asoslangan holda juda qiziq kuzatishlar o'tkazish mumkin.

Shuningdek, Maruo musiqa insonlarni go'zal-lashtirishidan tashqari Chamorojining bir usulida "musiqiy rohat", ya'ni musiqaga singib, unga berilish orqali chiroyli bo'lish usulini topgan.

## **She'r yodlash xotirani mustahkamlaydi**

*Qor eriydi  
Daraxt shoxida,  
Kabutar g'u-g'ular u yerda.  
Boq, mushuk bolasi  
Ohista yurar  
To'kilgan kuzgi barglar ustida.  
Emaklar va kular go'dak,  
U ikki yoshga to'ldi  
Bugun ertalab.*

Bu an'anaviy yapon she'ri – xayku. O'rta asrlar oxiridagi shoir Isso Kobayasi tomonidan yozilgan.

Bizning qobiliyatlarni tarbiyalashga asoslangan tajriba mакtabimизда bunday xaykular xotirani mashq qildirib, mustahkamlash uchun o'rgatiladi. Xaykular bizning tajribalarimiz maqsadiga mos keladi, chunki ular qisqa va bir maromda bo'lib, yod-

lash uchun osondir. Shuningdek, ular yosh bolalar she'riyati talablariga javob beradi: "Yodlash uchun mo'ljallangan she'rlar bolada olijanoblik hissiyotlarini tarbiyalamog'i, shu bilan birga, go'zal, nozik va butun umr davomida eslashga loyiq bo'lmog'i lozim. Bundan tashqari, ular bolaga yoqishi kerak".

Boshida bolalar har kuni Issa she'rlaridan bit-tadan yod oladilar. Ularga she'rlarning ma'nolari-ni aytgan holda qiziqtirib yod oldiradilar, ertasiga yana shu she'rni takrorlatib, keyin yangisini o'rgatadilar. Shunday qilib, bola xotirasini mashq qiladi va bundan rohatlanadi. Agar birinchi marotaba bola eslab qolishi uchun she'rni o'n marta eshitishi kerak bo'lsa, keyingi safar unga uch-to'rt marta, keyinchalik bir marta qaytarish ham yetarli bo'la-di. Taxminan bola bir yilda Issaning 170 ta she'rini yodlar ekan.

Takrorlash – ilm olish garovi. Bu aksioma. Agar bola she'rning bir qatorini unutsa, uni boshidan oxirigacha qaytarsin. Shunday usulda xotirasini mashq qilgan odam butun hikoyani to'rt yoki besh marotaba o'qishdan so'ng eslab qoladi.

Ba'zi o'quvchilar xotirani mustahkamlashning bu usuliga shubha bilan qaraydilar. Men ham boshida "Issaning xaykusi bolalarga to'g'ri kelmay-

di”, degan fikrda edim. Biroq bu mashg’ulotlardan maqsad faqat yodlash emas, balki bolada estetik tuyg’ularni, uning aqliy qobiliyat va ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirish hamdir.

Bolaning miyasi o’z xotirasida yuzdan ikki yuzgacha kichik she’rlarni saqlashi mumkin. Biroq foydalanilmasa, xotira zanglaydi. Undan qanchalik ko’p foydalanilsa, shunchalik faol ishlaydi va rivojlanadi. Bola takrorlashdan zavq olishi davomida uning yodda saqlash qobiliyatini mashq qildirish lozim.

## **Bir ishdagi muvaffaqiyat boshqa ishlarda o‘ziga ishonch uyg‘otadi**

Biz bir necha bor ta’kidlaganimizdek, skripka chalish darslari yoki chet tilini o‘rganish mashg‘ulotlari bolani daho qilib o‘stirish uchun emas, balki uning umumiy aql-zakovatini rivojlantirishga ko‘maklashishdir. Bola uchun o‘z diq-qat-e’tiborini faqat bir narsaga qaratgandan ko‘ra o‘zini kengroq sohalardagi turli mashg‘ulotlarda sinab ko‘rish foydaliroq.

Boshqa tomondan, agar bola bir sohada muvaffaqiyatga erishsa, bu unda o‘ziga ishonch uyg‘otadi va u boshqa mashg‘ulotlarda yaxshiroq natijalarga erishadi.

Bu kabi misollar juda ko‘p. Doktor Suzukining sinfida uch yoshli juda uyatchan, yig‘loqi bola bor edi. U boshqa bolalarga nisbatan yomonroq gapi-

rar, uning ustidan kulishar va o'yinlarga qo'shishmasdi. O'sha bolaga skripka chalishni taklif qilishganida yig'lab yuborardi, hatto skripkaga qo'l ham tekizmasdi.

Sabr-toqatli doktor Suzukining mashg'ulotlariga bir necha oy qatnaganidan keyin bola skripka chala boshladи, olti oydan so'ng esa pissikatoni hammandan yaxshi ijro etadi. Bu unga o'z kuchiga ishonch uyg'otdi. U o'z shaxsiy tashabbusi bilan shug'ullanib ota-onasini taajjublantirdi. Shuningdek, boshqa ishlarda ham kirishimliroq va harakatchan bo'lib qoldi. U ko'pincha o'zini dirijyor qilib ko'rsatardi, qo'shni bolalar orasida tashabbuskor bo'lib oldi. Uning nutqi butunlay to'g'rilandi.

Bu kabi misollar faqatgina bolalik davriga tegishli emas. Men talabalik davrimda boshqa fanlarni yomon ko'rар edim. Ingliz tilini yaxshi ko'-raman deydigan g'alatiроq bola bo'lardi. Ingliz tili avval mutlaqo yangidek tuyulgan, keyin sekin-asta shug'ullanish orqali so'zlarni yaxshi yod ola boshlagan. Keyin u boshqa fanlarga ham qattiq kirishib, yaxshi natijalar ko'rsatdi. Ayniqsa, chet tilidagi so'zlashishlar o'ziga ishonchini oshirish bilan birga tilni yaxshi ko'rib, unda yanada ravon gaplashadigan bo'ldi.

Shu tarzdagi o‘zgarishlar katta odamlar bilan ham yuz beradi, ammo ruhiy kechinmalari chuqur bo‘lmagan yosh bolalarda bunday o‘zgarishlar ancha osonroq kechadi.

## **O‘yin qartalarini jamlash bola fikrlash qobiliyatini o‘stiradi**

Hamma bilsa kerakki, o‘yin qartasida yuzi pastga qaragan qarta juftini topish degan o‘yin bor. Qartaning orqasiga o‘girib ikkitadan tarqatiladi. Bir qarashda juda oddiy ko‘rinadigan o‘yin. Ammo hozir o‘ynab ko‘rsangiz, bu kattalar uchun juda murakkab bo‘lib, ikki-uch yoshdagi bolaga osongina yutqazishingiz mumkin. Bir marta farzandingiz bilan o‘ynab ko‘ring. Bu o‘yin hech qanday mahorat talab qilmaydi, faqatgina xotiraga tayanadi. G‘olibona boshlasangiz yaxshi, lekin chalg‘ishingiz hech gap emas. Oxirida bilmagan holda qartani o‘girib qarasangiz, farzandingiz e’tiborli ekanligiga guvoh bo‘lasiz.

Bunga qarama-qarshi o‘laroq, farzandingiz sizning qiynalib o‘ynaganingiz kabi qiyinchiliklarga duch kelmay ikkala qartani ham oson qo‘lga kiri-

tadi. Albatta, sizning xotirangiz boshqalardan farq qilgan holda yomon bo'lmasligi mumkin, lekin farzandingiz xotirasidan jiddiy farqlanadi. Bu farq qayerdan kelib chiqqan? Yaxshilab e'tibor beradi-gan bo'lsak, javobini topamiz. Bola qarta holatini oddiygina yoddan eslab qolayotgani yo'q. U qarta holatining barchasini butun bir shakl sifatida tanib, miyasiga ko'chirib oladi. Ya'ni qarta tarqa-tilayotgan vaqtda uni birgina rasmli shakl sifatida eslab qoladi. Bu biz shu paytgacha tez-tez takror-layotgan bolaning qiyofa, shakl tanish qobiliyatiga o'ziga xos bir misoldir. Biz, kattalar, qarta holati-ni bitta-bitta, o'ngdan nechanchi qator, pastdan nechanchi qator deb eslab qolishga harakat qil-ganimiz sababli bolaga teng kelolmaymiz. Bu kabi qiyofa tanish bolaning ustun bo'lgan qobiliyatlaridan biridir. Har bir qiyofa (shakl)ning xususiyatini darhol aniq ilg'ab olganligi uchun, o'ylab qarasak, u qadar donolarcha eslab qolish usuli yo'q. Masalan, bola bir martada eslab qolsa, ko'chada ketayotgan avtomashinani bir ko'rishdayoq qaysi davlatning qanday avtomashinasi ekanligini aniq aytadi. Buni ham qiyofa tanish qobiliyati sababli topa oladi.

Shunday qilib, bolalar aql-idrokini o'yin va musiqa orqali tabiiy ravishda o'stirib boramiz.

Biz, ota-onalar, bunga qo'ldan kelgancha yordam berishimiz kerak. Bizning bu harakatlarimiz farzandlarimizning kelajagiga katta ta'sir ko'rsatadi.

### **3. Ijodkorlik va ko‘nikmalar**

**Farzandingiz qo‘liga  
qalamni imkon qadar  
ertaroq tutqazing**

Sakkiz oydan boshlab go‘dak qo‘llarida qalam ushlay oladi. Bolaning sog‘lom rivojlanayotganini boshqa omillardan ko‘ra uning ushlab turish qobiliyati namoyon etadi. Bu yoshda bola onasini noiloj holatda qoldirib kitoblarni yirta, o‘yinchoqlarni bo‘laklarga ajrata boshlaydi. Boshqacha qilib aytganda, bola o‘z shaxsiyatini namoyon qiladi.

Bolaning xatti-harakatlarini aql bilan yo‘naltirish darkor. Chunki bu kelajakda ijod qilish qobiliyatini shakllantiradi. Unga rangli qalamlar tutqazing. U esa, albatta, istagan joyini bo‘yay boshlay-

di. Agar unga qog'oz bersangiz, bir nechta qiyshiq chiziqlar chizadi va, ehtimolki, uni yirtib yuboradi. Siz uchun bu qing'ir-qiyshiq yozuvlar, ammo bola uchun o'z fikrini ifodalashdir.

Biroq ko'pgina ota-onalar bolaning ushbu fikr ifodalashga bo'lgan intilishini bilmagan tarzda so'ndiradilar. Ular bolaga o'z qarashlarini zo'r lab o'tkazadilar: "Qalamni bunday ushla!", "Olmalar qizil bo'lishi kerak", "Doirani bunday chiz", "Kitobni yirtma", "Qog'ozni yerga tashlama", "Stolga yozma". Jajji bir go'dak uchun taqiqlar ko'plik qilmaydimi?

Ba'zida yosh bolasi bor uy o'zining tozaligi va tartibliligi bilan odamni lol qoldiradi. Odatda, mehmon uyni shunday tartibli tutgan va bolaga ham qarashga ulguradigan onani maqtaydi. Aslida, ertadan kechgacha bolaga qarash uyni ozoda saqlash uchun hech qanday vaqt yoki kuch qoldirmaydi. Uyni toza tutishga bo'lgan harakati farzandining ijodiy rivojlanishiga xalaqit berishini bilish ona uchun kutilmagan ma'lumot bo'lishi mumkin.

Bola qo'llari orqali qiladigan barcha ishlari – rasm chizishi, o'yinchoqlarni otishi, qog'oz yirtishi – uning aqlini va ijodiy qobiliyatlarini rivojlantiradi. Farzandingizga qanchalik erta qalam bersangiz,

natija shunchalik yaxshi bo'ladi. Shu bilan birga, har daqiqa uni to'xtatsangiz, ijodiy qobiliyatlari rivojlanishiga xalaqit bergen bo'lasiz.

## **Chizish uchun bir o'lchamdagи qog'oz – bu bir qolipdagi odam**

Illyustrator (bezovchi) rassom Xiroshe Minabe hozirgi kunda mavjud uch yoshgacha bo'lgan bolalar tarbiyasidan qoniqmaydi. Uning ba'zi fikrlari menga e'tiborga loyiqdek ko'rinxmoqda.

Masalan, uning aytishicha, rasm chizishdan avval rassom uning qaysi o'lchamda bo'lishini hal qiladi. Bolaga esa bir o'lchamdagи qog'ozni beradilar va shu bilan uni tanlash imkoniyatidan mahrum qiladilar.

Xuddi shunday munosabatni boshqa masalalar-da ham kuzatamiz. Masalan, bolaga faqat maxsus yosh bolalar kuylari va ertaklari mos keladi deb hisoblashadi. Katta odam tasavvurining torligi bolasning tasavvurini cheklaydi.

Bolalarga bir xil o'lchamdagи qog'oz berilganida ular beixtiyor "Barcha rasmlar faqat shu o'lchamda

bo‘lishi kerak, ota-onam va tarbiyachilarim shuni xohlashadi”, degan fikrda bo‘ladilar. “Bunday tor dunyoda kichik-kichik rasmlar chizsam, onam xursand bo‘ladi, bog‘cha opamdan maqtov eshitaman”, degan tor tushunchadagi bola tarbiyalanadi.

Bola birinchi marotaba qo‘liga qalam olganida va toza qog‘ozda iz qoldirishi mumkinligini ang-laganida g‘oyat ulkan dunyoni ko‘radi (ota-onasining tasavvur qilishi mumkin bo‘lganidan ancha katta). Bu ulkan dunyo bir o‘lchamdagи qog‘ozdan ancha kattadir. Men bolaga juda katta o‘lchamdagи qog‘ozni berardim, toki uning ustida emaklab chi-za olsin. Bir o‘lchamdagи qog‘oz ijoddan mahrum va hayotiy bardoshga ega bo‘lmagan bir qolipdagи odamni tarbiyalaydi.

## **O‘yinchoqlar ko‘pligi bolaning diqqatini parishonxotir qiladi**

O‘yinchoqlarning tashvishga soladigan bir jihatni bor. Menga Yaponiyada onalar bolalariga o‘yinchoqlarni juda ko‘p olib beradigandek tuyuladi. Ko‘pincha do‘konlarda kuzatganlarim: bola o‘ziga yoqqan o‘yinchoqni sotib olishni talab qilib qattiq jazavaga tushadi va ota-onalarning chidolmasdan o‘yinchoqni sotib oladi. Bunday paytda amerikalik ota-onalar bola yig‘laydimi, baqiradimi, zinhor o‘yinchoq sotib olib berishmaydi. Amerika oilalarini kuzatadigan bo‘lsak, tug‘ilgan kuni va yangi yildan boshqa payt bolaga o‘yinchoq xarid qilmaydilar. Bolalarni o‘yinchoq do‘koniga olib borgan holatlarni kamdan-kam uchratasiz. Bola xohlagan barcha narsani olib berish aslo onaning muhabbatini

sababli emas, aksincha, bolaga yomon ta'sir o'tkazmaslik fikri tufaylidir.

Men ham nevaramning kayfiyatini ko'tarish uchun o'z injiqligimdan o'yinchoq sovg'a qilaman va qizimning bundan ko'p jahli chiqadi. O'yinchoq olib berganim uchun tanbeh eshitganim ahmoqona gap bo'lsa-da, Amerika oilalarini ko'rib bu umuman yaxshi emas deb mulohaza qilinadi.

Ko'pgina psixologlar fikricha, bolaning atrofida ortiqcha o'yinchoqlar bo'lishi bolani ezib qo'yadi va fikrini jamlashi qiyin kechadi. Bola bitta o'yinchoqni yaxshiroq o'ynaydi va u bilan turli o'yinlar o'ylab topadi. Uning tasavvurida bir taxta bo'lagi yoki choynakning singan qopqog'i ertakdag'i uycha yoki ajoyib ko'lga aylanishi mumkin, bu esa do'kondagi qimmat o'yinchoqdan ancha qiziqarliroqdir.

Shunday qilib, bolada o'zgacha fikrlash va ixtirochilikni rivojlantirishni istasangiz, u so'rayotgan barcha narsani sotib olib bermang. Bu bilan umuman teskari natijaga erishasiz.

## **O‘ta tartibga solingan xona bola o‘sishiga to‘sqinlik qiladi**

Juda g‘amxo‘r onalar bolaga xavf tug‘dirishi mumkin bo‘lgan hamma narsani olib tashlashga harakat qiladilar. Bola emaklash yoki yurishni boshlaganida tebranib yuradi va doimo vazalarni tushirib yuboradi, elektr simlariga yopishadi, beton polda sirg‘anadi. Albatta, onalar o‘z farzandi ni barcha xavf-xatardan omon saqlashni va uning yo‘lidagi barcha xavfli narsalarni olib tashlab, fagat to‘mtoq va bola ko‘tara olmaydigan og‘ir narsalarni qoldiradilar.

Yaqinda “axloqsizlik munozarasi”da mashhur yozuvchi Sakakuchi Angoning ayoli yozgan kitobni o‘qidim. Unda quyidagilar yozilgan edi. Ango doim o‘z xonasini oyoq bosishga joy qolmaydigan dara-jada betartib qilar, xotini tartibga solib, yig‘ishtirib

qo'ysa, Asa imkon boricha betartiblik qilar edi. Faqat Angoninggina emas, yozuvchi va rassom kabi ijodiy ish bilan shug'ullanadigan insonlarning xonasi, odatda, ajablanarli tarzda betartib bo'ladi, ularni kichkina savdo do'koni deyish mumkin. Bu holat ularning sermahsul ijod namunalari bilan aloqador deb o'ylayman.

Shunday qilib, ular bola atrofida deyarli vakuumni hosil qiladilar. Men bola rivojlanishi uchun qo'l bilan ushslashning (taktil) foydasi haqidagi aytib o'tgandim. Madam Montessori tavsiyasiiga ko'ra, ongli ravishda bolaga qattiq va yumshoq, qo'pol va nozik, to'mtoq va o'tkir, og'ir va yengil predmetlarni taklif qilish zarur. Bola uchun uning atrofidagi barcha narsa qiziq. U qo'lini tekkizadi va paypaslaydi, ba'zida to'kib yuboradi yoki bo'laklariga bo'lib yirtadi. Bu uning o'sayotgan qiziquivchaligi va ijodiy salohiyatidan dalolatdir.

## **Bolada tartib haqida shaxsiy tasavvur mavjud**

Bola uchun mutlaq tartibli uyda yashash zararli bo'lsa-da, men uyda tartibsizlik bo'lishi kerak deb ta'kidlamayman. Bir necha marotaba aytganim-dek, uning miyasida faol ravishda andaza (stereotip) hosil bo'ladi va bu uni ranglar, shakllar joylashgan tomonga jalg qiladi.

Shakllarni tanish qobiliyati doimiy takrorlash natijasida rivojlanishiga asosan men "Bir predmetni doim bir joyda topa olsa, boshqa ko'nikmalarni ham o'rganishda bo'lgani kabi, unga ijobiy ta'sir ko'rsatadi", degan xulosaga keldim.

Bu haqda Jan Piaget professori Montessori xonim ko'p hayotiy misollar keltiradi. Masalan, besh oylik bolani bolalar aravachasida sayr qildirib, sariq devordagi oq marmar toshbosma (litografi-

ya) tomon yuzlanganda bola uni ko'rib quvonadi. So'ng har kuni shu tomonga yuzlanib bola toshbosma oldiga kelganda ko'zлari chaqnab ketadi. Bundan tashqari, doim ko'rib o'rgangan stol tepasidagi qizil soyabon olib qo'yilganida bola yomon holatga tushadi, hammomda cho'miltirilayotganda o'ng tomonni chap tomonga almashtirganda kasalga o'xshagan horg'in holatda qoladi, stul tepasidagi yostiq holati o'zgartirilsa, yig'laydigan bola bir qolipdagi muhitning o'zgarishini sezadi.

Bola o'z hayotidagi har bir o'zgarishga o'ta ta'sirchandir. Ba'zida go'dak o'zidan-o'zi yig'lashni boshlaydi, ishtahasi yo'qoladi, harorati ko'tariladi. Bu alomatlar uning atrofida bo'lgan o'zgarishlarga nisbatan ta'sirlanishi bo'lib, katta odam buni pay-qamasligi mumkin.

Boshqacha aytganda, har qanday o'zgarishlar bolaning tartib to'g'risidagi tasavvurini izdan chiqaradi. Agar bu o'zgarishlar unga yoqmasa, albatta, o'z munosabatini bildiradi. Biz tushunishimiz shartki, katta odamlarga nisbatan yosh bolalar o'zgarishlarga ko'proq ta'sirchan bo'ladilar. Go'daklar narsa-buyumlarni alohida emas, balki bir-biri bilan bog'liqlikda qabul qiladilar. Bu, o'z navbatida, ularning rivojlanishiga ko'mak beradi.

Shuning uchun biz, kattalar, bolaning atrofdagi barqarorlik va tartib to‘g‘risidagi tushunchalarini buzishi mumkin bo‘lgan keskin o‘zgarishlardan yiroq turishimiz zarur.

## Bolaga kuzatuv sharoitini ta'minlang

Xayolimga ko'pincha aravachada yotgan cha-qaloqning quruq shift yoki chivinlarga qarshi dokadan boshqa narsani ko'ra olmasligi kelardi. Ba'zida uning o'rniga katta odamning yuzi paydo bo'ladi va tezda yo'qoladi.

Bu yaxshi emas. Bola biror narsaga qarashi zarur. Butun dunyoda ota-onalar belanchak ustiga shiqildoqlarni osib qo'yishadi. Bu yetarli ekanligiga amin emasman.

Italiyalik go'dak yoshidagi bolalar ta'limi tad-qiqotchisi Montessori xonim mening bu xavotirlarimga qo'shiladi. Uning ta'kidlashicha, bu yosh-dagi bolalar barcha sensor his-tuyg'ularni zo'r ishtiyoq bilan o'zlashtiradilar, ammo bu ehtiyoj bola doimiy ravishda o'z belanchagi yoki aravachasida chalqancha, ya'ni tepaga qarab yotganida qoniqtirilishi mumkin emas. Kattalar doimiy ravishda bo-

laga engashsalar-da, bu bolaning g'ashiga tegadi, chunki u boshini qimirlata olmay, yo'qolayotgan narsa ortidan kuzatishga harakat qiladi.

Bolaning ustida har daqiqa egilish yoki uni o'yinchoqlar bilan ko'mib tashlagandan ko'ra boli ni yonboshlatib yotqizishni taklif qilaman, bunda u atrofni kuzatish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shunday holatda go'dak aravachadan tashqarida bo'layot-gan hodisalarni ko'rishi mumkin.

## **O‘yinchoqlar chiroyligina emas, qo‘l uchun yoqimli ham bo‘lishi kerak**

Rassom Xiroshe Manabe o‘zining betakror rassomlik mahorati bilan mashhur. Uning o‘z farzandlari bilan amalga oshirgan tajribasi asosida bolalarni tarbiyalash nazariyasi ham mavjud.

“Men ularga hech qachon tayyor o‘yinchoqlar sotib olmayman. Ularga qismlar to‘plamini bera man va ulardan o‘zlari o‘yinchoq yig‘ishlari mumkin. Yig‘ishning uddasidan chiqolmayotgan bo‘lsalar yig‘lashni boshlaydilar, ammo ularga hech kim yordam bermasligini biladilar. Agar o‘yinchoqqa ega bo‘lishni istasalar, uni o‘zlari yasashlari kerak. Shuning uchun bolalar bor kuchlarini ishga solib harakat qiladilar”.

Bu ajoyib tarbiyaviy usul bolaga “yutuqqa erishish baxti”ni beradi, ammo faqat tayyor o‘yin-

choqlarga ega bolalar bunday baxtdan mahrum bo'lganlar. Biroq, muhim jihat shundaki, qismlardan iborat o'yinchoq bolaning yoshiga mos kelishi kerak, aks holda, bu usul unga nisbatan zulmga aylanadi.

Bolalar do'konida yorqin va ajoyib o'yinchoqlar ko'pligidan hatto katta odamning ko'zлari o'ynab ketadi. Biz oxirgi tiyinimizgacha pul sarflab olgan narsalarimizni ko'rib bola ham zavq olishiga umid qilamiz. Ammo, odatda, bola yangi o'yinchoq bilan bir necha daqiqa o'ynaydi, keyin uni tashlab ketadi. Har bir ota-onada buni tajribada kuzatgan.

Tayyor o'yinchoqlar kamdan-kam holatlarda bolalarga yoqadi, chunki ular atrof-muhit bilan deyarli umumiylikka ega emas. Go'daklarga o'yinchoqning chiroyli va qiziqarli bo'lishi yetarli emas. Ehtimol, yuradigan temir yo'l poyezdi o'yinchog'inining qanday yurishini kuzatib, relslarni yig'ib olib ko'proq o'ynar.

Montessori taklifi bo'yicha hayotdagi mavjud predmetlarga o'xshaydigan o'yinchoqlar to'plami ishlab chiqilgan. Ularni ushslash, otish, bir-birining ichiga solish, yechish va taqish, ochish va yopish mumkin. Bu ko'nikmalarning barchasi bola hayotida zarur. Katta odamlarda ko'pincha u yoki bu

o‘yinchoqning qiymati haqida bolalikdagi taassu-rotlariga asoslangan noto‘g‘ri tushuncha mavjud bo‘ladi. Go‘dak zavq bilan atrofidagi narsalarni o‘rganadi, ayniqsa, uni “yutuqqa erishish baxti”ni beruvchi, “ijodkorlik”ka bo‘lgan talabini qondiruvchi o‘yinchoqlar ta’sirlantiradi.

## **Kitoblar faqat o‘qish uchun, kubikchalar esa faqat qurish uchun emas**

Cheklangan tasavvurimiz bilan biz, kattalar, kitobni faqat o‘qish kerak, kubikchalardan faqat bি  
rror narsa yasash kerak deb hisoblaymiz.

Kitoblar va kubikchalar, odatda, bolaning birinchi o‘yinchoqlari bo‘ladi. Kattalar bolaga ular bilan qanday o‘ynash kerakligi to‘g‘risida o‘z qarashlarni zo‘rlab o‘tkazadilar. Agar go‘dak o‘zicha o‘ynasa, nima bilan yoki qanday o‘ynashidan qat’i nazar, maqsadga erishilgan bo‘ladi.

Uni to‘g‘rilash uning ijodiy rivojlanishiga to‘sinqinlik qilish yoki o‘ynash ishtiyoqini umuman yo‘qotishga olib boradi.

U kitobdan ko‘priklar yasashi yoki unga chizishi, yirtishi ham mumkin. Unga kitobni faqat o‘qish uchun bergandan ko‘ra umuman bermagan ma’qul.

Kitob o'qishga qiziqishi paydo bo'lganida, albatta, uni o'qish qiziqroq ekanligini anglab yetadi.

Bolaga faqat bir maqsadda foydalanish mumkin bo'lgan tayyor o'yinchoq bilan o'ynash zerikarli. O'yinchoq qanchalik qimmat bo'lmasin, agar bola o'z qo'llari bilan uni biror narsa qilolmasa yoki o'z tasavvuri asosida o'zgartira olmasa, u bola uchun qadrli emas.

Odatda, birinchi farzandga juda ko'p o'yinchoq xarid qilishadi, ularning ko'pligi go'dakka muhim emasligini anglagach, ikkinchisiga kamroq olib berishadi. Bir nechta, ammo foydali o'yinchoqlar bo'lgani ma'qul. Deyarli barcha ota-onada buni boshdan kechirgan.

Go'dak uchun u ushlaydigan va ko'radigan hamma narsa o'ynaydigan buyumdir. Unga umuman o'yinchoqlar sotib olish zarurati yo'q va bolaga "tartibga ko'ra" o'ynashi lozimligini uqtirish ham yaxshi emas.

## **Plastilin, loy yoki boshqa materialdan biror narsa yasash, qog‘ozdan naqshlar kesish va shakllar yasash bolada ijodkorlik kayfiyatini uyg‘otadi**

Atrofga nazar solsangiz, asrlar davomida ishlatilgan qancha oddiy o‘yinchoqlar mavjud ekanidan taajjubga tushasiz. Ular loy, kesish uchun va shakllar yasash uchun rangli qog‘ozlardir.

Bu materiallar bir umumiy xususiyatga ega – ular ma’lum shakl yoki belgilangan maqsadga ega emas. Boshqacha aytganda, ularga istalgan shaklni berish mumkin. Xuddi shuning uchun ular aqliy qobiliyat tez rivojlanadigan go‘daklik davridagi bolalar uchun eng maqbul o‘yinchoqlardir. Bola bu materiallar bilan xayoliga kelgan narsasini

qilishi mumkin. Tasavvur qilaylik, biz bir yoshga to'limgan chaqaloqqa loy va qog'oz berdik. Bola hech qanday maqsadsiz, biror narsa yasash niyati bilan emas, faqat o'rganish uchun ularni ushlaydi. Ammo qo'lida ushlaganida ularning shaklini o'zgartiradi va hayrat bilan bu o'zgarishlarni kuza-tadi. Buning o'zi bebaho tajribadir.

Bu yoshda go'dak loy va qog'ozni qayta-qayta g'ijimlab ushlab bu jarayondan zavq oladi. Ongli ravishda harakat va natija o'rtasidagi sabab va oqibat aloqasini tushuna boshlaydi.

Sekin-asta u loyga shakl berishga va qog'ozdan kemacha yasashga harakat qila boshlaydi. Bu o'yinchoqlarni bolaning rivojlanish bosqichiga qarab oddiy va murakkab predmetlarga aylantirish mumkin.

Go'daklikdan har xil narsalar yasashni boshlagan bola o'z tengdoshlaridan turli malakalarni egallahda sezilarli darajada o'zib ketadi. Bu yerda gap uning tajribaga ega ekanligida yoki loydan narsa yasashni yaxshi ko'rishi yoki yomon ko'rishi-da emas, balki bu ish uning aqliy va ijodiy qobiliyatlarini uyg'otganidadir. Mohir qo'llar va o'zlikni namoyon qilish – bular birinchi, ammo yagona bo'limgan narsa yasashdagi ko'nikmalardir.

## **Badiiy obraz bo'yicha o'yinlar bolaning ijodiy qobiliyatini rivojlantiradi**

Ko'p bor ta'kidlaganimizdek, bunday mashg'u-lotlarning asosiy maqsadi musiqa yoki xorijiy til darslari kabi bolaga biror narsani o'rgatish emas, balki uning cheksiz imkoniyatlarini rivojlantirishdir. Badiiy obraz o'yinlari ham shu maqsadga xizmat qiladi. "Qobiliyatlarning ochilishi – mashhur shaxslarning yoshlik davri" kitobi mualliflari (britaniyalik er-xotin) kitob so'ngida quyidagi xulosaga kelganlar: "Har bir bola, qobiliyatidan, o'ziga e'tiborli munosabat, rag'bat va yordamga loyiq, ijtimoiy yoki irqiy kelib chiqishidan qat'i nazar, o'zidagi eng yaxshi narsalarni maksimal rivojlantira olsin. Biz, kattalar, bunday tushunchani unga berishimiz va ko'maklashishimiz kerak, bu esa vaqt va sabrni talab etadi".

Bolalar yozuvchisi Goro Maki teatr tomoshala-rida rol o'ynash bolalar ijodkorligini rivojlanti-

rishning eng yaxshi usullaridan biri deb hisoblaydi. Ammo, afsuski, bolada teatr tomoshalaridagi ishtirokning ijobiyligi ta'siri tezda namoyon bo'lmaydi, doimo tezkor natijalarni kutuvchi ota-onalar esa bundan umidsizlanib qolishlari mumkin. Men teatrda o'ynaydigan va spektakllar yozadigan bolalarning rivojlanishi kuzatilgan natijalarni ko'rghanman. Boshlang'ich maktabning bиринчи va ikkinchi sinflarida ular o'rtacha yoki o'rtachadan ham past o'qishgan, ammo tezda oldinga o'tib, boshqa bolalarni ancha ortda qoldirishgan.

Men bolalarga teatr tomoshalarida maymunga taqlid qilib o'ynashni taklif etmayapman. Men, qalamlar yoki musiqiy asboblardan farqli ravishda, tana harakatlari va so'zlar orqali o'zlikni namoyon etishlarini nazarda tutyapman.

Albatta, yoshlik davrida teatr tomoshalarida rol o'ynagan bola katta bo'lgach odamlar oldida ajoyib tarzda o'z fikrini ifodalay oladigan bo'lishi isbotlangan. Lekin hammasidan ham muhimi, bolalar orasida kurtak ochayotgan tasavvur qilish qobiliyatini va orzularining to'g'ri shakllanishi, ularni do'stlari bilan bir xil ish-harakat bajarishi mobaynida namoyon qilishidadir. Aslida, "o'yin" – bu o'zini erkin namoyon etish kerak bo'lgan faoliyatdir.

## **Jismoniy mashqlar aql-idrok rivojlanishini tezlashtiradi**

Chet eldan qaytganimdan keyin e'tiborimni tortgan narsa ko'pchilik yaponlarning shalvirab yurishi edi. Professor Kuno Akutsu "Yaponiya erta rivojlanish uyushmasi" topshirig'iga binoan tadqi-qotlar o'tkazdi. Unga ko'ra, yurish chog'ida qad-qo-matning tik-tekis bo'lmasligi go'daklikda jismoniy mashg'ulotlarning yetarli bo'lmasligidan ekan.

Bolalar eng erta holatda sakkiz oydan yurishi ni boshlaydilar. Agar shu yoshda asosiy harakatlar mashq qildirilmasa, ular hech qachon ularni to'g'ri bajarmaydilar. Chunki bunga javob beradi-gan miya tizimi asoslari kerakli ko'nikmalarga ega bo'lmaydi. Shu ma'noda, yurishga doir erta mashqlar ham xuddi musiqa yoki xorijiy til darslari singari muhimdir.

Men ota-onalarni quyidagilarga ishontirish uchun bolaning jismoniy tarbiyasi haqida batafsil aytib o'tmoqchiman. Birinchidan, asosiy harakat ko'nikmalarini chaqaloqlik davridan mashq qildirish kerak. Ikkinchidan, to'g'ri jismoniy tayyor-garlik go'dakning aqliy qobiliyatini go'zal ravishda rag'batlantiradi.

Go'daklikda bolaning miyasi tanadan alohida rivojlanmaydi. Aqliy rivojlanish jismoniy va sensor rivojlanish bilan parallel ravishda kechadi. Masalan, suzish nafaqat mushaklarni, balki sezgi reflekslarini ham rivojlantiradi.

Professor Akutsuning yozishicha: "Jismoniy mashqlar barcha organlar faoliyatini yaxshilaydi va bolaning tashqi stresslarga chidamliligini oshiradi".

Bolani faqatgina ovqatlantirib, g'amxo'rlik qilsangiz ham o'saveradi. Ammo unga boshqa narsa bermasangiz, tug'ilganida ega bo'lgan qobiliyatları rivojlanmaydi. Jismoniy mashqlar bola rivojlanishing eng asosiy tarkibiy qismlaridandir. Mashqlar mushaklar, suyaklar, ichki organlar va miya rivojlanishini kuchaytiradi. Erta yurishni boshlagan go'dakning zehni juda o'tkir bo'lishi kuzatilgan. Bu esa qizg'in jismoniy mashqlar uning aqliy qobiliyatini rivojlantirganidan dalolat beradi.

## **Chap qo'lni o'ng qo'l bilan birgalikda mashq qildiring**

Tanishlaringiz orasida chapaqaylar ko'pmi? Eh-timol, bitta yoki ikkitadir. Ikki qo'llaridan foydalanana oladigan odamlar-chi? Ular undan ham kamroq. Momo Havvo va Odam Ato o'naqay bo'lishganmi, yo'qmi, bilmayman, ammo qaysidir bir davrdan faqat o'ng qo'ldan foydalanish odatga aylangan. Hamma narsa o'ng qo'llilar uchun mo'ljallangan – avtomashina boshqaruvi, sport uskunalar, oshxona jihozlari va asbob-uskunalar. Shuning uchun ota-onalar odat bo'yicha bolalarni o'ng qo'ldan foydalanishga o'rgatadilar.

Amerikada Yaponiyaga nisbatan o'ng va chap qo'llaridan birdek foydalanuvchi odamlar ko'proq. Ammo o'naqay kishilar chapaqaylardan ko'proq. O'ng qo'lni afzal ko'rishga biror-bir asos bormi? Chap qo'lga tayanish yurakka ko'p vazifa yuklay-

di degan nazariya mavjud. Ammo yuragi xasta chapaqaylarni hech uchratmaganman. Men yoshligida chapaqay bo'lgan bir insonni bilaman. U o'ng qo'lini ham mashq qildirgan, hozirda ikkisidan ham erkin foydalanadi. O'ng qo'lini ko'proq ishlatadigan odamlar ko'p, ammo bolaligidan ikkala qo'lidan ham foydalana oladiganlarga uzun ma'ruzalarni yozayotganda bu juda qo'l keladi. O'ng qo'li tolganda chap qo'lida, chap qo'li tolganda o'ng qo'lida erkin yoza oladi.

Buni eshitgach, men ham chap qo'limni mashq qildirishga harakat qildim, ammo natija chiqmadi. Mening yoshimda buning imkoniyati yo'q: chap qo'lda notekis yozdim, hatto koptokni ham mo'ljalga tekiza olmadim.

O'ng va chap qo'l bir vaqtida yaratilgan va ularning tuzilishi hamda bajaradigan vazifalari bir xil. Nega ular turlicha harakat qiladi? Ehtimol, yoshlikdan ularga munosabat turlicha bo'lgani uchundir.

Maymunlar qo'llarini o'ng va chapga ajratmaydilar, ular ovqat va o'yin uchun ikkala qo'llaridan ham foydalanadilar. Demak, bu borada odam maymundan zaifroqdir.

Shunday taxmin mavjudki, agar ona emizish vaqtida bolani doimo chap qo'lida ushlasa va o'ng

qo'li bilan yana biror narsa qilsa, u holatda bologna o'ng qo'li siqiladi va chap qo'li yaxshiroq rivojlanadi. Ba'zida bola chap qo'lida yozishni boshlaydi va chap qo'li o'ng qo'liga nisbatan yaxshiroq rivojlanadi.

Har bir odam, agar buni go'daklikdan boshlasa, ham o'ng, ham chap qo'lini rivojlantirishi mumkin. Men aytib o'tgandimki, barmoqlar mashqi aql-idrokni rivojlantirishga turtki bo'ladi. Bu nuqtayi nazarga ko'ra, chap qo'lni tashlab qo'ymaslik kerak.

## Bolalar uchun piyoda yurish foydali

Avtomashinalar qatnovi tufayli biz ko‘chada o‘ynayotgan bolalarni ko‘rmaymiz. Onalari ularni qo‘llaridan ushlaydilar, o‘zlarini kalovlanib yurishlariga ruxsat bermaydilar. Siz farzandingiz tezligida sekin yurishga vaqtingiz yo‘qligidan shikoyat qilishdan avval piyoda yurish unga naqadar foydali ekanligi haqida o‘ylab ko‘ring.

Piyoda yurganda butun tana harakatlanadi. Tanimizdagi 639 mushakdan 400 tasi piyoda yurganda ishtirok etadi. Boshqa jismoniy mashqlardan farqli ravishda, piyoda yurganda bosim va bo‘shashish bir maromda almashib turadi. To‘g‘ri yo‘lda yurganda bir oyoqning mushaklari taranglashadi va boshqa oyoqdagisi dam oladi. Energiya sarflamasdan ravon harakat vujudga keladi.

Ko‘p yozuvchilarning ishlari to‘xtab qolsa, piyoda sayr qiladilar, chunki sayr davomida yangi

fikrlar paydo bo'ladi. Piyoda yurish fikrlash jaryonini kuchaytirar, ehtimol. Biz o'z-o'zidan sodir bo'lishi kerak deb yurish jarayoniga e'tibor bermaymiz. Aslida, unday emas. Bo'rilar to'dasida katta bo'lgan ikkita qizcha tarixining ko'rsatishicha, bolaning atrofini emaklab yuruvchi jonzotlar o'rab tursa, u holda bola emaklashda davom etadi. Go'daklikdan bolani piyoda to'g'ri yurishga o'rgatish juda muhim.

Oyoqni sudrab yuruvchi odamlar yurishni boshlagan paytlarida doim katta oyoq kiyim kiyganlar degan yangicha fikr bor. Katta oyoq kiyimda yurganida oyog'idan sirg'anib ketaverganidan shunday bo'lib qoladi. Rost yoki yolg'onligi aniq emas-ku, shunday bo'lishi ham mumkin.

## **Harakatlanish qobiliyatlariga ham mashq zarur**

Ko'pchilik Ikeda Keiko degan ismni eshitgan deb o'layman. U Tokio olimpiadasida gimnastika musobaqalarida ajoyib chiqish qilib, keyincha lik yoshlarga murabbiylik qilgan sportchi ayoldir. "Bola rivojlanishi" jurnalida Ikedaning quyidagi gaplari keltirilgan maqola bor edi.

Er-xotin Ikedalar ikkisi ham gimnastlar, o'zlarining birinchi farzandini bizning "Yaponiya erta rivojlanish uyushmasi" ishlab chiqqan tizimga asosan mashq qildirishga qaror qildilar. Bola tez orada ajoyib jismoniy qobiliyatlarini namoyon etdi. Ota-onan uning iste'dodi bolaga nasldan o'tgan va uning "qoni"da bor deb o'yladilar. Shuning uchun ikkinchi farzandi bilan shug'ullanmadilar va xuddi shu sportchi ota-onadan tug'ilsa-da, u hech qan-

day sportga xos qobiliyatlarini namoyon qilmadi. Juftlik harakatlanish qobiliyatları nasldan ko'ra ko'proq mashqlarga bog'liq deb xulosa qildilar.

Bizning tana tuzilishimiz va harakatlar muvofiqligi nasldan o'tadi. Ammo tabiat in'om etgan tanani qanchalik rivojlantira olishingiz mashqlarga bog'liq. Tug'ilishdan suzish yoki gimnastika bilan shug'ullanish uchun go'zal tana tuzilishiga ega bo'lsangiz-da, maxsus mashqlarsiz bu qobiliyat nishonalari rivojlanmaydi. Shu bilan birga, zaif jismoniy qobiliyatlar bilan tug'ilgan bola sportda katta g'alabalarga erishishi mumkin.

Avvalroq aytganimiz besh tilda so'zlashuvchi iste'dodli aka va singil jismonan zaif tug'ilganlar. Ammo astoydil yugurish va badantarbiya mashqlari yordamida yaxshi natijalarga erishdilar. Qizchani 11 oyligida, akasini esa ikki yarim yoshda mashq qildira boshlaganlar. Natijada singlisi akasidan ham yaxshiroq yuguradigan bo'ldi. Bu misol yana bir bor harakatlantiruvchi qobiliyatlar naslga emas, balki erta mashq qildirishga bog'liq ekanini ko'rsatadi. Tug'ilishidan sportga qobiliyatli bolaning iqtidori, aslida, u sport shakllangan muhitda ulg'ayganligi natijasidir.

## **Sport bilan shug‘ullanish qancha erta boshlansa, natijalar shunchalik yaxshi bo‘ladi**

Avval aytib o‘tganimizdek, bir necha oylik cha-qaloq suzishni, endi yurishni o‘rganayotgan bola chang‘ida uchishni osongina o‘rgana oladi. Katta odamga bu ko‘nikmalarni egallash shu qadar qi-yin bo‘ladiki, hatto o‘rganish istagi ham yo‘qoladi. Men qirq yoshimdan keyin golf o‘ynashni boshlaganman. 15 yildan beri astoydil mashq qilsam-da, hali ham yomon o‘yinchiman. Agar yoshligma o‘rganishni boshlaganimda, bu darajada ko‘p zo‘riqmasdan yaxshi natijalarga erishardim.

Mening bir tanishim o‘z farzandlariga biri yetti, ikkinchisi to‘qqiz yoshga to‘lganida golf o‘ynashni o‘rgata boshladi. Sakkiz yil o‘tib ham, to‘ng‘ichi jismonan baquvvaturoq va boshqa sportlarda ken-jasidan ustun bo‘lsa-da, kichigi kattasidan golfda

ancha ilgarilab ketdi. Ularning otasi kichik o‘g‘li ning muvaffaqiyati sababini tushunishga harakat qilgan.

Yagona sabab – bu uning qaysi sport turini erta-roq mashq qila boshlaganidadir.

## **Bola uchun mehnat va o‘yin bir xil narsa**

Sizlarga yana bir maslahat bermoqchiman: farzandingiz qancha mehnat qila olsa qilsin, ammo bir shart bilan, uning harakatlari natijasi siz uchun muhim bo‘lmisin.

Go‘dak uchun ish faoliyati natijasi emas, jaryonning o‘zi muhimdir. Biz – kattalar esa har bir ish oxiriga yetkazilishini istaymiz. Bunda ish bilan ermak orasida farq ko‘ramiz.

Bajarilayotgan ish qanchalik oson bo‘lmasin, bolaga qanday qilishni ko‘rsatish kerak. Ish ko‘pincha o‘yinda zarur bo‘lmagan ehtiyyotkorlik va diqqat jamlashni talab etadi.

Shuning uchun uyda bolaning oddiy mehnatdagi ishtiroki uning aql-idroki va harakatlantiruvchi qobiliyatlarining rivojlanishi uchun foydali. Tokio universiteti sobiq rahbari Kaya Sejiga bolaligida

bog'dagi otlarni o'rgatishlarida katta ma'no bor edi. Bolani skripka, ingliz tili, musiqa kabi mashg'ulotlarga berishdan tashqari yaqinimizdagi bog'da o'rgatsa bo'ladigan mehnatlar – o't o'rish, sug'o-rish, pol artish kabi osongina sanalgan yumushlar borligini ota-onalarimiz unutib qo'yishadi. Buni o'rganish oson va kundalik turmushga bevosita alo-qasi bor. Albatta, bolani o'z holiga tashlab qo'yish mumkin. Bolaga o'ynashni emas, uyning oddiy yumushlarini bajarishga o'rgatish ancha qiyin-roqdir. Ammo o'z hayotini yengillashtirish uchun "kichik bolalarni ishlatish zulm" deb hisoblaydigan ota-onalar o'z farzandlarini mehnatdan mahrum qiladilar.





Beshinchi qism

**Nimadan o‘zni  
chegaralamaslik  
kerak?  
Kelajakka nazar**

## **Erta rivojlanish bolalar bog‘chasiga tayyorlanish emas**

Men ko‘p xatlar olaman. Ba’zilar mening qarashlarimga qo‘shilmaydi, ammo ko‘pchilik ularga xayrixoh bo‘ladi. Afsuski, ko‘pchilik erta tarbiyani birinchi navbatda qobiliyatni tarbiyalash emas, mакtabda bolani namunali o‘quvchi qilib kamolga yetkazish tarbiyasi deb qaraydilar.

Bir ona yozibdi: “Mening fikrimcha, asosiy mu-ammo maktab ta’limining mukammal emasligida, go‘daklikdagi tarbiyada emas. Mening farzandim zamonaviy maktabda boshlangan ta’lim jarayoni ni davom ettira olishiga shubham bor. Maktabdagi asosiy o‘lchov – bu imtihondagi bahodir. Bu tizim bolaning go‘daklikda qisman rivojlantirishga erishilgan iste’dodini o‘ldirmaydimi?”

Men ham bolalar olti yoshda maktabga chiqib, bir xil dastur bo‘yicha o‘qigandan so‘ng oliy ta’lim

tizimiga kiradigan Yaponiyadagi ta’lim tizimi oqilona ekanligiga shubha qilaman. Bu tizim iste’dodli bolalarga osonlik qilishi, qobiliyati sust bolalaraga esa qiyinchilik tug‘dirishi bilan qoniqarsizdir. XXI asrda jamiyat rivojlanishi uchun mas’uliyatni o‘z bo‘yniga olishga qodir insonlarni standart ta’lim tarbiya qila olmaydi.

Ta’lim tizimining mukammal bo‘lmaganligi bois men erta rivojlanishga jiddiy e’tibor beraman. Go‘daklikda to‘g‘ri tarbiya olganda bola maktabda ham yaxshiroq o‘qiydi. U maktabda “baholarni qo‘lga kiritish” tizimini yengilroq boshdan kechiradi. Erta rivojlanishning muhim davrida yaxshi urug‘lar ekilgan bo‘lsa, bola istalgan qiyinchiliklarga bardoshi yetadigan holatda ulg‘ayadi.

Bundan tashqari, men mavjud ta’lim tizimi doimiy qolishiga ishonmayman. Men aminmani, ota-onalar zarur o‘zgartirishlarga erishadilar. Shunday qilib, jamiyat va kelajak avlod taqdiri ularning qo‘lidadir.

## **Kelajakka ishonchsizlik bilan qarab to‘g‘ri tarbiyani yo‘lga qo‘yish mumkin emas**

Biz yuqorida erta ta’lim haqiqatlarini turli xil hayotiy misollar orqali yoritdik. Yangi tug‘ilgan chaqaloq eng yaxshi kuzatuvchi bo‘lib, uni o‘rgatib o‘sadiradigan inson onadan boshqasi emas. Bola tug‘ilgandan uch yoshgacha shaxs bo‘lib yetishishidagi eng muhim davr ona qo‘liga to‘liq ishonib topshiriladi. Bunday ajoyib xazinaning yashab qolishi yoki yo‘q bo‘lishi tug‘ilgandan boshlab onaning bola ta’limini qanday olib borganligiga bog‘liq. Bu bo‘limda maktabgacha ta’limda ko‘rinadigan ota-onalarning roli haqida odatdagidek bilganlarimni ochiqchasiga aytmoqchiman.

Yaponiyadagi zamонавиј та’лим тизимда maktabni bitirgan barcha yoshlar, kelib chiqishi, ijti-

Shuni bilingki, musiqa yoki til mashg'ulotlari farzandingiz iste'dodini rivojlantirishning yagona usuli emas.

Mehribon ota-onalar ta'limning boshqa imkoniyatlarini ham topadilar. Agar, ko'pchilik o'ylagani-dek, vaqt va pul shu qadar katta ahamiyatga ega bo'lganida, unda qanday qilib boy oilalarda uquvsiz, kambag'al oilalarda iste'dodli bolalar katta bo'lishini nima deb izohlash mumkin? Demak, masala bu yerda faqat pul emas, balki ota-ona mehr-muhabbati va tirishib harakat qilishidadir.

## **Kelajakka ishonchsizlik bilan qarab to‘g‘ri tarbiyani yo‘lga qo‘yish mumkin emas**

Biz yuqorida erta ta’lim haqiqatlarini turli xil hayotiy misollar orqali yoritdik. Yangi tug‘ilgan chaqaloq eng yaxshi kuzatuvchi bo‘lib, uni o‘rgatib o‘siradigan inson onadan boshqasi emas. Bola tug‘ilgandan uch yoshgacha shaxs bo‘lib yetishishidagi eng muhim davr ona qo‘liga to‘liq ishonib topshiriladi. Bunday ajoyib xazinaning yashab qolishi yoki yo‘q bo‘lishi tug‘ilgandan boshlab onaning bola ta’limini qanday olib borganligiga bog‘liq. Bu bo‘limda maktabgacha ta’limda ko‘rinadigan ota-onalarning roli haqida odatdagidek bilganlarimni ochiqchasiga aytmoqchiman.

Yaponiyadagi zamonaviy ta’lim tizimida maktabni bitirgan barcha yoshlari, kelib chiqishi, ijti-

moiy mavqeyi yoki mulkiy holatidan qat'i nazar, oliy ta'lim muassasasiga kirishlari mumkin. Bu o'z-o'zidan ajoyib, ammo bu tizim bir yomon jihatni vujudga keltirdi – oliy ta'lim asosiy maqsad sifatida ko'rila boshlandi va ortiq darajada baholandi.

Oliy ta'limsiz yaxshi martabaga erishish mumkin emas deb qaraladi, shuning uchun hamma o'qiydi. Yaxshi universitet diplomi nufuzli tashkilotdagi ishni kafolatlaydi. Hamma bir yo'ldan boradi, boshlang'ich maktabdan boshlab imtihonlarni ketma-ket topshiradilar. Shuning uchun erta tarbiyaga ota-onalar tomonidan imtihonlarni topshirishga asoslangan uzun yo'ldagi birinchi qadam sifatida qaraladi.

Bizning tez o'zgarayotgan dunyoda hozirgi qadriyatlar qanchalik uzoq turadi? Bugun qadrli bo'lgan narsa ertaga hech qanday qiymatga ega bo'lmasligi mumkin. Bugungi bola yigirma-o'ttiz yildan keyingi holatdagi qadriyatlar haqida gapiishi qiyin.

Bugungi kun qadriyatlardan kelib chiqib tarbiya qilsangiz, sizning farzandingiz kelajak uchun keraksiz kadr sifatida ulg'ayadi.

## **Bola tarbiyasidan muhimroq vazifa yo‘q**

“Men bola bilan shu qadar bandmanki, uning ta’limiga vaqtim yo‘q. Turli ideal nazariyalar bo‘lmasin, uni amalga oshirib bo‘lmaydi”. Onalar ko‘pincha mening maslahatlarimga shunday javob beradilar. Aminmanki, bola parvarishlash bilan unga ta’lim berish – alohida-alohida ajratilmaydigan bitta narsa. Har kuni bolani parvarish qilishingiz unga ta’lim berayotganingizning aynan o‘zidir. Sizning muhabbattingiz, munosabatingiz unga ta’sir ko‘rsatadi. Ba’zi onalar o‘z farzandlari uchun ishlashlarini ta’kidlaydilar, boshqalari esa eng muhimi bolani oziqlantirish deb o‘ylaydilar. Bola uchun eng yaxshi tarbiya onasining mehr-muhabbatidir. Ota-onalar uchun eng muhim mashg‘ulot bolalar tarbiyasidir. Agar ular bunga rozi bo‘lmasalar, nega farzand ko‘rdilar?

Ayollarning inson sifatida o‘ta jiddiylik bilan biron narsani o‘ylaydigan payti – bu homiladorlik davri deyishadi. Orzu qilgan tug‘ilajak farzandi haqida o‘ylab: “Bola uchun ota-ona bo‘lamiz”, deb

tayyorgarlik ko‘rishadi. Ammo tug‘ilgandan so‘ng, nihoyat, bitta ishim tugadi degan o‘yda bo‘ladilar. Lekin farzand uchun ota-onan quyosh kabi desak, yuqoridagidek holatlarda ular yosh niholni o‘stira olmaydigan quyosh nuriga o‘xshaydilar, shunday bo‘lib, ota-onan bo‘lib qolaveradilar. Bir ishimiz bitgandan keyin ikkinchi katta ishimiz kutib turadi. Ayollarimiz uchun bolani dunyoga keltirib, sog‘lom voyaga yetkazish aql va tana bilan bajaradigan eng katta majburiyatdir.

Doktor Suzuki ko‘p ota-onalar bilan yuzma-yuz suhbatlashganda quyidagilarni aytadi: “Boshqa ishlar bilan band bo‘lib bolaga qaray olmasangiz, buni nima deyish mumkin? Bu dunyoda bolaga qarashdan boshqa yana qanday muhim ish bo‘lishi mumkin? Agar bundan ham muhimroq ishingiz bo‘lsa, nega bolani dunyoga keltirdingiz? Uni ellik yildami, oltmis yildami, tugatganingizzdan keyin bolani dunyoga keltiring edi”. Ota-onaning roli qay darajada muhimligini bundan lo‘nda ifodalagan boshqa fikrni men bilmayman.

Erta ta’lim deb ataluvchi eng katta mas’uliyatlari ishning bosh ijrochisi otalar ham, ustozlar ham, jamiyat ham emas, bolani dunyoga keltirgan onalardir.

## **Bolalarni tarbiyalashdan avval ota-onalarni tarbiyalash zarur**

Bola tarbiyasi ota-onalar tarbiyasidan boshlanadi. Bu kitobning maqsadi xuddi shundadir. Ushbu kitobni o‘qiyotgan ota-onalar mendan xafa bo‘lmaydilar deb umid qilaman.

Bola tarbiyasini, ayniqsa, u kichikligida boshqa shaxsga topshirish kerak emas. Faqat ota-onalar, ayniqsa, ona bu vazifani muvaffaqiyatli bajara oladi. Buning uchun ular doimo ilm olishlari va fikr qilishlari kerak. Ota-onalarning o‘zlari eng ishonchli deb bilgan tarbiya usulini tanlashlari zarur. Onalar ta’limi terminini ishlatsa bo‘lsakda, bu ularni o‘qitish kerak degan ma’noni anglatmaydi. U onalarimiz o‘zlari beixtiyor o‘rganadigan ta’lim zarurati degan ma’noda berilgan. Mustaqil o‘qish yetarli bo‘ladi. O‘zlarini o‘qituvchilikka tay-

yorlayotganlar nafaqat ta'lif berishi kerak bo'lgan fanni, balki bolalar psixologiyasi va pedagogikani ham chuqur o'rganadilar.

Xuddi shunday, ona ham o'z farzandi uchun birinchi hamda asosiy o'qituvchi sanaladi. Ona bilim olish asnosida bolaning tarbiyasi uchun pedagogika asoslarini o'rganishi zarur.

## O‘z farzandingizdan o‘rganing

Onalar tushadigan tuzoqlaridan biri o‘ziga ortiq darajada ishonishdir. Albatta, bola uchun bu foydali deb o‘ylashlari mumkin, lekin o‘rgatayotgan narsalarining to‘g‘riligini bilmay turib davom ettiraverishsa, bola shu holda qotib qoladi va bu unga nisbatan zolimlik bo‘ladi. Afsuski, buni odatta aylantirib qo‘yayotganlarini ko‘p onalarimiz bilishmaydi. Eng yaxshi niyatlar bilan tarbiya qilishni ko‘zlab ona bolasining irodasiga quloq tutmay, diktatorga aylanishi mumkin. Bu moyillik kuchayishining sababi esa ona chaqaloqqa g‘amxo‘rlik qilish davrida yolg‘iz hayot kechirishidadir. Ona faqatgina o‘z farzandi uchun javobgar, chaqaloqqa g‘amxo‘rlik qilish bo‘yicha mas’uliyat yolg‘iz unda deb his qilishi kerak emas. Nafaqat turmush o‘rtog‘i, balki imkon bo‘lsa, buva va buvisi ham

onaning uydan tashqaridagi hayotida ishtirok etishiga yordam berishi darkor. Ammo, eng asosiyasi, shaxsiy tushunchalari va talablaridan kelib chiqib o‘z farzandiga past nazar bilan qarash odatini paydo qilmasligi, buning uchun esa bolasidan doimo o‘rganishi lozim.

“Barchamizning naslimiz yoshlikda”. Men hat-toki: “Go‘dak – kattalar uchun o‘qituvchidir”, – degan bo‘lardim. Bu nafaqat go‘daklik davriga, balki butun hayotimizga tegishlidir degan fikrdaman.

Har bir katta odam go‘dakdan biror narsa o‘rganishi mumkin. Qadim zamonlardan beri inson o‘zligini anglashga harakat qilgan. Shu maqsadda biologiya, tibbiyat, psixologiya kabi ilmlarga asos solingan. Men ota-onalar biologiya yoki falsafa kurslariga qatnashi shart deya olmayman, ammo o‘z xatti-harakatini baholashda haqqoniylikni yo‘qotmasligi uchun erishgan natijalaridan xotirjam bo‘lishi kerak emas. Shuningdek, o‘z farzandingizning hissiyotlari va xatti-harakatini haqqoniy baholash ham muhim. Bunday yondashuvda ona doimo bola tarbiyasiga yordam beruvchi yangiliklarni ochadi.

## **Farzand tarbiyasida otaga nisbatan onaning hissasi ko‘proq**

Tarixdan insoniyat rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shtgan ko‘pgina daholar ma’lum, ammo shaxsiy hayotda ular, odatda, baxtsiz sanalganlar. Chunki jismonan zaif bo‘lib, his-tuyg‘uga berilgan edilar.

Odamlar iqtidorli ham, omadsiz ham bo‘lib tug‘ilmaydilar. Buyuk shaxslarning tarjimayi holidan aniqlanishicha, ularning shaxsiy halovatsizligi yoshlikka borib taqaladi.

Masalan, odatda, ularning ota-onalari, ayniqsa, otalari qattiqqa'l tarbiyachi bo‘lganlar. Albatta, o‘z-o‘zidan bu juda yaxshi, ayniqsa, otalari tufayli ularning iste’dodlari shu qadar yuksak darajada rivojlangan. Ammo bunday otalar foydali mashg‘ulotlar uchun vaqtni tejab o‘z farzandlariga tengdoshlari bilan o‘ynashga yo‘l qo‘ymaganlar, bu

esa ularni muloqot va jismoniy mashqlardan mosuvo qilgan. Bu insonlar qay darajada iste'dodli bo'lishmasin, shaxsiy hayotda ular noto'g'ri tarbiya tufayli baxtsizlikka uchradilar.

Masalan, mashhur "G'oyalar" muallifi fransuz faylasufi Blez Paskalning otasi uni qattiqqo'llik bilan tarbiya qilgan. Paskalning otasi unga katta umidlar bog'lagan. O'zini farzandi tarbiyasiga bag'ishlash uchun davlat xizmatini tashlagan. Otasi unga geografiya, tarix, falsafa, tillar va matematikani o'rgatib, ularni yodlatgan emas, uning aqlini ehtiyyotkorlik va izchillik bilan rivojlantirgan. Paskal taniqli matematik, fizik va diniy faylasuf bo'lib yetishdi. Ko'pchilik uning mashhur iborasi ni eslaydi: "Inson – bu oddiygina zaif qamishpoya, ammo fikrlovchi qamishpoya". Ammo butun hayoti davomida bir kun ham baxtli bo'l maganligi haqidagi iqrорini juda kam odam eshitgan bo'lsa kerak. Blez Paskal faqat 39 yil umr ko'rdi. Uning onasi uch yoshligida vafot etgan, shu bois u deyarli ona mehrini bilmay o'sgan. Tengdoshlari jamoasidan mosuvo bo'lgan va o'z otasidan boshqa hech kim bilan muloqot qilmagan, doimiy qattiqqo'llikda, nazoratda yashagan. Albatta, bu uning sog'ligi va ruhiyatiga ta'sir qilmay qolmagan.

Ota go'dakdan dahoni tarbiyalab yetishtirishi mumkin, ammo faqatgina ona ruhiy va jismoniy qobiliyatlari uyg'un bo'lgan komil insonni tarbiyalay oladi.

Mana shuning uchun go'daklikda ona tarbiyasi juda muhim.

## **Go‘dakni o‘z xohish- irodasiga qarshi qo‘ymang**

Bolaning xohish-istiklarini e’tiborsiz qoldirib, uning shaxsiga nisbatan kuch ishlatalish, afsuski, tarbiya deb tushuniladi. Albatta, go‘dak hali o‘z xohishlarini ko‘rsatib bera olmaydi, ammo ona ularni ilg‘ab olishni o‘rganishi kerak. Bu uning asosiy vazifalaridan biri.

Bolani o‘z xohishiga qarshi biror narsani qilishga majburlash bilan uning o‘ziga bo‘lgan ishonchini yo‘qqa chiqarasiz. Ta’lim bilimlarning o‘qituvchidan o‘quvchiga berilishini anglatgani uchun o‘qituvchi yoki tarbiyachi vazifasini bajaruvchi shaxs o‘z-o‘zidan beruvchi holatida bo‘ladi. Shaxsiy fikrimga ko‘ra, bu ma’noda eng yaxshi ta’lim biz ta’lim deb ataydigan chegara tashqarisida. Masalan, hech bir ota yoki ona farzandiga ona tilini o‘rgatmoqdaman deb o‘ylamaydi. Shunga qaramay, ota-onasi bilan muloqot ta’lim deb atalmasa ham, bolani gapirishga o‘rgatadi.

Onaning nutqi, hissiyotlari va xatti-harakatlari har doim bolaga o'tadi, uning fe'l-atvori va qobiliyatları shakllanishiga ta'sir etadi. Boshqacha qilib aytganda, ular orasidagi muloqotning o'zi "ta'lim"dir. Bolani turli ko'nikmalarga o'rgatish ta'limning faqat bir tomonidir.

Chiba universiteti faxriy professori janob Tako Tero sumo dunyosining mashhur odamlari bolalik davrini tadqiq qildi. Ya'ni onadan boshlab atrofdagi odamlarning bolaga ta'sir o'tkazuvchi chuqur tushuntirishlari va g'amxo'rliklaridan bola ta'limi boshlanadi.

Hech bir majburlashsiz bolada biror narsani bajarish istagini paydo qilish o'qitishning yangi samarali usulidir. Shunday qilib, bolaning erta rivojlanishi ona va atrofdagilarning sermulohazaliligi va e'tiboriga bog'liq. "Dunyoning mashhurlari" kitobi muallifi olmon kimyogari V.Ostvald fikricha, iste'dodlar kitoblar va maqtovlar bilan tarbiyalanadi. Buyuk shaxslarning ota-onalari ularga kitoblarni majburlab o'qitgan emas, balki yoshlikdan mutolaa qilish muhitini yaratib, unga mehr uyg'otganlar. Ularga hech qachon: "Sen buyuk inson bo'lishingni istayman", – deb aytmaganlar. Aksincha: "Sening buyuk inson bo'lishingga shubham yo'q", – deya uqtirganlar.

## **Bola tarbiyasini hech qachon to‘xtatib qo‘ymang**

Yaponianing o‘zida yiliga ikki milliondan ortiq bola tug‘iladi. Qadim zamonlarda oilalarda qat’iy qoida – “Ko‘payinglar”ga binoan, odatda, besh-oltita farzand ko‘rilardi. Hozir oilada o‘rtacha ikki farzand bor. Boshqacha aytganda, bu ikki million bolaning ko‘pchiligi oldindan rejalashtirilgan edi. Bu bolalar omadli – ularning tug‘ilishini istashgan. Ammo ularning barchasi zarur parvarish va ta’lim olishadimi? Afsuski, yo‘q. Farzand tug‘ilishini ota-onalari oldindan rejalashtirishsa ham, u dun-yoga kelganida o‘z holiga tashlab qo‘yishadi. Shuba yo‘qki, bola umrining dastlabki uch yilida uning tarbiyasiga alohida e’tibor qaratish zarur. Hozirda ko‘pgina onalar homiladorlikni hech bir jiddiy sababsiz tugatmoqdalar.

Abort (bola oldirish) – bu yovuzlik, hayotning tirik urug‘ini yo‘q qilishdir. Musavvir Manabe Hiroshi bolani dunyoga keltirib, tarbiyasini o‘z holicha tashlab qo‘yish holatini “abort” deb nomlaydi. Jamiyat abortni qoralaydi, ammo unga faqat hayot berib, uning tarbiyasi bilan shug‘ullanmaydigan ota-onalarni qoralamaydi. Fikrimcha, bu abortdan ham dahshatli yovuzlik va uni hech oqlab bo‘lmaydi. “Abort” qilishga qanday sabab bo‘lmasin, uni oqlab bo‘lmaydi. “Abort” natijasida keyinchalik yigirma yil, o‘ttiz yil o‘tib uyingizda baxtsizlik hukm suradi.

Misol uchun, Amerikada qoradorini batamom yo‘q qilishga chaqirsalar ham, bunga erisha olmasliklariga sabab yigirma, o‘ttiz yil avval u yerda ota-onalar “abort” qildirganlar deyishadi. Xuddi shu holat Yaponiyada ham paydo bo‘lmasligini istar edim. Buning uchun bolani dunyoga keltirgandan so‘ng ota-onaning roli qanchalik muhimligini ta’kidlamoqchiman. “Abort”ga zinhor ruxsat berilmaydi.

Urushdan keyin Yaponiyada boshqa mamlakatlardagi kabi yashash juda og‘ir bo‘lgan edi. Shuning uchun ko‘p bolalar kerakli parvarishsiz ulg‘aydilar. Hozirgi sharoitda bolalarga nisbatan bunday e’tiborsizlikni sira oqlab bo‘lmaydi.

## **Ikki yoshgacha “ta’lim onasi” ham juda yaxshi**

Xorijga ketgan vaqtimdagi voqea. Bir restoran-ga ovqatlanish uchun borgan edim. Oldindagi stol-da ikki yoshlardagi bolasi bilan kelgan yosh ota-on-a ovqatlanayotgan edi. Ammo qandaydir yomon kayfiyatdagi bola jahl qilib ovqatlanmas edi. Shunda yosh ona bolasini qattiq koyib, orqasiga tarsaki urishgacha bordi. Keyin bola yig’lab baqirsa-da, o’zлari ovqatlanib bo’lgunga qadar bolaga umuman e’tibor bermadilar.

Yaponiyada bunday vaziyatda onalar atrof-dagilarni bezovta qilaman degan o’yda, qanday bo’lmasin, bolani yupatishga urinib barcha mum-kin bo’lgan narsalar bilan bolaning kayfiyatini ko’taradilar. Yana atrofdagilar ham onaga tanqid ko’zi bilan qaraydilar.

Bu ikki misolni taqqoslaganimizda xorijdagi onani, balki yaponlar “ta’lim onasi” deb tanqid qilishar. Lekin “ta’lim onasi” ko‘p bo‘lgani yaxshi. Miyadagi hujayra tarmoqlari hali shakllanib bo‘lmagan ikki yoshgacha bo‘lgan bolalarni hayvonlarni qo‘lga o‘rgatgandek tarbiya qilishda katta ma’no bor. Buni amalga oshirishda “ta’lim onasi” usulidan boshqa usul yo‘q.

Shuningdek, bunda atrofdagi odamlar ham ikki yoshgacha bo‘lgan bolasida intizom o‘rnatayotgan shijoatli yosh onani qo‘llab, iliq ko‘z bilan qarashlariga umid qiladi.

Ammo hayvonlarni takrorlatib qo‘lga o‘rgatgandek bolani ham o‘rgatsa bo‘ladigan davri ikki yoshlarda tugaydi, so‘ng uning o‘z xohishlari paydo bo‘la boshlaydi. Bu onalar “ta’lim onasi” uslubini tugatadigan davr hamdir. Bu davr kelganda bola istaklarini e’tiborga olmay o‘zingizning xohishingizni o‘tkazishingiz unda aks tuyg‘u uyg‘otib, ahamiyatli sanalgan “ta’lim onasi” befoyda bo‘lib qoladi.

Lekin bolaning o‘z xohishini bajara boshlaydigan ikki yoshdan o‘tgach, Yaponiyada “ta’lim onasi” usuli qo‘llash birdan kuchayadi. “U mumkin emas, bu mumkin emas”, – deb shu paytgacha mehribon,

muloyim bo'lib kelgan ona birdan qattiqqo'l onaga aylanadi. Ikki yoshgacha qattiqqo'l "ta'lim onasi", undan keyin esa mehribon ona bo'lsa, bola ta'limi uchun ideal ona timsoli sanaladi.

Albatta, bunday aniq qarorga kelib bo'lmaydi-yu, lekin onalarimiz asl munosabatlarida shu tomonlarni e'tiborga olishi muhim deb o'ylayman.

## Bolalar ota-onaning mulki emas

Bola ertami, kechmi, o‘z ota-onasining ta’nala-  
riga javob berish yoshiga yetadi: “Men sizdan bu  
dunyoga keltirishni so‘ramagandim. Endi koyish-  
ning keragi yo‘q”. U haq bo‘ladi. Haqiqatan, far-  
zand ota-onasi sabab bu dunyoga keladi va ular  
unga ulg‘aygunga, erkinlikka erishgunga qadar  
to‘liq javobgardirlar.

Ko‘pgina ota-onalar farzandlari ularning qara-  
mog‘i davrida o‘zлari istagan narsalarini qilishlari  
mumkin degan tushunchadan uzoq vaqt qutula ol-  
maydilar. “Men uni muhandis qilishni istayman”  
yoki “U musiqachi bo‘lishini istayman”, – deb xud-  
di tikuvchiga kiyim buyurtma bergen kabi fikr yu-  
ritishadi.

Onalar doktor Suzukidan: “Mening farzandim-  
dan biror narsa chiqadimi?” – deb so‘raganla-  
rida u, odatda: “Hech narsa”, – deb javob beradi.

Ammo onaning umidsizlikka tushganini ko‘rib: “U biror narsa emas, balki ajoyib inson bo‘ladi”, – deb qo‘sib qo‘yadi.

O‘z farzandiga bunday egalik hissiyoti keng tarqalgan. Buning sababi esa bolaning irodasi inobatga olinmasligidadir. Go‘dakning shaxsiy irodasi rivojlanishidan avval o‘ziga nisbatan bunday tuyg‘u o‘rnashsa, butun umr o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchi tiklanmasligi mumkin. Farzandingizning kelajaginiq rejalashtirish o‘rniga unga yaxshiroq qarang. Ota-onalarning majburiyati – o‘z farzandiga kengroq imkoniyat berish, kim bo‘lishini esa o‘zi hal qilishi kerak. Ota-ona emas, farzandning o‘zi kelajagining xo‘jayinidir.

## **Onaning qat'iyatsizligi bolaga zarar**

Mana 20 yildirki, Yaponiyada qabul qilin-gan tarbiyaning yangi demokratik tizimi faoli-yat ko'rsatmoqda. Bu tizim ko'p odamlarga avval yopiq bo'lgan sohalarga kirishga imkoniyat yarat-di. Ammo bu tizimda kamchiliklar paydo bo'la boshladi. Avval hech qachon erta rivojlanishga oliy ta'limga bo'lgan qadam sifatida qaralmagan va yaqin-yaqingacha ota-onalar farzandlari qayerda ta'lim olayotganiga e'tibor bermasdilar.

Afsuski, ota-onalar tarbiya masalasida qancha-lik ko'p bezovta bo'lsalar, shunchalik har xil ta'sir-larga moyil bo'ladilar. Ular bir yangilikdan ikkin-chisiga o'ta boshlaydilar. Tarbiyaning eski tizimi inkor etilganida ota-onalar unda hamma narsa yomon edi deb xulosa qildilar. Ular o'z farzandlari-ja istalgan narsani qilishga ruxsat berdilar va bola tarbiyasidan buvilarni uzoqlashtirdilar.

Shubhasiz, agar demokratik tarbiyani tanqid qilib, qanoatli (qattiqqo'l) tarbiyani targ'ib etsalar, ota-onalar bolalar tarbiyasiga yana buvi va buvalarni jalb etadilar. Bunday onalar tarbiyada ham kiyinishdagi kabi urfga taqlid qiladilar.

Albatta, foydali deb ko'ringan tarbiya usulini nega sinab ko'rmaslik kerak? Biroq ona mustaqil fikrlash erkinligiga ega bo'lmasa, qanday qilib yaxshi tarbiyachi bo'la oladi? Ham qanoatli, ham erkin tarbiya turli sharoit va turli yoshda yaxshidir.

Onalar o'zlariga ko'proq ishonishlari va tarbiya tizimini tanlashda izchil bo'lishlari kerak. O'zini goh u yoqqa, goh bu yoqqa urish bolaga zarar yetkazishi mumkin. O'ziga ishonch, qat'iyatli fe'l-atvor bola tarbiyasida juda muhim. Ammo, agar ona xato nazariya ta'sirida bo'lsa va bunda qattiq turib olsa, hech qanday chekinish qilmasa, bu ham bolaga zarardir.

Shuningdek, ona tarbiyaga e'tiborsiz va yuzaki munosabat bildirsa ham, hech narsa chiqmaydi. Bola tarbiyasi – ona uchun eng muhim vazifa va unda yengil yo'llar yo'q. Onalar tarbiyaga odatlardan, siyqasi chiqqan qoliplardan va yengil usullardan ozod bo'lgan o'zlarining shaxsiy yondashuvini ishlab chiqishlari shart.

## **Onanining manmanligi bolaga yolg‘on tushunchalarni singdiradi**

“Mening bolam juda iqtidorli, boshqa bolalar-  
dan ajralib turadi. Men unga pianinoni o‘rgata-  
man”. “Qo‘shti bola skripka chalishni o‘rganyapti,  
mening bolam ham o‘rganadi”.

Bunday tarbiyaga faqat manmanligi boshqara-  
yotgan onalar yo‘l qo‘yadilar. Bundan tashqari, erta  
tarbiya yuqori martabadagilar yoki iqtidorlilarning  
imtiyozi sifatida ko‘rilgan. Haqiqatda esa olifta  
ota-onaning musiqa bilan shug‘ullanishga maj-  
bur qilingan farzandlari ko‘pincha samimiysatsiz va  
g‘ayritabiyy bo‘ladilar, xuddi ularga onalari obro‘  
va raqobat kabi yolg‘on tushunchalarni singdir-  
gandek. Bolaning rivojlanishiga qaratilgan musiqa  
mashqlari ruhiy iztiroblar manbasiga aylanadi.

Musiqa mashg‘ulotlari bordan-bir maqsad emas, aniq maqsadga erishishdagi vositadir. Siz bola bu mashg‘ulotlardan nima olishi, natijada uning qayси qobiliyatlari rivojlanishini aniq ko‘ra bilishingiz kerak. Quruqdan-quruq musiqa mashg‘ulotlari hech qanday ahamiyatga ega emas.

Doktor Suzukining darsida ona uning darsiga yuborayotgan bolasidan ham yaxshiroq skripka chaladigan bolalar bo‘ladi. O‘z bolasining barchadan yaxshi bo‘lishini istaydigan onaning istagini qondirish mumkin emas. Shuning uchun u yo keraksiz manmanlikdan qutulishi, yo bolani mashg‘ulotlarga olib borishdan to‘xtashi zarur.

Skripkada chalish qobiliyatidan g‘ururlanish mumkin, albatta. Bu bolaning umumiy rivojlanishiga ijobiy ta’sir etadi. Mening o‘g‘lim o‘z kuchiga bo‘lgan ishonchga skripka mashg‘ulotlari sababli erishdi va shundan keyin boshqa sohalarda muvaffaqiyat qozondi.

## **Farzandni o‘zgartirishdan avval o‘zingiz o‘zgarishingiz kerak**

“Ota-onan yuragidagini bola bilmaydi”, – deganlaridek, bolaning aytmoqchi bo‘lganini eshitmay turib “uf” tortadigan ota-onalar bu bolaning yomon ekanligini ko‘rsatadimi? Men bunga ota-onalarning o‘zlarini aybdor deb o‘ylayman.

Doktor Suzuki o‘z farzandi bilan juda yomon munosabatda bo‘lgan ona haqida aytib bergan. Ona umidsizlik bilan: “Nega Xudo menga bunday yomon farzand yuborgan?!” – deb nolir ekan. Bir kuni doktor Suzuki unga: “Buning sababi uni doimo urishishingizda. U doim bezovta. Agar vaqtivaqtib bilan siz ham o‘z xatolaringizni tan olsangiz, bolangiz sizni yaxshiroq tinglaydi va hurmat qiladi”, – debdi. Bir muddatdan so‘ng ona doktor Suzuki yoniga juda mamnun holatda kelib, o‘z o‘g‘il-

chasi bilan munosabatini yaxshilaganini aytib beribdi.

Vijdonli onalar ko‘pincha ularning talabchanligi norozilikka uchrashidan shikoyat qiladilar. “Sizga aytish yaxshi, chunki buni o‘zingiz qilishingiz kerak emas”. Bolalar haq! Buyruq berish tarbiya qilishning yaxshi usuli emas. Agar bolalar butun kuchlarini ishga solsalar-u, ayni vaqtida, kattalar ota-onalari sifatida qilishlari kerak bo‘lgan ishning o‘ndan biri yoki yarmini ham qilmasalar, bundan yaxshilik chiqmaydi. Ota-onalar ham biror narsani birga qilib, unga ko‘rsatish yo‘lini topishlari lozim.

“Buni qil!”, “Buni yodla!” – deb buyruq berib otaning o‘zi kursida gazeta o‘qib o‘tirishi – bu yalqov kishining usuli. Farzandni tarbiyalamoq o‘zini ham doimiy ravishda tarbiyalash demakdir.

## **Farzandingiz o'zingizdan ham yaxshiroq bo'lsin**

“Shogird o'z ustozidan o'zib ketdi”, degan naql bor. Bu tarbiyaning asosiy maqsadi bo'lishi kerak.

Ko'p marotaba ta'kidlaganimdek, iqtidorli bo'lib tug'ilmaydilar, balki shunday tarbiya qilinadilar. Agar aksioma sifatida inson qobiliyatları 100 foiz tug'ma deb olsak, demak, farzand, hech bo'lmasa, o'z ota-onasi darajasiga yetishi kerak. Agar tarbiyangiz natijasida farzandingiz sizdan ozgina bo'lsa-da o'zib ketmasa, demak, siz yalqov ota-onan bo'lgansiz.

Bizning Iste'dodlar mакtabimизда bolalarga bir plastinkani ko'p marotaba tinglashga berardik. Plastinkada ular o'rganayotgan skripka uchun mu-siqa asari bor edi. So'ng ulardan tinglaganlaridan ko'ra uni yaxshiroq chalishni so'radim va ular qat-

tiq harakat qildilar. Oxir-oqibat ko‘pchilik buning uddasidan chiqdi, taajjublanish kerak emas, chun-ki bu mening ijroimdagি musiqa asari edi.

Umuman aytganda, Iste’dodlar mакtabining asosiy g‘oyasi – bolalarni shunday o‘qitish kerakki, o‘z ota-onalari va ustozlaridan o‘zib ketsinlar. Eng yaxshilarini biz “talaba”, qolganlarni “talabaning o‘quvchisi” deb ataymiz. Agar o‘quvchilar ustozlari darajasiga yeta olishmasa, so‘ng boshqalarni o‘qitishsa, bunday jamiyat tanazzulga uchrardi.

Shogird ustozidan o‘zib ketishi shart, aks holda, taraqqiyot bo‘lmaydi.

Albatta, barcha ota-onan farzandi o‘zidan o‘zib ketishini istaydi. Ota-onaning qobiliyati yuksak bo‘lmasa-da, ularning farzandlari ilm-fanda mu-vaffaqiyatlarga erisha oladi.

## **XXI asrni keyingi avlodlarga ishonadiganlar quradi**

Hozir dunyo jadallik bilan o'zgarib bormoqda. Texnika taraqqiyoti bizning hayotimizni hayratlanarli darajada boyitib, yengillashtirib yubordi. Kompyuterni bir misol qilib oladigan bo'lsak, avvallari sonlarni hisoblashni insondan tez bajaradigan yo'q edi. Hozir esa inson miyasiga mos yaqinlikdagi vazifani bajaradigan kompyuterdir. Biroq texnika taraqqiyoti o'sib, qulaylashib borishi bilan birga insonlarning fikrlashi ham o'zgarib bormoqda. Hozirgi dunyoda birinchi ko'zga tashlanadigan narsa – odamlar orasida ishonch yetishmasligi, bu jamiyatda tartibsizlik, zo'rslash, ekologik muammolarni keltirib chiqaradi.

Agar odamlar orasida ishonch bo'lmasa, hech qanday boylik va hayot qulayliklari bizga tinchlik va baxt olib kelmaydi.

Yaponiyada har bir o‘quvchi odamlarga ishonish va boshqalarga qo‘s Shimcha qiyinchilik tug‘dirish kerak emasligini biladi. Ammo tushunish – bir masala, go‘zal qoidalarni hayotga tatbiq etish – boshqa masala. Afsuski, bu ziddiyat inson tabiatiga xosdir. Agar bola bu tamoyilni faqat nazariyada o‘rgansa, odamlarga ishonishni o‘rganmaydi. Faqat haqiqiy hayotda u odamlarga ishonishni o‘rganadi.

Agar odamlarga ishonish tamoyili go‘dakka ona suti bilan singdirilgan bo‘lsa, bu bola jamiyat kelajagi uchun o‘ziga mas’uliyatni oladigan shaxs bo‘lib ulg‘ayadi.

Boshqalardan aqlli roq bo‘lsa-da, odamlarga ishonmasa, hayotda ko‘p narsaga erisha olmaydi.

Zamonaviy ta’lim tizimi imtihonlar va baholarga ortiqcha e’tibor berib, odamlarga ishonchni e’tiborga olmaydi va uni rag‘batlantirmaydi. Shuning uchun bu sifat erta yoshda rivojlanishi juda muhim. Bu mакtabgacha ta’limning asosiy vazifasidir.

## **Bugungi bolalar sovuq urushlar va irqiy kamsitishlarga chek qo'yadilar**

Biz hozirgi zamon taraqqiyot darajasini maqtab, sovuq urushlar, irqiy xurofot, milliy va diniy nizolar haqida unutyapmiz. Bu muammolarni bartaraf etish uchun tuzilgan BMT (Birlashgan Millatlar Tashkiloti) va boshqa ko'plab xalqaro tashkilotlarning sa'y-harakatlari aksariyat hollarda besamar ketmoqda. Biz o'zaro ishonch va toqatni o'zimizda tarbiya qilmagunimizcha millatlar o'rtasida tinchlikka erishmaymiz. Avloddan-avlodga o'tuvchi nafrat, alamzadalik va tajovuzkorlik, ziddiyat va shubha bilan qarash deyarli biologik sifatlarga aylandi. Yoshlikda bu hissiyotlarni singdirib, keyin ulardan qutulish qiyin.

Biz, kattalar, o'z bolalarimizga bu illatlarni singdirmasligimiz zarur. Go'daklar irqiy nafrat bilan zaharlanmagan bo'ladilar. Agar yoshlikda oq va qora

rangli bolalar birgalikda teng ravishda o'ynashsa, ular odamlar o'rtasidagi tana rangi xuddi tashqi ko'rinish va bo'y kabi tabiiy holat degan tushuncha bilan ulg'ayadilar. Ular faqatgina kattalarning aytib berishi orqali irqiy ajratishlardan xabar topadilar. Urushlarni chin qalbdan to'xtatishni istaganlar bugungi dunyodagi siyosiy holat haqidagini emas, balki qanchalik mablag' talab qilmasin, yosh bolalar tarbiyasi haqida qayg'urishlari shart. Bugungi bolalar ertangi jamiyatni quradilar.

Butun dunyodagi tinchlik bizga, hozirgi kattalarga bog'liq emas, u hozirda yo'rgakda bo'lgan avlodga bog'liq.

Men erta tarbiyaning ahamiyatini oshirib yubormayapman. Mening so'zlarim biror-bir harakatga sabab bo'ladimi-yo'qmi, bilmayman. Ehtimol, ko'p tanqidlarga, hattoki, asosiy nizomlarim, tarbiya usullarim va ona vazifasini qanday tushunishim ham e'tirozlarga sabab bo'ladi. Biroq, umid qila-manki, mening kitobim odamlarni dunyoda biror narsani o'zgartirishga, ayniqsa, uch yoshgacha bo'lgan davrdagi bolaning erta rivojlanish muammosiga qiziqish uyg'otadi. Ishonamanki, mening bu kitobim shu maqsaddagi birinchi qadamdir.

# **Ibuka va erta yosh ta'limi**

**Chiba universiteti  
faxriy professori  
Tago Akira sharhi**

Masaru Ibuka 1992-yili rahbar-muhandis sifatida ilk bor “Madaniy meros” nishoni bilan taqdirlangan. Kichik zavod shaharchasidan chiqib “Sony” korporatsiyasini dunyoga mashhur qilgan Ibukaning faoliyati urushdan keyingi yaponiyaliklarning orzu-istiklariga bag‘ishlangan edi. Lekin erta ta’lim tadqiqoti Yaponiya madaniyatiga undan ham kattaroq hissa qo’shdi.

Masaru Ibukaning erta yosh ta'limi haqida o‘ylashiga sabab, kitobda ham qayd etib o‘tilganiek, 1960-yillarda Yaponiyaning har bir huduvida yuz bergen talabalar isyonidir. Bu vaqtida ta’limdagи muammolar haqida bayonot bergen

tadqiqtchilar ko‘p bo‘lgan. Lekin buni Ibukachalik jiddiy o‘yaydigan odam yo‘q edi. U yoshlarni tarbiyalash uchun erta ta’lim muhim deb o‘ylab 1969-yili “Erta rivojlanish uyushmasi”ga asos solgan.

Men uyushmaga asos solingan vaqtdan boshlab ruhshunos sifatida ta’sir o’tkazib kelmoqdam. Birinchi navbatdagi ishimiz Ibukaning erta ta’limidagi muhim jihatlarni ochish bo‘lsa-da, bu haqiqatlar ma’nosini tushuntirib beruvchi odamlar ko‘p emas. Ayniqsa, dono insonlardan go‘daklar ta’limi haqida so‘raganimizning o‘zida bunga qarshi chiquvchilar ko‘p bo‘ldi, bilimli insonlar orasida so‘zga ham, nazariyaga ham tushunmaydigan bolalarga ta’lim berishdan ma’no yo‘q dey-diganlar topildi.

Lekin Ibukaning “Bolalarda qobiliyatning shakllanishida uch yoshgacha bo‘lgan ta’lim muhimdir”, degan qarashlari e’tirozlarga bo‘yin egmadi. 1971-yili erta ta’lim haqida birinchi kitobi – “Uchdan keyin kech” nashr qilindi. “Ibuka nazariyasi” dun-yoga yoyildi.

Hozirga qadar erta yosh ta’limi tabiiy jarayon sifatida tanilib, keng tarqaldi. Ta’lim va madaniyat vaziri ham erta yosh ta’limiga qiziqish bildirmoq-

da. Yaponlarning erta yosh ta'limi haqidagi qarashlari o'zgargan bo'lsa, bu Ibuka sabablidir.

Ibuka uchun hozir eng xavotirlanarlisi – erta ta'lim to'g'ri qo'llanilyaptimi, yo'qmi? Kitobni o'qib tushunganingizdek, Ibuka ta'limdagi ko'p jihatlarni inkor qiladi. "Faqat bilim darajasini ko'tarish, yaxshi o'quvchi bo'lish, yaxshi bog'chaga borish uchun ta'lim" kabilar Ibukaning qarashlariga tamomila zid. Dunyoda bunday tushunmovchiliklar hali juda ko'p.

Erta yosh ta'limining tub mohiyatini ochib beruvchi bu kitob bola tarbiyasidagi bosh manba si-fatida kelajakda ham o'z qadrini saqlab qolishiga shubha yo'q.

*Ma'rifiy-ommabop nashr*

## Masaru Ibuka

### UCHDAN KEYIN KECH

Nurmuhammad Nargiza Hamidulla qizi tarjimasi

**Muharrir:** Abdulla SHAROPOV

**Badiiy muharrir:** Bahriiddin BOZOROV

**Texnik muharrir:** Dilshod NAZAROV

**Sahifalovchi:** Inomjon O'SAROV

**Musahhihlar:** Adolat ADBULLAYEVA,

Parvina G'AYBULLAYEVA



Terishga berildi: 05.06.2019-y.

Bosishga ruxsat etildi: 04.11.2021-y.

Ofset qog'oz. Qog'oz bichimi: 84x108  $\frac{1}{32}$ .

Georgia garniturasi. Ofset bosma.

Hisob-nashriyot t.: 4,96. Shartli b.t.: 16,3.

Adadi: 5 000 nusxa.

Buyurtma №118/1216-21.

«AKADEMNASHR» nashriyotida tayyorlandi

Toshkent sh., So'galli ota k. 5-uy.

«Credo Print» MChJ kitob fabrikasida chop etildi.

Toshkent sh., Bog'ishamol k. 160.

Tel.: (+998 99) 433-16-77

e-mail: info@akademnashr.uz

web: www.akademnashr.uz

“Bu kitob – yozilgan kitoblarning eng muhimlaridan biri. Mening fikrimcha, uni Yer kurrasidagi barcha ota-onalar o‘qishlari kerak”. **Glen Doman**



Masaru Ibuka

“Sony” korporatsiyasi asoschilaridan biri. Uning muhandislik g‘oyalari dunyoni o‘zgartirdi va Yaponiyaning yetakchi mamlakatlardan biriga aylanishiga yordam berdi.

Masaru Ibuka boshqa sohada ham hurmatga sazovor bo‘lgan: bir necha o’n yil avval uning go‘daklik davridagi bolalar rivojlanishi to‘g‘risidagi yangi nazariysi an’anaviy tushunchalarni butunlay o‘zgartirdi. Masaru Ibuka doim ta’lim va jamiyatning shakllanishida uning ahamiyati bilan qiziqqan. Sekin-asta uning qiziqlishi bolalarning go‘daklik davridagi ta’lim sohasiga qaratildi. Bu masalani chuqr o‘rganib, bir qator kitoblar yozdi. Ulardan eng mashhuri – “Uchdan keyin kech”. Unda har bitta go‘dakda erta rivojlanishga tabiiyl talab mayjudligi, uning kelajakdagagi muvaffaqiyati bu talabning qondirilishiga bog‘liqligi bayon qilingan.

Masaru Ibukaning xizmatlariga “Yaponiya erta rivojlanish uyushmasi” va “Iqtidorlarni o‘qitish” maktabini tashkil etish ham kiradi.

ISBN 978-9943-5652-7-2

